


N.U. BIKBAYEVA


# МАТЕМАТИКА

МАҚБУРИЯ  
НУСХАЛАР




Umumiy ta'lim maktablarining  
4- sinfi uchun darslik

2- nashri



TOSHKENT • „O‘QITUVCHI“ • 2004





## MINGLIK

### 3- sinfda oʻtilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish

1. Har bir qatordagi choʻplar nechta?

2. Sonlarni oʻqing: 756, 980, 302, 444, 271, 900, 1 000. Bu sonlarning har birida nechta birlik, nechta oʻnlik va nechta yuzlik bor?

Bu sonlardan qaysi biri eng kichik? Eng katta?

3. Teskari tartibda sanang: 62 dan 50 gacha; 502 dan 498 gacha; 1 000 dan 991 gacha.

4. Sanoqda qaysi sonlar tushirib qoldirilgan?

1) 356, 357, 359, 360;    2) 735, 737, 739, 800.

5.  $269 + 1$      $770 - 1$      $399 + 1$      $600 - 1$      $500 - 1$   
 $540 - 1$      $489 + 1$      $800 - 1$      $899 + 1$      $500 + 1$

6. Tikuvchilik ustaxonasida 7 ta koʻylak tikish uchun 21 m mato sarflandi. 9 ta shunday koʻylak tikish uchun necha metr mato kerak boʻladi?



7. Jadvalni to'ldiring:



Qo'shiluvchi	24	37	
Qo'shiluvchi	36		20
Yig'indi		97	100

Kamayuvchi	78		90
Ayiriluvchi	63	40	
Ayirma		48	20



8. Bog'da 24 tup olma, olmadan 2 marta ko'p nok, nokdan 20 tup kam o'rik bor. Bog'da necha tup o'rik bor?

9. Cho'tga solingan sonlarni o'qing:



Yuzliklar  
O'nliklar  
Birliklar

Cho'tda pastdan yuqoriga sanaganda nechanchi simda birliklar, o'nliklar, yuzliklar joylashadi?



10. 1) 2 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;

2) $30 \cdot 2$	$50 \cdot 2$	$180 : 2$	$500 \cdot 2$	$600 : 2$
$80 \cdot 2$	$70 \cdot 2$	$140 : 2$	$300 \cdot 2$	$800 : 2$

11. 8 ta o'nlik 9 ta birlik

8 ta yuzlik 9 ta o'nlik

7 ta yuzlik 7 ta o'nlik 7 ta birlik

7 ta yuzlik 0 ta o'nlik 7 ta birlik

dan iborat sonlarni yozing va o'qing.

Sanoqda shu sonlarning har biridan oldin va ularning har biridan keyin qaysi son aytiladi?

12. Sabzavot omborida bir kunda 800 banka bodring, undan 2 marta kam pomidor tuzlandi.




Quyidagi ifodalar nimani anglatadi:

$800 : 2$		$800 + 800 : 2$		$800 - 800 : 2$
-----------	--	-----------------	--	-----------------


13.  $70 + 60$  |  $190 - 90$  |  $300 + 500$  |  $320 + 430$   
 $90 - 20$  |  $600 - 400$  |  $120 + 250$  |  $860 - 250$


14. Shahar bozoriga 3 mashina tarvuz jo'natildi. Bir mashinada 150 ta, ikkinchi mashinada birinchidagidan 50 ta ko'p, uchinchi mashinada esa birinchi va ikkinchi mashinalarda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha tarvuz bor. Uchinchi mashinada qancha tarvuz jo'natilgan?

 15. Jadvalni to'ldiring:

Ko'paytuvchi	6	9	
Ko'paytuvchi	8		7
Ko'paytma		45	21


Bo'linuvchi	42		63
Bo'luvchi	6	7	
Bo'linma		8	9

 16.  $160 - 80$  |  $140 - 90$  |  $70 + 70$  |  $110 - 20$   
 $130 - 70$  |  $60 + 50$  |  $90 + 40$  |  $150 - 90$


 17. 1) O'yinchoqlar do'konida 849 ta archa o'yinchoqlari sotildi. Bu necha yuzlik, o'nlik va alohida birliklardan iborat?

2) Do'konda 6 ta yuzlik va 8 ta o'nlik archa o'yinchoqlari sotildi. Nechta o'yinchoq sotilgan?

 18. 1) 3 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;

 2)  $40 \cdot 3$  |  $60 \cdot 3$  |  $150 : 3$  |  $300 \cdot 3$  |  $600 : 3$   
 $90 \cdot 3$  |  $80 \cdot 3$  |  $240 : 3$  |  $200 \cdot 3$  |  $900 : 3$ .


19.  $67 + 45$  |  $81 - 37$  |  $256 + 148$  |  $451 - 265$   
 $84 + 59$  |  $90 - 44$  |  $628 + 283$  |  $618 - 517$


 20. 900 tiyin =  so'm | 3 m 72 sm =  sm  
600 tiyin =  so'm | 9 m 09 sm =  sm

21. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

1 ta yashikning massasi	Yashiklar soni	Hamma yashiklar massasi
Bir xil	7 ta	42 kg
	9 ta	?

22.  $15 \cdot 4$  |  $4 \cdot 25$  |  $36 : 3$  |  $84 : 3$  |  $88 : 4$   
 $32 \cdot 3$  |  $9 \cdot 11$  |  $51 : 3$  |  $46 : 2$  |  $60 : 5$


 23. Do'konga 100 ta kitob keltirildi. Kun bo'yi ularning beshdan bir qismi sotildi. Shu kuni qancha kitob sotilgan?

 24.  $200 - 4 \cdot 25 + 8$  |  $80 : 2 \cdot 3$   
 $62 + 8 \cdot 2 - 54$  |  $67 - 38 + 46$

25. Sonlarni o'qing: 865, 907, 520, 700. Bu sonlarning yozilishida har bir raqam nimani bildirishini tushuntiring.

 26. 1) 4 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;


2)  $30 \cdot 4$  |  $80 \cdot 4$  |  $160 : 4$  |  $100 \cdot 4$  |  $400 : 4$   
 $40 \cdot 4$  |  $70 \cdot 4$  |  $240 : 4$  |  $200 \cdot 4$  |  $800 : 4$




Rasmda tasvirlangan nuqta, kesma va shakllarning nomini ayting.


28. 5 ta sigirdan kuniga baravardan hammasi bo'lib 50 l sut sog'ib olindi. Xuddi shunchadan sut beradigan nechta sigirdan 90 l sut sog'ib olish mumkin?

$$29. \begin{array}{|l|l|l|} \hline 400 \cdot 2 + 200 & 100 : 25 + 75 : 25 & 48 : 4 \\ \hline 800 - 600 : 3 & 3 \cdot 26 - 78 : 13 & 17 \cdot 4 \\ \hline \end{array}$$

 30. 10 ta bir xil xaltachaga 20 kg un solingan. 60 kg unni solish uchun shunday xaltachadan nechta kerak bo'ladi?

 31.  $803 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$  |  $17\,000 \text{ g} = \square \text{ kg}$   
●  $560 \text{ tiyin} = \square \text{ so'm } \square \text{ tiyin}$  |  $4 \text{ dm} = \square \text{ sm}$

32. 1) 580; 390; 700 da nechta o'nlik bor?  
 2) 18 ta o'nlikda; 56 ta o'nlikda nechta birlik bor?

 33. 1) 5 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;  
 2)  $70 \cdot 5$  |  $30 \cdot 5$  |  $300 \cdot 5$  |  $250 : 5$  |  $160 \cdot 5$   
 $40 \cdot 5$  |  $450 : 5$  |  $120 \cdot 5$  |  $500 : 5$  |  $130 \cdot 5$

34. Misollarni ustun shaklida yozib yeching:

$$387 \cdot 2 \quad | \quad 245 \cdot 4 \quad | \quad 848 : 4 \quad | \quad 936 : 3$$


35. 1 dm 2 sm uzunlikdagi kesma chizing. Kesma uzunligini santimetrlarda ifodalang.

36. Bir tup behi daraxtidan 12 kg, ikkinchi daraxtdan 18 kg behi terib olindi. Hamma behi 6 kg dan qilib yashiklarga joylandi. Buning uchun nechta yashik kerak bo'lgan? (Masalani ikki usul bilan yeching.)

 37.

<i>a</i>	16	9	400	320
<i>b</i>	6	12	1	3
<i>a · b</i>				

<i>c</i>	38	56	840	99
<i>d</i>	2	14	7	33
<i>c : d</i>				

 38.  $60 + 80$  |  $430 \cdot 2$  |  $545 + 268$  |  $126 \cdot 5$   
●  $120 - 90$  |  $180 : 2$  |  $381 - 126$  |  $565 : 5$

39. 1) Har bir qatordagi cho'plar soni jadvalda yozilgan. Bu sonlarni o'qing.



	Yuzlar	O'nlar	Birlar
	4	3	2
	2	6	0
	3	0	9

- 2) Bu sonlarning har birida nechta birlik; nechta o'nlik va nechta yuzlik borligini hisoblang.
- 3) Bu sonlarning har birida hammasi bo'lib nechta birlik; hammasi bo'lib nechta o'nlik borligini hisoblang.
- 4) Bu sonlarning har birini yozish uchun necha xil raqamdan foydalanilgan?

40. 1) 6 ga bo'lish va ko'paytirish jadvalini takrorlang;

2) $70 \cdot 6$	$420 : 6$	$200 \cdot 6$	$540 : 6$
$40 \cdot 6$	$300 : 6$	$500 \cdot 6$	$900 : 6$

41.  $500 + 4$  |  $488 - 80 - 8$  |  $364 - 4 - 40$   
 $500 + 40$  |  $488 - 400 - 8$  |  $574 - 500 - 70$


42. Kutubxonada 95 ta kitob bor edi. 9 o'quvchi 4 tadan kitob oldi. Kutubxonada nechta kitob qoldi?

43. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydoncha atrofini simto'r bilan o'rab olish kerak. Agar maydonchanning bo'yi 8 m, eni 7 m bo'lsa, necha metr simto'r kerak bo'ladi?

44.  $(480 - 400) : 4$  |  $64 : 8 \cdot 7 - 9$  |  $(680 + 20) : 7$   
 $720 : 9 - 270 : 9$  |  $91 - 4 \cdot 11 \cdot 2$  |  $513 + 60 : 12$

45. Tikuvchi 8 ta paltoga 5 tadan va 7 ta paltoga 4 tadan tugma qadadi. Tikuvchi hammasi bo'lib nechta tugma qadagan?





## KO'P XONALI SONLAR

### Raqamlash

46. 1) 7 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;  
 2)  $30 \cdot 7$  |  $80 \cdot 7$  |  $140 : 7$  |  $280 : 7$  |  $350 : 7$

47. Cho'tga solingan son jadvalda yozilgan. Bu sonni o'qing. Yangi so'zlarni eslab qoling. 326 soni quyidagilardan tashkil topgan:



Yuzlar	O'nlar	Birlar
3	2	6
III xona birligi	II xona birligi	I xona birligi

6 birlik yoki **birinchi xonaning** 6 birligi;  
 2 o'nlik yoki **ikkinchi xonaning** 2 birligi;  
 3 yuzlik yoki **uchinchi xonaning** 3 birligi.



Birliklar, o'nliklar va yuzliklar birgalikda birinchi sinf – birlar sinfini tashkil qiladi.

48. Jadvalda yozilgan sonlarni o'qing. O'ngdan chapga qarab o'qiganda birliklar qaysi o'rinda yoziladi? O'nliklar-chi? Yuzliklar-chi?



Yuzlar	O'nlar	Birlar
III xona birligi	II xona birligi	I xona birligi
3	4	8
5	0	9

348 sonining har bir xonasida nechta birlik bor?  
509 sonida-chi?

49. Quyidagi sonlarni yozing va o'qing:


1) uchinchi xonaning 6 birligi, ikkinchi xonaning 0 birligi, birinchi xonaning 1 birligi;


2) uchinchi xonaning 2 birligi, birinchi va ikkinchi xonalarning birliklari yo'q.

50.  $999 + 1$  |  $700 - 1$  |  $485 - 80$  |  $200 + 40 + 3$

51. Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar kam ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?





52. Oshxonada 58 kg no'xat va undan 19 kg ko'p guruch ishlatildi. Hammasi bo'lib qancha don mahsuloti ishlatilgan?

 53.  $9 \cdot 6$  |  $63 : 7$  |  $720 + 30$  |  $640 + 200 - 300$

 54. 6 sm uzunlikdagi bir kesma va undan 2 sm qisqa boshqa bir kesma chizing.

55. 1) 903, 70, 884, 980, 999 sonlarini cho'tga soling;  
2) Cho'tga solingan 999 soniga 1 ni qo'shing.  
Qanday son hosil bo'ladi?

56. **Ming** – bu yangi sinf – minglar sinfining birligi. Minglar ham birlar sinfi kabi sanaladi.



10 ming – bu  
1 ta o'n ming

10 ta o'n ming –  
bu 1 ta yuz ming

10 ta yuz ming –  
bu 1 ta ming ming.



Minglar (4-xona), o'n minglar (5-xona), yuz minglar (6-xona) birliklari birgalikda ikkinchi sinf – minglar sinfini tashkil etadi.

Pastdan yuqoriga qarab sanaganda ming, o'n ming va yuz ming birliklari cho'tning nechanchi simida bo'ladi?

57. Jadvalni ko'rib chiqing:

II sinf – minglar sinfi			I sinf – birlar sinfi		
Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar

Qaysi xonalar birliklari I sinfni, qaysi xonalar birliklari II sinfni tashkil etadi? Har bir sinf necha xonadan iborat?

58. 358 ming, 702 ming, 40 ming, 56 ming sonlarida har bir xonaning nechta birligi bor?

*Javob namunasi:* 358 ming sonida 3 ta yuz minglik, 5 ta o'n minglik va 8 ta bir minglik yoki oltinchi xonaning 3 birligi, beshinchi xonaning 5 birligi va to'rtinchi xonaning 8 birligi bor.



59. Do'konda 200 ta katakli va ulardan 3 marta ko'p bir chizikli daftar bor. Do'konda hammasi bo'lib nechta daftar bor?

60. Tanlovga 48 ta oq-qora tasvirli va undan 4 marta kam rangli fotosuratlar yuborildi. Tanlovga hammasi bo'lib nechta fotosurat yuborilgan?

61. 
$$\begin{array}{r|l|l|l|l|l|l} + & 315 & - & 894 & - & 470 & + & 141 & - & 623 & - & 750 \\ & \underline{621} & & \underline{572} & & \underline{308} & & \underline{559} & & \underline{244} & & \underline{536} \end{array}$$



62. 
$$\begin{array}{l|l|l|l|l} 27 + 39 & 7 \cdot 7 & 73 - 6 \cdot 5 & 9 \cdot 6 - 6 \cdot 3 \\ 81 - 38 & 8 \cdot 7 & 39 - 9 \cdot 3 & 6 \cdot 6 + 4 \cdot 4 \end{array}$$



63. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Tarvuzlar – 420 kg

● Qovunlar – ?, 135 kg kam ] ?



64. 1) 8 ga hamda 9 ga ko'paytirish va bo'lish jadvalini takrorlang;

2)  $10 \cdot 8$  |  $70 \cdot 9$  |  $810 : 9$  |  $360 : 9$  |  $640 : 8$   
 $20 \cdot 9$  |  $80 \cdot 8$  |  $720 : 8$  |  $400 : 8$  |  $240 : 8$

65. Jadvalni qarab chiqing:

II sinf – minglar sinfi			I sinf – birlar sinfi		
Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
	4	5	0	0	0
1	9	8	0	0	0
5	0	0	0	0	0
	7	0	0	0	0



Birinchi sonda ikkinchi sinfning 45 birligi bor. Bu son 45 ming deb o'qiladi. Birlar sinfiga yozilgan nollar bu sinfda birinchi sinf birliklari yo'qligini bildiradi.

Jadvalda yozilgan keyingi sonlarning har birida ikkinchi sinfning nechta birligi bor? Shu sonlarni o'qing.

66. Har bir juftdagi sonlarni o'qing. Har bir juftdagi sonlarning yozilishidagi bir xil raqamlar nimani bildiradi?

6 | 18 | 30 | 209 | 777  
 6 600 | 18 000 | 30 000 | 209 000 | 777 000



67. Omborga 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do'konlarga 45 yashik ho'l meva jo'natildi. Omborda necha yashik ho'l meva qolgan?

68. Maktabning mevali bog'ini barpo etishda 30 nafar o'quvchi ishladi. 5 nafar o'quvchi ko'chat o'tqazish uchun chuqurcha qazidi, 8 o'quvchi suv keltirdi. Qolgan o'quvchilar qazilgan chuqurchalarga ko'chat o'tqazdilar. Necha nafar o'quvchi ko'chat o'tqazgan?

69.  $300 \text{ ming} + 26 \text{ ming}$  |  $905 \text{ ming} - 5 \text{ ming}$   
 $21 \text{ ming} \cdot 3$  |  $36 \text{ ming} : 4$




70. 
$$\begin{array}{r} 356 \\ - 189 \\ \hline \end{array}$$
 | 
$$\begin{array}{r} 637 \\ + 274 \\ \hline \end{array}$$
 | 
$$\begin{array}{r} 807 \\ - 358 \\ \hline \end{array}$$
 | 
$$\begin{array}{r} 421 \\ + 189 \\ \hline \end{array}$$
 | 
$$\begin{array}{r} 770 \\ - 354 \\ \hline \end{array}$$



71. Yosh tabiatshunoslar 18 kg massali qovoq va 6 kg massali qovun yetishtirdilar. Qovoq qovundan qancha og'ir? Qovunning massasi qovoqning massasidan necha marta kam?



72. Birinchi cho'tga 345 ming soni solingan. Ikkinchi va uchinchi cho'tlarga qanday sonlar solingan?



73. 7 ta yuz ming, 3 ta o'n ming va 4 ta ming; 5 ta o'n ming va 1 ta ming; 4 ta yuz ming va 8 ta ming; 9 ta yuz ming; 3 ta yuz ming va 5 ta birdan iborat sonni yozing.


74. 369 000, 802 000, 740 000 sonlarida har bir xonaning nechta birligi bor? Shu sonlarni cho'tga soling.

Ixtiyoriy sonni uni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtirish mumkin.

Masalan:  $804 = 800 + 4$

$804\ 000 = 800\ 000 + 4\ 000$

**75.** Har bir sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtiring:



$$402 = \square + \square$$

$$570 = \square + \square$$

$$402\ 000 = \square + \square$$

$$570\ 000 = \square + \square$$

**76.**  $300\ 000 + 60\ 000 + 6\ 000$  |  $800\ 000 + 5\ 000$

$$588\ 000 - 500\ 000$$

$$209\ 000 - 200\ 000$$

$$99\ 000 - 9\ 000$$

$$206\ 000 - 9\ 000$$



**77.** Bir tovuqning 15 ta, ikkinchisining unga qaraganda 6 ta ko'p, uchinchi tovuqning esa ikkinchisiga qaraganda 3 marta kam jo'jasi bor. Uchinchi tovuqning nechta jo'jasi bor?

**78.** Tomonlari 6 sm va 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.



**79.** Sayyohlar velosipedda 32 km, piyoda esa undan 4 marta kam yo'l yurishdi. Sayyohlar bosib o'tgan butun yo'lning uzunligi nimaga teng?



**80.**  $480 + 70$  |  $340 - 30$  |  $754 + 246$  |  $90 \cdot 3$  |  $360 : 3$   
 $690 + 80$  |  $720 - 50$  |  $540 - 297$  |  $30 \cdot 8$  |  $720 : 6$

**81.** 4 ta yuzlik va 8 ta birlik, 4 ta yuz minglik va 8 ta minglik, 3 ta yuzlik va 9 ta birlik, 3 ta yuz minglik va 9 ta o'n minglikdan iborat sonlarni yozing va o'qing.

**82.** Har bir sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtiring:

358 000, 602 000, 41 000, 720 000.

**83.** Jadvalda yozilgan sonlarni o'qing:

II sinf – minglar sinfi			I sinf – birlar sinfi		
Yuz minglar	O'n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
2	4	3	6	1	5
7	9	4	5	8	3
4	8	7	3	6	2

Sonlarni o'qish qoidasiga amal qiling!

- 1) Sonni sinflarga bo'ling. Har bir sinfda uchtadan xona bo'lishi kerak.
- 2) Ikkinchi sinf birliklarining ketiga sinf nomini qo'shib o'qing (243 ming).
- 3) Birinchi sinf birliklarini o'qing (615).

Masalan, birinchi qatordagi son quyidagicha o'qiladi: ikki yuz qirq uch ming olti yuz o'n besh.

Jadvaldagi boshqa sonlarni o'zingiz o'qing.

**84.** 1) Har bir sonni sinflarga ajrating va unda har bir sinfning necha birligi borligini ayting, so'ngra sonlarni o'qing:

375 000	58 630	236 070	1 100
375 402	58 603	236 700	99 999
375 042	58 600	236 007	400 099

**Yodingizda tuting!** Agar biror xonada nol turgan bo'lsa, shu xona nomi tushirib qoldiriladi.

- 2) Birinchi (ikkinchi, uchinchi) ustundagi sonlarning nimasi bir-biriga o'xshaydi va nimasi bilan farq qiladi?

**85.** Namunadan foydalanib, sonni yig'indi bilan almashtiring:

$$306\ 200 = 306\ 000 + 200$$


$$40\ 650 = \square + \square$$

$$7\ 081 = 7\ 000 + \square$$

$$902\ 006 = \square + \square$$

86. Said har biri 6 soʻmdan 3 ta daftar va 50 soʻm turadigan kitob sotib oldi. Said hammasi boʻlib necha soʻm toʻladi?

87. Gul doʻkoniga gullar keltirildi. Hamma gulning uchdan bir qismi – chinni qullar. Ular 30 ta edi. Doʻkonga hammasi boʻlib qancha gul keltirildi?




88.  $809 - (243 + 127)$        $566 - (681 - 524)$



89. 120 oʻquvchi xoʻjalikka paxta yigʻim-terimida, ulardan 3 marta kam oʻquvchi poliz mahsulotlarini yigʻib olishda yordamlashdi. Xoʻjalikka hammasi boʻlib necha nafar oʻquvchi yordam bergan?

90. Rasmda koʻrsatilgan shakllarning nomini ayting:



91. Koʻp xonali son yuqori sinfdan boshlab yoziladi. Masalan, uch yuz olti ming olti yuz oʻn uchni yozish uchun quyidagicha mulohaza yuriting:

1) Bu sonda ikkinchi sinf birligi nechta ekanini yozaman (306).

2) Birinchi sinfning birliklarini yozaman (613). Sinflar orasida bir katak joy qoldiriladi.

Yozilishi: 306 613.


92. Sonlarni oʻqing va yozing:

1) ikkinchi sinfning 40 birligi va birinchi sinfning 650 birligi;




- 2) ikkinchi sinfning uch birligi va birinchi sinfning 400 birligi;  
 3) ikkinchi sinfning 4 birligi va birinchi sinfning 100 birligi.

**93.** Rasmga qarab masalalar tuzing va ularni yeching:



**94.**  $8 \cdot 8 : 4$  |  $35 : 7 + 92$  |  $49 \cdot 2$  |  $99 : 11$   
 $15 \cdot 4 : 2$  |  $81 : 9 + 510$  |  $37 \cdot 2$  |  $96 : 6$



**95.** Tasmaning to'rtidan bir qismi 20 sm ga teng bo'lsa, tasmaning uzunligi necha santimetr bo'ladi?



**96.**  $97 : 19 + 84 : 3$  |  $(19 + 69) : 22$  |  $4 \cdot (45 - 29)$   
 $18 \cdot 3 : 9 + 44$  |  $(76 - 68) \cdot 11$  |  $2 \cdot (56 - 38)$

**97.** 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari yordamida ixtiyoriy sonni yozish mumkin.

Son yozuvidagi raqamning qiymati uning shu yozuvda o'zi egallagan o'rniga bog'liq bo'ladi.

309 451, 697 038, 173 006 sonlarini o'qing. Birinchi sonning yozuvida 3 raqami 3 yuz mingni, ikkinchi sonning yozuvida 3 o'nlikni, uchinchi sonning yozuvida 3 mingni bildiradi.

**98.** 183 654, 700 412, 90 030 sonlarining yozuvida har bir raqam nimani bildiradi?


**99.** Sonlarni yozing va ularning yozuvida nol nimani bildirishini tushuntirib bering:

- 1) besh yuz yigirma yetti ming;
- 2) besh yuz yigirma yetti ming sakkiz;
- 3) besh yuz yigirma yetti ming sakson to'rt.


**100.** Maktab bog'idan o'quvchilar 64 kg olma, olmadan 2 marta kam nok, nokdan 16 kg kam anjir terib oldilar. O'quvchilar anjirdan necha kilogramm ko'p olma terib olganlar?

**101.** Ikki duradgor 5 kun bir xil ishlab 80 ta stolni ta'mirlashdi. Bir duradgor bir kunda nechta stolni ta'mirlagan?

**102.**  $45 : 5 \cdot 4$  |  $34 : 17 \cdot 28$  |  $230 + (487 - 248)$



**103.** Qurilishga 150 t sement, sementdan 4 marta ko'p qum keltirildi. Sementdan necha tonna ko'p qum keltirilgan?



**104.**  $40 \cdot 9$  |  $540 : 9$  |  $80 \cdot 3 : 4$  |  $800 - 613 + 276$

**105.** Sonlarni taqqoslashda bunday mulohaza yuritiladi:

1) Ikki sondan sanoqda qaysi biri oldin aytilsa, o'shanisi kichik, qaysi biri keyin aytilsa, o'shanisi katta bo'ladi.

Masalan:  $9 < 10$  va  $10 > 9$ ;  $88 < 90$  va  $90 > 88$ .

2) Ko'p xonali sonlarni yuqori xonadan boshlab xonalar bo'yicha taqqoslash ham mumkin.

Masalan:  $843 > 798$ , chunki 8 yuzlik  $>$  7 yuzlik;

$7\ 462 < 7\ 832$ , chunki mingliklar soni bir xil bo'lgani bilan yuzliklar birinchi sonda ikkinchi sondagidan kam.

**106.** Sonlarni taqqoslang:

37 824 va 37 871

400 050 va 400 005

99 999 va 100 000

10 000 va 9 999

**107.** Har bir sonning yozuvida 3 raqami nimani bildiradi?



3, 30, 300, 3 000, 30 000, 300 000 ?

Har bir sonning yozuvida 3 raqamining ma'nosi qanday o'zgarishini tushuntiring.

**108.** Berilgan masalaga teskari bo'lgan ikkita masala tuzing va ularni yeching.



? Hayvonot bog'ida 15 ta maymun bor edi. Yana bir necha maymun keltirilgandan keyin ularning soni 24 ta bo'ldi. Hayvonot bog'iga qancha maymun keltirildi?

**109.** Qiz bolalar va o'g'il bolalar ikkita kolonnaga saflashdi. Qiz bolalar 6 tadan bo'lib 7 qatorga, o'g'il bolalar esa 4 tadan bo'lib 9 qatorga saflandilar. Qiz bolalar o'g'il bolalardan qancha ko'p?

Masala savolini shunday o'zgartiringki, u bunday yechiladigan bo'lsin:  $6 \cdot 7 + 4 \cdot 9$ .



**110.** Rasm to'garagi uchun har birida 6 tadan qalam bo'lgan 8 quti va har birida 12 tadan qalam bo'lgan 3 quti rangli qalam sotib olindi. Hammasi bo'lib qancha qalam sotib olingan?



**111.**  $70 \cdot 7$  |  $480 : 8$  |  $30 \cdot 4 : 2$  |  $607 + 236 - 799$   
 $40 \cdot 9$  |  $540 : 9$  |  $80 \cdot 3 : 4$  |  $800 - 613 + 276$

**112.** 1) 1, 10, 100, 1 000 sonlarining yozuvida 1 raqami nimani bildiradi?

2) 1 o'nlik 1 birlikdan necha marta ko'p?

1 yuzlik 1 birlikdan necha marta ko'p?

**113.** Har bir ustundagi sonlarni taqqoslang:

1	5	30	46
10	50	300	460
100	500	3 000	4 600
1 000	5 000	30 000	46 000

Birinchi ustundagi sonlarning yozuvida 1 raqami nimani bildiradi? Ikkinchi ustundagi 5 raqami nimani bildiradi? Sonlarning yozuvida uning o'ng tomoniga bitta nol yozganda bu son necha marta ortadi? Ikkita nol yozganda-chi? Uchta nol yozganda-chi?

2) 1 000; 5 000; 30 000; 46 000 sonlarining o'ng tomonidan bitta nol tushirib qoldirilsa, bu sonlar qanday o'zgaradi? Ikkita nol tushirib qoldirilsa-chi? Uchta nol tushirib qoldirilsa-chi?

**114.** 1) 63; 80; 900 sonlarini 10 marta, 100 marta, 1 000 marta orttiring.

2) 4 000; 70 000; 285 000 sonlarini 10 marta, 100 marta, 1 000 marta kamaytiring.

**Yodingizda tuting!** 1) Sonning o'ng tomoniga bitta nol yozilsa, son 10 marta, ikkita nol yozilsa, 100 marta, uchta nol yozilsa, 1 000 marta ortadi.

2) O'ng tomondan bitta nol tushirib qoldirilsa, son 10 marta, ikkita nol tushirib qoldirilsa, 100 marta va uchta nol tushirib qoldirilsa, 1 000 marta kamayadi.


**115.**  $38\ 000 : 1\ 000$  |  $45\ 000 \cdot 10$  |  $709\ 000 : 10$   
 $6\ 000 : 100$  |  $2\ 100 \cdot 100$  |  $709\ 000 : 100$

**116.** Jadvallar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:



1)	1 ta xaltachaning massasi	Xaltachalar soni	Hamma xaltachalarning massasi
	Bir xil	6 ta 10 ta	18 kg ?

2)	Bir varaqning bahosi	Varaqalar soni	Hamma varaqlarning bahosi
	Bir xil	10 ta ?	800 so'm 400 so'm



117


To'g'ri to'rtburchakning eni 9 sm, bo'yi esa undan 3 marta uzun. To'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.



118

$89 - (52 - 27)$	$51 - 3 \cdot 8$	$62 + 81 : 9$	$43 - 0$
$71 - (19 + 33)$	$7 \cdot 7 - 34$	$42 - 56 : 8$	$0 \cdot 68$
$(14 + 8) \cdot 4$	$7 \cdot 14 - 65$	$70 - 64 : 2$	$0 : 78$

119. Bo'sh joylarni to'ldirib ko'chiring:



? 7 yuzl. =  o'nl. =  birl.

3 mingl. =  yuzl. =  o'nl. =  birl.

25 mingl. =  yuzl. =  o'nl. =  birl.

120. 3 745 sonini yozing:

a) Bu sonda hammasi bo'lib nechta birlik borligini topamiz.

Birlar xonasida 5 ta birlik bor.

Onlar xonasida 4 ta o'nlik bor.

1 onl. = 10 birl.; 4 o'nl. = 40 birl.

Yuzlar xonasida 7 ta yuzlik bor.

1 yuzl. = 10 o'nl. = 100 birl.; 7 yuzl = 700 birl.

Minglar xonasida 3 ta minglik bor.

1 mingl. = 10 yuzl. = 100 o'nl. = 1 000 birl.

3 mingl. = 3 000 birl.

Demak, 3 000 birl. + 700 birl. + 40 birl. + 5 birl. = 3 745 birl.

b) Bu sonda hammasi bo'lib nechta o'nlik borligini topamiz.  
Birlar xonasida o'nlik yo'q. O'nlar xonasida 4 ta o'nlik bor.  
Yuzlar xonasida 7 ta yuzlik bor.

$$1 \text{ yuzl.} = 10 \text{ o'nl.}; \quad 7 \text{ yuzl.} = 70 \text{ o'nl.}$$

Minglar xonasida 3 ta minglik bor.

$$1 \text{ mingl.} = 10 \text{ yuzl.} = 100 \text{ o'nl.}$$

$$3 \text{ mingl.} = 300 \text{ o'nl.}$$

$$\text{Demak, } 300 \text{ o'nl.} + 70 \text{ o'nl.} + 4 \text{ o'nl.} = 374 \text{ o'nl.}$$

d) 3 745 sonida hammasi bo'lib nechta yuzlik bor?

e) 5 619, 78 042, 910 537 sonlarini ko'rib chiqing. Tagiga chizilgan sonlardan qaysi biri sonda hammasi bo'lib nechta o'nlik; yuzlik; minglik borligini ko'rsatadi?

**121.**  $b$  va  $c$  ning quyidagi qiymatlarida  $b \cdot c$  va  $b : c$  ifodalarning qiymatini hisoblang:




$b$	8 000	1 000	15 000	600
$c$	10	100	10	100

**122.** Bir qop shakarning massasi 50 kg. Do'konda tushlikkacha 3 qop va tushlikdan keyin shunday 5 qop shakar sotildi. Shu kuni hammasi bo'lib necha kilogramm shakar sotilgan?



**123.** Do'konda 280 kg un bor edi. Kechqurun 60 kg un qoldi. Necha kilogramm un sotilgan?  
Bu masalaga teskari masala tuzib (og'zaki) yeching.



**124.** Faqat javoblarini yozing:

$(740 + 160) : 100$	$9 \cdot 6 \cdot 10\,000$	$66 : 33 \cdot 8$
$(420 + 580) : 1\,000$	$72 : 8 \cdot 1\,000$	$74 : 1$
$(985 - 900) \cdot 100$	$72 : 24 \cdot 9$	$19 \cdot 1$
$600 : (20 \cdot 5)$	$81 - 27 \cdot 3$	$19 \cdot 0$

125. 1) 9 yuz mingni cho'tga soling. Unga yana 1 yuz mingni qo'shing. 10 yuz ming keyingi (yettinchi) xona birligini – millionni tashkil qiladi.

2) Cho'tga 999 mingni soling. Unga 1 mingni qo'shing. 1 000 ming keyingi (uchinchi) sinf birligini – millionni tashkil qiladi.




1 000 000

1 million soni shunday yoziladi.

1 000 000 sonida nechta nol bor? Bu yozuvdagi nollar nimani bildiradi?

126.  $380 : 10 \cdot 2$  |  $6\,300 \cdot 100 : 1\,000$   
 $72 : 24 + 14 \cdot 5$  |  $8 \cdot 12 - 75 : 15$

127. Taqqoslang va «>», «<» yoki «=» belgilaridan mosini qo'ying:




$34\,000 \square 340 \cdot 100$  |  $76\,000 \square 76 \cdot 10$   
 $9\,000 : 100 \square 90$  |  $50\,000 \square 500\,000 : 100$

128. 3 ta bir xil tugmacha uchun 120 so'm to'landi. 100 ta shunday tugmacha uchun necha so'm to'lash kerak?

129. Kutubxonaga birinchi kuni 4 bog'lamda 56 ta, ikkinchi kuni 42 ta kitob olib kelindi. Ikkinchi kuni necha bog'lam kitob olib kelingan?



130] Chizmaga qarab masala tuzing va uni yeching:



131].  $800 \cdot 10 : 1\,000$  |  $(780 - 90) \cdot 10$   
 $(340 + 60) : 100$  |  $(704 - 700) \cdot 1\,000$



## Mustahkamlash uchun mashqlar

- 70 mingl. 80 birl. | 200 mingl. 1 birl. | 4 mingl. 5 birl.  
70 mingl. 8 birl. | 201 mingl. 10 birl. | 4 mingl. 50 birl.  
dan iborat sonlarni yozing.
- 825 014 sonining har bir xonasida nechta birlik bor?  
502 009 sonida-chi? Bu sonlarning har bir sinfida nechta birlik bor?
- Yuz sonini hosil qilish uchun 1 raqamidan keyin nechta nol yozish kerak? O'n ming sonini hosil qilish uchun-chi? Yuz mingni hosil qilish uchun-chi?
- Tengsizliklar to'g'rimi, tekshirib ko'ring:  
 $9\ 413 > 9\ 430$        $800\ 002 < 802\ 000$
- 1) 3, 0, 8 raqamlaridan foydalanib, quyidagi sonlarni yozing:  
a) uchta bir xonali son; b) to'rtta ikki xonali son;  
d) to'rtta to'rt xonali son.  
2) Bu sonlarning har biridagi 3 raqami nimani bildirishini tushuntiring. Sonlarni yozishda raqamning qiymati nimaga bog'liq?
- 500 050 soni yozuvida nechta raqam bor? Turli raqamlar soni qancha?
- Amallarni bajaring:  
 $420 + 250$  |  $700 - 70$  |  $60 \cdot 2$  |  $300 : 6$   
 $150 + 650$  |  $920 - 40$  |  $70 \cdot 5$  |  $630 : 9$
- Do'konga har birida 45 kg dan 9 qop un olib kelindi. Bir kunda 2 kg dan 20 ta xaltacha va 3 kg dan 15 xaltacha un sotildi. Quyidagi ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:  
 $45 \cdot 9$  |  $2 \cdot 20$  |  $3 \cdot 15$  |  $2 \cdot 20 + 3 \cdot 15$



9. Mehnat darsi uchun rangli qog'oz varaqlari tayyorlandi. Agar 40 o'quvchining har biriga 3 varaqdan berilsa, yana 25 varaq qog'oz qoladi. Necha varaq qog'oz tayyorlangan?

10.  $(230 + 70) \cdot 5$  |  $460 - 60 \cdot 2$  |  $900 - 250 : 5$   
 $180 + 40 \cdot 6$  |  $(620 - 20) : 3$  |  $810 - 240 : 6$

11.  $64 : 2$  |  $72 : 3$  |  $84 : 3$  |  $96 : 6$  |  $40 : 2$   
 $64 : 16$  |  $72 : 12$  |  $84 : 21$  |  $96 : 12$  |  $70 : 5$

12. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping:

1) 255 va 385 sonlarining yig'indisini 1 marta kamaytiring;

2) 3 600 va 400 sonlarining bo'linmasini 9 ta kamaytiring.

13.  $\begin{array}{r} \times 268 \\ \underline{\quad} \\ 3 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} \times 409 \\ \underline{\quad} \\ 2 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} \times 126 \\ \underline{\quad} \\ 5 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} \times 48 \\ \underline{\quad} \\ 6 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} \times 54 \\ \underline{\quad} \\ 9 \end{array}$

14.  $\begin{array}{r} + 826 \\ \underline{\quad} \\ 59 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} - 603 \\ \underline{\quad} \\ 84 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} - 501 \\ \underline{\quad} \\ 263 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} + 270 \\ \underline{\quad} \\ 328 \end{array}$  |  $\begin{array}{r} - 514 \\ \underline{\quad} \\ 385 \end{array}$

### ? *Takrorlash uchun savol va topshiriqlar*

1. Sanoq qaysi sondan boshlanadi? Sanoqda berilgan sondan keyin keluvchi son qanday hosil qilinadi?

2. Birlar sinfi qanday xonalardan tashkil topgan? Minglar sinfi-chi?

3. Istalgan sonni yozishda ishlatiladigan raqamlarni aytib bering.

Ayni bir raqamdan foydalanib, ikki xonali; to'rt xonali; olti xonali son yozing.

4. Sonlar qanday taqqoslanishini darslikning 192-betidan o'qing.

5. Berilgan sondan 10 marta; 100 marta; 1 000 marta katta (kichik) son qanday hosil qilinadi?



## To'rt arifmetik amal va ularni bajarish tartibi

**132.** 1) Sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish – bular arifmetik amallardir. Ularni ifodalash uchun maxsus belgilardan foydalaniladi (+, -, ·, :).

Agar ikkita son bu belgilardan biri bilan birlashtirilsa, u holda sonli ifoda hosil bo'ladi. Sonli ifodaning qiymatini bilish uchun unda keltirilgan amalni bajarish kerak bo'ladi.

2) Darslikning 192-betidagi amal belgisi, ifoda va sonlarni o'qing.

3) Quyidagi ifodalarning qiymatlari qanday hisoblanganligini tushuntiring:

$$24\ 000 + 6\ 000 = 30\ 000$$

$$140\ 000 \cdot 2 = 280\ 000$$

$$85\ 000 - 50\ 000 = 35\ 000$$


$$42\ 000 : 6 = 7\ 000$$

4) 42 000 va 2 sonlarining yig'indisi, ayirmasi, ko'paytmasi va bo'linmasini hisoblang.


**133.** 18 m gazlamadan 9 ta bir xil o'g'il bolalar kastumi tikildi. 34 m gazlamadan nechta shunday kastum tikish mumkin?

**134.** 133- masalani o'qing va quyidagicha savolli masala tuzing: «Shunday 17 ta kastum tikish uchun necha metr gazlama kerak bo'ladi?»


**135.** 1) Uzunlik birliklari jadvalini takrorlang:


$$\begin{aligned}1 \text{ sm} &= 10 \text{ mm} \\1 \text{ dm} &= 10 \text{ sm} = 100 \text{ mm} \\1 \text{ m} &= 10 \text{ dm} = 100 \text{ sm} \\1 \text{ km} &= 1000 \text{ m}\end{aligned}$$

2) 4 m, 600 mm, 2 m 15 sm ni santimetrlarda;  
3 m, 500 sm, 1 m 3 dm ni detsimetrlarda ifodalang.


**136.**

$534 + 389$	$707 - 619$	$356 \cdot 2$	$804 : 3$
$945 - 624$	$216 + 423$	$940 : 4$	$195 \cdot 5$

**137.**

$4 \text{ m } 56 \text{ sm} = \square \text{ sm}$	$6 \text{ m } 09 \text{ sm} = \square \text{ sm}$
$9 \text{ sm } 8 \text{ mm} = \square \text{ mm}$	$5 \text{ dm } 7 \text{ sm} = \square \text{ sm}$

**138.** 3, 7, 8 raqamlaridan 6 ta uch xonali son tuzing (sonlarni yozishda raqamlar takrorlanmasin). Tuzilgan eng katta va eng kichik sonlarning ayirmasini toping. Eng katta sonda 8 raqami nimani bildiradi? Eng kichik sonda-chi? 3 raqami 3 o'nlikni bildiradigan hamma sonlarning tagiga chizing.




**139. Yodingizda tuting!** Agar ifoda faqat qo'shish va ayirish amallaridan iborat bo'lsa, amallar berilgan tartibda (chapdan o'ngga) bajariladi.

1      2      3

Masalan,  $380 - 250 + 200 - 100 = 230$ .

Ifodalarning qiymatini toping:

$$96 - 45 + 43 - 69 \quad | \quad 78 + 12 - 56 + 40$$



**140. Yodingizda tuting!** Agar ifoda faqat ko'paytirish va bo'lish amallaridan iborat bo'lsa, amallar ketma-ket (chapdan o'ngga) bajariladi.

1      2      3

Masalan,  $240 : 60 \cdot 12 : 8 = 6$ .

Ifodalarning qiymatini toping:

$$72 : 8 \cdot 4 : 3 \quad | \quad 5 \cdot 14 : 10 \cdot 7 \quad | \quad 2 \cdot 14 \cdot 3 : 4$$

- 141.** Yodingizda tuting! Agar ifoda har xil arifmetik amallardan iborat bo'lsa, avval ketma-ket ko'paytirish yoki bo'lish amallari (chapdan o'ngga) bajariladi, keyin qo'shish va ayirish amallari (chapdan o'ngga) bajariladi.



Masalan,  $520 - 400 : 80 \cdot 20 = 420$ .


Amallarni kichik raqamlar tartibi bo'yicha bajarib, ifodalarning qiymatini toping:



$$200 - 130 + 70 \cdot 3 \quad | \quad 810 : 9 + 40 - 5 \cdot 20$$

$$640 : 80 - 80 : 40$$

- 142.** Tushirib qoldirilgan sonlarni o'rniga qo'yib yozing:



$$\begin{array}{l} 7 \text{ dm} = \square \text{ sm} \quad | \quad 3 \text{ m} = \square \text{ sm} \quad | \quad 60 \text{ dm} = \square \text{ m} \\ 2 \text{ m} = \square \text{ dm} \quad | \quad 50 \text{ dm} = \square \text{ sm} \quad | \quad 90 \text{ sm} = \square \text{ dm} \end{array}$$




- 143.** Birinchi kesmaning uzunligi 15 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi 5 sm. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr uzun? Ikkinchi kesma birinchi kesmadan necha marta qisqa?



- 144.**  $400 - 640 : 8 + 70 \cdot 4 \quad | \quad 700 - 150 \cdot 4$   
 $180 \cdot 3 + 230 \cdot 2 - 200 \quad | \quad 270 + 420 : 6$

- 145.** Amallarning bajarilish tartibi haqidagi qoidalarni (192-betga qarang) eslang va ifodalarning qiymatlarini hisoblang:

$$\begin{array}{l} 74 - 50 + 16 - 11 \quad | \quad 56 : 7 \cdot 2 : 4 \quad | \quad 40 - 5 \cdot 5 + 12 \\ 88 + 12 - 45 + 10 \quad | \quad 64 : 8 : 4 \cdot 9 \quad | \quad 90 - 27 : 9 \cdot 3 \end{array}$$



**146. Yodingizda tuting!** Agar ifodada bir yoki bir necha qavslar bo'lsa, dastlab qavslar ichidagi amallar, keyin qolgan amallar ilgari bilib olgan qoidangiz bo'yicha bajariladi.

$$\text{Masalan, } (340 + 60) - (420 - 90) = 400 - 330 = 70.$$


Qavsli ifodalarning qiymatini hisoblang:


$$(500 - 300) + (440 - 420) \cdot 4$$


$$(247 + 3) + (316 + 4) - 60$$

$$47 \cdot 2 + (90 - 69) \quad | \quad 700 - (40 + 50) \cdot 3$$

**147. Qoldikli bo'lish amali qanday bajarilishini eslang:**



  $15 : 6 = 2 \text{ (qold. } 3)$

 15, 18, 20, 25, 28, 29 sonlarining har birini 3 ga bo'ling. 3 ga bo'lganda qoldiq qoladigan sonlarni yozing.

**148. Bo'linma va qoldiqni toping va namuna bo'yicha tekshiring:**

Namuna:  $385 : 6 = 64 \text{ (1 qold.)}$

Yechish:

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} \underline{385} \quad | \quad \underline{6} \\ \underline{36} \quad | \quad \underline{64} \\ \underline{25} \\ \underline{24} \\ \underline{1} \end{array}$$

1)  $1 < 6$

2)  $64 \cdot 6 = 384$

3)  $64 \cdot 6 + 1 = 385$



$544 : 5$

$207 : 7$

$409 : 9$

**149.** Maktab tajriba maydonidan 100 kg kartoshka yig'ishtirib olindi. Kartoshkaning beshdan bir qismi urug'lik uchun qoldirildi, qolgan hosil maktab oshxonasiga topshirildi. Necha kilogramm kartoshka maktab oshxonasiga topshirildi?



**150.** Bo'linma va qoldiqni toping, keyin tekshirishni bajaring:

$$778 : 9 \quad | \quad 418 : 7 \quad | \quad 901 : 8$$

**151.**  $900 - (72 + 28) \cdot 4$  |  $(2000 - 1860) + (23 + 77) \cdot 5$   
 $810 : 9 + (48 - 32)$  |  $6 \cdot (450 - 430) - (760 - 750)$

**152.** Nuqtalar o'rniga amallar belgilari +, -, ·, : ni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$\begin{array}{l|l} 350 \dots 7 = 700 \dots 650 & 370 \dots 80 = 9 \dots 50 \\ 66 \dots 6 = 3 \dots 8 & 60 \dots 8 = 900 \dots 420 \end{array}$$

**153.** 1) Massa birliklari jadvalini takrorlang:

$$1 \text{ kg} = 1000 \text{ g} \quad 1 \text{ sr} = 100 \text{ kg} \quad 1 \text{ t} = 10 \text{ sr} = 1000 \text{ kg}$$

2) 6 kg; 2 kg 650 g ni grammlarda;

8 sr; 6 sr 15 kg; 1 t 003 kg ni kilogrammlarda ifodalang.

**154.** Quyidagi ifodani qarang va tushuntiring! Nima uchun amallar ko'k rangda ko'rsatilgan raqamlar tartibida bajarilgan?

$$490^3 - (250^2 + 80^1 : 4) \quad | \quad (810^2 + 18^1 \cdot 5^3) : 100$$

**155.** Ifodalarning qiymatini hisoblang:

$$\begin{array}{l|l} 100 - (75 - 55) + 80 & (420 - 300) : (90 : 30) + 15 \\ 600 + (20 + 20) \cdot 4 & (55 + 45) - (890 - 870) : 2 \end{array}$$

**156.** O'zbekistonda birinchi planetariy 1963-yilda Toshkent shahrida qurilgan. Bu yil planetariy ish boshlaganiga necha yil to'ladi? Planetariy nechanchi yili o'zining 100 yilligini nishonlaydi?

157. Qishda sigirga bir kunda 4 kg lavlagi beriladi. Besh kunda 3 ta sigirga necha kilogramm lavlagi berish kerak?



158.  $67 + 80 : 4 \cdot 2$

$180 : 2 + (98 - 34)$

$900 - (36 + 64) \cdot 5$

$87 + 56 : 8 \cdot 3$



159.  $BK$  kesmaning uzunligini o'lchang va yozing. Uzunligi  $BK$  kesmaning uzunligidan 4 sm ortiq bo'lgan kesma chizing.




160. Quyidagi yozuvlarning to'g'riligini isbotlang:

$3 \text{ km} > 980 \text{ m}$

$14 \text{ sm} < 200 \text{ mm}$

$6 \text{ m} = 60 \text{ dm}$

$60 \text{ dm} > 550 \text{ sm}$



$5 \text{ km } 040 \text{ m} = 5\ 040 \text{ m}$

$8 \text{ km } 700 \text{ m} < 9\ 000 \text{ m}$

161. Dalaga 60 kg sholi, sholiga qaraganda 3 marta kam bug'doy doni, sholi bilan bug'doy birgalikda qancha bo'lsa, undan 2 marta ko'p makkajo'xori doni ekildi. Dalaga necha kilogramm makkajo'xori doni ekildi?

162. Rasmlarga qarang.

1) Stol ustida narsalar turibdi: piramida, shar, parallelepiped, kub, silindr, konus.



Bular – geometrik jismlar.

2) Pastda doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, ixtiyoriy to'rtburchak, beshburchak, oltiburchak tasvirlangan.



Bular – yassi shakllar.

3) Geometrik jismlarda yassi shakllarni toping. Qaysi geometrik jismda doirani ko'rdingiz? Kvadratni? To'g'ri to'rtburchakni? Uchburchakni?

**163.** Mustaqil yeching.

1-variant		2-variant	
$48\ 000 \cdot 10 : 100$	$13 \cdot 4$	$3\ 700 : 100 \cdot 2$	$18 \cdot 3$
$(750 + 200) : 10$	$51 : 3$	$(870 + 10) : 10$	$72 : 4$
$37 \cdot 4 - 549 : 9$	$78 : 13$	$56 \cdot 9 - 728 : 8$	$74 : 37$

**164.** O'quvchilar bir jo'yakdan 110 kg, ikkinchi jo'yakdan esa undan 62 kg ko'p karam uzdilar. O'quvchilar hammasi bo'lib qancha karam uzganlar?

**165.** 4 t, 7 sr, 5 sr 16 kg ni kilogrammlarda; 5 000 kg, 300 000 kg, 715 000 kg ni tonnalarda; 2kg, 3 kg 500g, 11 kg 040 g ni grammlarda ifodalang.



Ixtiyoriy ikki xonali son o'ylang. Unga 35 ni qo'shing. Hosil bo'lgan yig'indidan o'ylagan soningizni ayiring. Natijada nima uchun 35 soni hosil bo'lganini tushuntiring.

$$? + 35 = \boxed{?} \quad - ? = 35$$





## Qo'shish va ayirish

### Qo'shish va ayirishning yozma usullari

**166.** Qo'shish va ayirishning sizga ma'lum bo'lgan xossalarini yodga oling (193- betga qarang).



**Yodingizda tuting!** Bir necha sonning yig'indisini hisoblashda ularning o'rinlarini turli usullar bilan almashtirish va guruhlash mumkin.

Masalan:  $74 + 43 + 57 + 6 = 74 + (43 + 57) + 6 =$   
 $= 74 + 100 + 6 = 100 + (74 + 6) = 180.$

Qo'shiluvchilarni quyidagicha quruhlash ham mumkin, unda yozuv qisqa ko'rinishda bo'ladi:

$74 + 43 + 57 + 6 = (74 + 6) + (43 + 57) = 80 + 100 = 180.$

**167.** Tengliklar nima uchun to'g'riligini tushuntiring:

1)  $72 + 45 + 8 = 72 + 8 + 45$

2)  $(7 + 9) + 51 = 7 + (9 + 51)$

**168.** Yig'indini har xil usullardan foydalanib toping va natijalarni taqqoslang:

$23 + 4 + 6 + 7 + 50$  |  $23 + 4 + (6 + 7) + 50$

$23 + (4 + 6) + 7 + 50$  |  $(23 + 7) + (4 + 6) + 50$

**169.** Bir kunda 5 ta tovuqqa 15 g bo'r beriladi. 27 ta tovuqqa necha gramm bo'r berish kerak bo'ladi?



**174.** Yechishni ustun shaklida yozib, amallarni bajaring:

$$\begin{array}{r|l} 394\ 056 + 108\ 712 & 740\ 315 - 526\ 478 \\ 656\ 112 + 274\ 578 & 504\ 102 - 271\ 354 \end{array}$$

**175.** Tumanda 3 ta, shaharda esa undan 4 marta ko'p kutubxona bor. Shaharda nechta kutubxona bor?

1) Masalani yeching.


2) Savolni shunday qo'yingki, masala ikki amal bilan yechilsin.

**176.** Kinoteatrda birinchi qatorda 8 ta, ikkinchi qatorda birinchi qatorga qaraganda 2 marta ortiq, uchinchi qatorda ikkinchi qatorga qaraganda 2 ta ortiq joy band bo'ldi. Uchinchi qatorda nechta joy band bo'ldi?

**177.**  $(528 + 642) - (743 - 587) \quad | \quad (500 - 720 : 8) - 844 : 4$



**178.**  $CD$  kesma  $AB$  kesmadan necha marta qisqa?  $AB$  kesma  $CD$  kesmadan necha santimetr uzun?




**179.** Eng sodda usul bilan og'zaki hisoblang:

$$\begin{array}{r|l} 3 + 91 + 9 + 97 + 9 & 58 + 220 + 80 + 42 \\ 334 + 41 + 19 + 6 + 50 & 41 + 44 + 49 + 46 + 22 \end{array}$$

Qo'shish va ayirishni tekshirishning turli usullarini yodga oling (194- betga qarang).

**180.** Qo'shishni bajaring va hisoblashlarning to'g'riligini ayirish bilan tekshiring:



$$\begin{array}{r|l|l} + 27\ 944 & + 45\ 016 & + 567\ 812 \\ \hline + 38\ 185 & + 9\ 314 & + 236\ 435 \end{array}$$

**181.** Ayirishni bajaring va hisoblashlarning to'g'ri-  
ligini qo'shish bilan tekshiring:



$$\begin{array}{r} 7\ 123 \\ - 2\ 839 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 415\ 001 \\ - 76\ 324 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 600\ 216 \\ - 33\ 777 \\ \hline \end{array}$$

**182.** Uy qurilishiga ertalab 28 480 ta, kechqurun un-  
dan 10 725 ta ortiq g'isht keltirildi. Savolni  
shunday qo'yingki, masala ikki amal bilan yechi-  
ladigan bo'lsin.

**183.** 1) Ushbu geometrik shakllar ichidan uchbur-  
chaklarni toping va ularning tartib raqamlarini  
ayting. To'rtburchaklarni toping va ularning  
tartib raqamlarini ayting:




2) Koptok qanday geometrik jism shakliga ega?  
Piramida-chi? Stakan-chi? Chamadon-chi?



**184.** Bitta sigirga bir kunda beriladigan tuzning miq-  
dori 40 g. Ikkita sigirga bir haftada qancha tuz  
beriladi?



$$185. \begin{array}{l} 560 : 8 - 26 \\ 280 : 7 + 39 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 198 \cdot 5 + 95 \cdot 5 \\ 354 \cdot 3 - 109 \cdot 4 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 901 - 89 \cdot 6 \\ 611 - 87 \cdot 3 \end{array} \right.$$



Shunday doirachalar chizing va ularni 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar bilan shunday to'ldiringki, «uchburchak»ning har bir tomonidagi sonlar yig'indisi 16 ga; 18 ga teng bo'lsin.

**186.**  $534 + 2\,749 + 301\,815$

Bunday misollarni turli usullar bilan yechish mumkin:

I usul		II usul
$+ 2\,749$	$+ 301\,815$	$+ 301\,815$
$\quad 534$	$\quad 3\,283$	$\quad 2\,749$
<hr/> $3\,283$	<hr/> $305\,098$	<hr/> $534$
		<hr/> $305\,098$

**187.** Hisoblang va hisoblashlarni qo'shish bilan tekshiring:


$$3\,805 + 24 + 8\,195 \quad | \quad 802\,904 + 23\,050 + 50\,749$$

**188.** Do'kondan bittasi 20 so'mdan 7 ta qoshiq va 15 so'mdan 10 ta sanchqi sotib olindi. Quyidagi ifodalarni hisoblab nimani bilish mumkin:

$$\begin{array}{l} 20 \cdot 7 \\ 15 \cdot 10 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 10 - 7 \\ 20 - 15 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 20 \cdot 7 + 15 \cdot 10 \\ 15 \cdot 10 - 20 \cdot 7 \end{array} \right.$$

**189.** 1) Vaqt birliklari jadvalini takrorlang:

$$1 \text{ soat} = 60 \text{ min} \quad 1 \text{ min} = 60 \text{ s} \quad 1 \text{ sutka} = 24 \text{ soat}$$



2) 2 soat; 3 soat 20 min; 480 s ni minutlarda;  
3 min; 2 min 15 s ni sekundlarda;  
4 sutka; 2 sutka 2 soatni soatlarda ifodalang.

**190.** Masalalarni soatdan foydalanib yeching:

1) Tanaffus soat 9 dan 15 minut o'tganda boshlandi va 9 dan 25 minut o'tganda tugadi. Tanaffus necha minut davom etdi?


2) Tanaffus soat 10 dan 10 minut o'tganda boshlandi va 20 minut davom etdi. Tanaffus qachon tugadi?

3) Dars 45 minut davom etdi. U soat 11 dan 25 minut o'tganda tugadi. Dars qachon boshlangan?



**191.**

$84\ 389 + 527\ 697$	$84 : 6$	$96 : 32 \cdot 27$
$581\ 427 + 269\ 658$	$91 : 7$	$32 \cdot 3 : 8$
$7\ 046 - 639$	$57 : 3$	$66 : 33 \cdot 46$



**192.** 120 kg bug'doy ekildi va 8 marta ko'p hosil yig'ishtirib olindi. Necha kilogramm bug'doy yig'ishtirib olindi?

**193.** Yechilishini tushuntiring:



$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{9}00 \\ - 47 \\ \hline 353 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{7}000 \\ - 527 \\ \hline 479 \end{array}$	$\begin{array}{r} \overset{\cdot}{6}0003 \\ - 284 \\ \hline 59719 \end{array}$
---	---	--


**194.**


$700 - 64$	$2\ 000 - 796$	$50\ 003 - 534$
$7\ 000 - 748$	$20\ 000 - 846$	$64\ 004 - 25\ 069$

**195.** Xaridor bir kilogrammi 90 so'mdan 3 kg kartoshka va 160 so'mga lavlagi sotib oldi. U sotuvchiga 1 000 so'm berdi. Xaridor qancha qaytim olishi kerak?

**196.** Omborda 4 t shakar bor edi. Bir do'konga 1 265 kg, ikkinchisiga undan 375 kg ortiq shakar jo'natildi. Omborda necha kilogramm shakar qoldi? (Tonnani kilogrammlar bilan ifodalang.)

197.  $24\ 894 - (12\ 504 + 9\ 847) \quad | \quad 480 : 8 \cdot 6$


 198. Bitta do'ppi tikish uchun 3 dm qora satin sarflandi. 12 m satindan nechta do'ppi tikish mumkin?

 199. Bo'linma va qoldiqni toping, natijani tekshiring:  
●  $85 : 7 \quad | \quad 567 : 4 \quad | \quad 813 : 7$

200. Misollarda amallarning bajarilish tartibini tushuntiring:

$$\begin{array}{l|l} 60 - 42 + 50 - 8 & 64 : 8 \cdot 5 : 4 \\ 60 - 36 : 6 + 30 & 70 + 30 - 8 \cdot 4 \end{array}$$


201. Ayirishni bajaring va hisoblashlarning to'g'riligini qo'shish bilan tekshiring:


 
$$\begin{array}{r|l|l} \begin{array}{r} 507 \\ - 384 \\ \hline \end{array} & \begin{array}{r} 16\ 031 \\ - 9\ 874 \\ \hline \end{array} & \begin{array}{r} 180\ 003 \\ - 96\ 744 \\ \hline \end{array} \end{array}$$

202. Qo'shishni bajaring va hisoblashlarni ayirish bilan tekshiring:

$$\begin{array}{l|l|l} \begin{array}{r} 3\ 456 \\ + 4\ 823 \\ \hline \end{array} & \begin{array}{r} 16\ 843 \\ + 9\ 998 \\ \hline \end{array} & \begin{array}{r} 280\ 315 \\ + 124\ 537 \\ \hline \end{array} \end{array}$$

203. Ishchilar 4 kunda 48 ta mashina yig'ishlari kerak edi. Bu ishni ular 3 kunda bajardilar. Ishchilar bir kungi rejadan nechta mashina ko'p yig'dilar?

 204. Pomidor tuzlash uchun 60 kg suv va undan 20 marta kam tuz kerak bo'ladi. Tuzni suvga qaraganda necha kilogramm kam olish kerak?

 205.  $35 \cdot 100 : 10 \quad | \quad 70\ 004 + (63\ 001 - 54\ 735)$   
●  $812 \cdot 1000 : 100 \quad | \quad 40\ 704 - (9\ 358 + 8\ 247)$

206. 1) 194- betdan qo'shishda sonlar o'zaro qanday bog'langanligini o'qing va jadvalni to'ldiring:



Qo'shiluvchi	24	45			2 997	3 071
Qo'shiluvchi			127	408		
Yig'indi	99	200	427	909	8 999	7 102

2) Tenglamaning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring:

$$x + 240 = 360$$

$$x = 360 - 240$$

$$x = 120$$

Tekshirish:

$$120 + 240 = 360$$

$$360 = 360$$

**207.** Tenglamalarni yeching:

$$78 + x = 100 \quad | \quad x + 16 = 50$$

**208.** Masalani tenglama tuzib yeching.

Agar noma'lum songa 420 soni qo'shilsa, 600 hosil bo'ladi. Shu noma'lum sonni toping.


Mana bunday mulohaza yuriting: noma'lum sonni  $x$  harfi bilan belgilaymiz.  $x$  songa 420 ni qo'shsak, 600 hosil bo'ladi:

$$x + 420 = 600$$

Yechishni tugallang.

**209.** Traktor bakida 60 l yonilg'i bor edi. Traktor bir soatda 6 l yonilg'i sarflaydi. Agar traktorda 24 l yonilg'i qolgan bo'lsa, u necha soat ishlagan?

**210.** 7 kg temir moddasini hosil qilish uchun 21 kg temir rudasini olish kerak. 54 kg temir rudasidan necha kilogramm temir moddasi olish mumkin?



$$\mathbf{211.} \quad 800 - 80 : 4 \cdot 5 \quad | \quad 42 : 6 \cdot (385 - 285) \quad | \quad 7\,500 + 0$$

$$600 - 200 \cdot 2 : 4 \quad | \quad 84 : 7 \cdot (932 - 922) \quad | \quad 9\,100 - 0$$



**212.** Bo'linma va qoldiqni toping, natijani tekshiring.

$$317 : 9 \quad | \quad 806 : 8 \quad | \quad 911 : 7$$



**213.** 1) 194- betdan ayirishda sonlar o'zaro qanday bog'langanligini o'qing va jadvalni to'ldiring:



Kamayuvchi						
Ayiriluvchi	123	234	143	507	401	306
Ayirma	411	564	237	402	472	404

2) Tenglamaning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring:

$$x - 240 = 510$$

$$x = 510 + 240$$

$$x = 750$$

Tekshirish:

$$750 - 240 = 510$$

$$510 = 510$$

**214.** Tenglamalarni yeching:

$$x - 814 = 116$$

$$x - 292 = 514$$

**215.** Hisoblashlarni bajaring, ayirishni qo'shish bilan, qo'shishni esa ayirish bilan tekshiring:

$$706 + 839$$

$$2\ 013 + 442$$

$$620\ 001 - 472$$

$$800\ 211 - 56\ 724$$

**216.** Agar  $a = 58\ 072$ ;  $a = 64\ 404$ ;  $a = 50\ 207$  bo'lsa,  $100\ 000 - a$  ifodaning qiymatini toping.

**217.** 2 ta osh qoshiq 120 so'm, 3 ta choy qoshiq 90 so'm turadi. Osh qoshiq choy qoshiqdan necha marta qimmat turadi?



**218.**  $80 + 630 : 9 \cdot (10 + 990) \quad | \quad 2\ 700 : (4 + 5) + (240 - 90)$



**219.** Haydovchi tirkamali yuk mashinasida 12 t g'alla keltirdi. Tirkamada 8 t g'alla bor edi. Yuk mashinasining o'zida qancha g'alla bo'lgan?

Berilgan masalaga teskari ikkita masala tuzing (og'zaki).

220. 1) 194- betdan ayirishda sonlar o'zaro qanday bog'langanligini o'qing va jadvalni to'ldiring:



Kamayuvchi	100	350	462	7 820	67 531
Ayiriluvchi					
Ayirma	30	220	108	935	10 432

2) Tenglamaning yechilishi va tekshirilishini tushuntiring:

$$500 - x = 350$$

$$x = 500 - 350$$

$$x = 150$$

Tekshirish:

$$500 - 150 = 350$$

$$350 = 350$$

221. Tenglamalarni yeching:

$$78 - x = 56 \quad | \quad 380 - x = 116$$

222. 1) Vaqt birliklari jadvalini takrorlang:

$$1 \text{ yil} = 12 \text{ oy} \quad 1 \text{ asr} = 100 \text{ yil}$$

2) 2 yilni; 5 yil 6 oyni oylarda;

300 yil; 900 yilni asrlarda ifodalang.


223. Masalalarni taqqoslang. Masalalarni amallar bo'yi-cha yeching.

1) Bir qopda 27 kg, ikkinchi qopda esa undan 24 kg ortiq kartoshka bor edi. Ikkinchi qopdagi kartoshka 3 kg dan qilib xaltachalarga solindi. Nechta xaltacha kerak bo'ldi?

2) Bir qopda 27 kg, ikkinchisida esa undan 24 kg ortiq kartoshka bor edi. Hamma kartoshka 3 kg dan qilib xaltachalarga solindi. Nechta xaltacha kerak bo'ldi?



224. Xat tashuvchi 35 ta xatni tarqatishi kerak edi. U bir necha xatni tarqatganidan keyin unda 20 ta xat qoldi. Xat tashuvchi nechta xat tarqatgan?

 **225.**  $70\ 002 - (253 + 16\ 309)$  |  $100 - 68 : 17 \cdot 20$   
 $875\ 131 + 34\ 915 - 680\ 173$  |  $(54 + 46) : 50 \cdot 12$

**226.** 1) Vaqt birliklari jadvalini takrorlang:


1 asr=100 yil	1 soat=60 min	Bir yil 365 yoki 366 sutka
1 yil=12 oy	1 min=60 s	Bir oy 30 yoki 31 sutka
1 sutka=24 soat		(fevral 28 yoki 29 sutka)


2) 4 000 sm; 14 km; 8 900 sm ni metrlarda;  
 63 sr; 32 t; 357 t ni kilogrammlarda;  
 3 soat; 2 soat 42 min ni minutlarda ifodalang.

**227.** Tomonlarining uzunliklari 13 mm va 37 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping. Javobni santimetrlarda ifodalang.

**228.** Tushirib qoldirilgan qavslarni o'rniga qo'ying:  
 $500 - 720 : 8 + 210 = 200$  |  $350 : 7 \cdot 2 + 36 = 7$

**229.** Quruvchilar ko'p qavatli uylardagi 1638 ta xonadonni qurib topshirdilar. Ulardan bir xonali xonadonlar 125 ta, ikki xonali xonadonlar bir xonali xonadonlardan 6 marta ko'p, qolganlari esa uch xonali xonadonlardir. Quruvchilar nechta uch xonali xonadonni qurib topshirganlar?

 **230.**  $14\ 826 + 7\ 007 + 32\ 509$  |  $7\ 200 - 315 \cdot 3 + 526$   
 $50\ 945 - 3\ 874 - 22\ 085$  |  $3\ 405 + 489 \cdot 4 - 4\ 078$

 **231.** Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing:  
 $8\ t\ 2\ sr = \square\ sr$  |  $726\ sm = \square\ m\ \square\ sm$   
 $2\ soat\ 30\ min = \square\ min$  |  $65\ min = \square\ soat\ \square\ min$

**232.** Ko'pchilik amaliy masalalarni yechishda qiymatlari turli o'lchov birliklari bilan ifodalanadigan kattaliklar bilan amallar bajarishga to'g'ri keladi. Agar hisoblashlarni bajarish oson bo'lsa, ular og'zaki bajariladi.

$$1 \text{ so'm } 34 \text{ tiyin} + 15 \text{ tiyin} = 1 \text{ so'm } 49 \text{ tiyin,}$$

$$5 \text{ kg} + 650 \text{ g} = 5 \text{ kg } 650 \text{ g.}$$

Yozma hisoblashlarda kattaliklarning qiymati bir xil o'lchov birliklarida ifodalanadi va ular bilan amallarni bajarish sonlar bilan bajarilgani kabi bajariladi.

Masalan:

$$136 \text{ m } 45 \text{ sm} + 28 \text{ m } 95 \text{ sm} = 165 \text{ m } 40 \text{ sm}$$

$$136 \text{ m } 45 \text{ sm} = 13 \text{ 645 sm} \quad + \quad 13 \text{ 645}$$

$$28 \text{ m } 95 \text{ sm} = 2 \text{ 895 sm} \quad + \quad \underline{2 \text{ 895}}$$

$$16 \text{ 540 sm} = 165 \text{ m } 40 \text{ sm} \quad 16 \text{ 540}$$

yoki

$$24 \text{ t } 805 \text{ kg} - 7 \text{ t } 926 \text{ kg} = \quad 24 \text{ 805}$$

$$= 16 \text{ t } 879 \text{ kg} \quad - \quad \underline{7 \text{ 926}}$$

$$16 \text{ 879 kg} = 16 \text{ t } 879 \text{ kg} \quad 16 \text{ 879}$$



**233.** Hisoblashlarni og'zaki bajarib, natijani yozing:

$$95 \text{ km } 090 \text{ m} - 70 \text{ km} \quad | \quad 6 \text{ m } 84 \text{ sm} - 3 \text{ sm}$$

$$24 \text{ km } 057 \text{ m} + 30 \text{ m} \quad | \quad 4 \text{ m } 16 \text{ sm} + 80 \text{ sm}$$

**234.** Yechishni ustun shaklida yozib bajaring:

$$326 \text{ m } 47 \text{ sm} + 19 \text{ m } 84 \text{ sm}$$

$$118 \text{ m } 06 \text{ sm} - 92 \text{ m } 32 \text{ sm}$$

**235.** Xo'jalik davlatga shartnoma bo'yicha 4 860 t paxta topshirishi kerak edi. Avval 4 500 tonna, keyin yana uning to'qqizdan bir qismicha paxta topshirildi. Xo'jalik davlatga shartnomadagidan necha tonna ortiq paxta topshirgan?


**236.** Ifoda tuzing va qiymatini hisoblang:


1) 12 003 va 956 sonlarining yig'indisini 1 824 ta kamaytiring;

2) 12 007 va 8 360 sonlarining ayirmasini 12 039 ta orttiring.

**237.** Tekshiring, amallar to'g'ri bajarilganmi? Agar noto'g'ri bo'lsa, qavslarni shunday qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:

$$\begin{array}{l|l} 40 \cdot 8 - 6 : 2 = 200 & 40 \cdot 8 - 6 : 2 = 317 \\ 40 \cdot 8 - 6 : 2 = 157 & 40 \cdot 8 - 6 : 2 = 40 \end{array}$$

 **238.**  $88 : 44 \cdot 32$  |  $30\ 091 - (8\ 008 - 952)$   
 $55 : 11 \cdot 12$  |  $82\ 002 - (24\ 382 + 9\ 634)$

 **239.** Bo'linma va qoldiqni toping, natijani tekshiring:  
●  $216 : 7$  |  $586 : 4$  |  $185 : 3$

**240.** Hisoblashlarni og'zaki bajaring va natijalarini yozing:

$$\begin{array}{l|l} 6\ \text{kg}\ 400\ \text{g} + 300\ \text{g} & 7\ \text{kg}\ 500\ \text{g} - 230\ \text{g} \\ 4\ \text{m}\ 30\ \text{sm} - 3\ \text{m} & 8\ \text{km}\ 020\ \text{m} - 6\ \text{km} \end{array}$$

**241.** Yechishni ustun shaklida yozib bajaring:


$$\begin{array}{l} 28\ \text{km}\ 450\ \text{m} - 13\ \text{km}\ 680\ \text{m} \\ 3\ \text{soat}\ 22\ \text{min} - 45\ \text{min} \\ 2\ \text{soat}\ 18\ \text{min} + 3\ \text{soat}\ 42\ \text{min} \\ 14\ \text{t}\ 360\ \text{g} + 980\ \text{g} \end{array}$$

**242.** Qizil doirachalar 6 ta bo'lib, ko'k doirachalardan



3 ta kam. Ko'k doirachalar qizil doirachalardan 3 ta ...


**243.** Masalalarning shartini va yechilishini taqqoslang:




1) Tokchada 7 ta va portfelda undan 4 ta kam kitob bor. Portfeldagi kitoblar nechta?

2) Tokchada 7 ta kitob bo'lib, portfeldigidan 4 ta ortiq. Portfeldagi kitoblar nechta?

**244.** Ikki tikuvchi 96 tadan ko'ylak tikish uchun buyurtma oldi. Ulardan biri bir kunda 12 ta, ikkinchisi esa 16 ta ko'ylak tikadi. Tikuvchilardan qaysi biri ishni oldin va necha kun oldin tugatadi?

 **245.** Tomonining uzunligi 5 sm bo'lgan kvadratning perimetrini toping.

 **246.**

$3\ 004 + (40\ 011 - 38\ 092)$	$630 + 700 : 100 \cdot 4$
$72\ 001 - (14\ 008 + 7\ 807)$	$400 - 30 \cdot 3 + 110$
$80\ 042 - (58\ 315 - 33\ 099)$	$640 : 8 + 25 \cdot 4$

**247.** Har bir juftdagi masalalarning shartini taqqoslang. Har bir masalada katta yoki kichik sonni topish kerakligini tushuntiring. Masalalarni yeching.



1) Bir guldastada 9 ta moychechak, ikkinchisida esa undan 4 ta kam moychechak bor. Ikkinchi guldastada nechta moychechak bor?

2) Bir guldastada 9 ta moychechak bor, bu ikkinchisidagidan 4 ta ortiq. Ikkinchi guldastada nechta moychechak bor?



1) Karimda 6 ta, Vazirada esa undan 3 ta ko'p shar bor. Vazirada nechta shar bor?

2) Karimda 6 ta shar bor. U Vaziradagidan 3 ta kam. Vazirada nechta shar bor?





**254.** 6 yashik oqqandning massasi 48 kg. Agar 1 yashik konfet 1 yashik oqqanddan 3 kg og'ir bo'lsa, 8 yashik konfetning massasi qancha?

**255.** Jadvaldan foydalanib, ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang:



$a$	$b$	$c$	$a : c + b$	$a : b \cdot c$
64	16	8	$64 : 8 + 16$	
90	18	3		

**256.** Tenglamalarni yeching:



$$2\,000 + x = 3\,564$$

$$7\,002 - x = 5\,349$$

$$x + 865 = 1\,000$$

$$x - 517 = 415$$

**257.** Ushbu shakllardagi umumiylikni ko'rsating. 3-shaklning qolgan shakllardan qanday farqi bor?



**258.**  $16 \cdot 4 + 92$

$$100 - 17 \cdot 5$$

$$55\,709 + 315 + 4\,482$$

$$61\,001 - 48\,564 - 10\,565$$



**259.** Masalalarni tenglama tuzib yeching:

1) Agar 184 sonini noma'lum songa kamaytirilsa, 125 hosil bo'ladi. Shu noma'lum sonni toping.

2) Agar noma'lum sonni 184 ga kamaytirilsa, 125 hosil bo'ladi. Shu noma'lum sonni toping.

**260.** 4 ta qo'ydan 16 kg jun qirqib olindi. Shunday 7 ta qo'ydan necha kilogramm jun qirqib olinadi?

**261.** 8 ta qo'g'irchoq uchun 400 so'm to'landi. 3 ta shunday qo'g'irchoq qancha turadi?



**262.** 1) 5 ta palto va 4 ta plashga baravardan 54 ta tugma qadaldi. Har bir kiyimga nechtadan tugma qadaldi?



2) 5 ta palto va 4 ta plashga 54 ta tugma baravardan qadaldi. Hamma paltolarga va hamma plashlarga nechtadan tugma qadaldi?

**263.** Xatolikni toping va to'g'ri yechimni yozing:  
 $84 : 21 = 3$  (qold. 21)    |     $71 : 8 = 7$  (qold. 15)

**264.**  $200\ 500 - 43 \cdot 5$     |     $23 \cdot 9 + 15\ 008$     |     $95 : 5$




**265.** Bola har birida 12 ta marka bo'lgan 3 ta to'plam sotib oldi. Hamma markani albomning bir betiga 9 tadan qilib yopishtirdi. Albomning nechta betiga marka yopishtirildi?



**266.** Ifodalang:  
 minutlarda: 2 soat, 8 soat, 60 s, 4 soat 40 min;  
 sekundlarda: 3 min, 9 min, 1 min 10 s.

**267.** Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yib chiqing:



$5\text{ m} = \square\text{ mm}$	$4\text{ m } 3\text{ dm} = \square\text{ dm}$	$37\ 000\text{ m} = \square\text{ km}$
$5\text{ m} = \square\text{ sm}$	$4\text{ m } 03\text{ sm} = \square\text{ sm}$	$7\ 070\text{ m} = \square\text{ km } \square\text{ m}$
$5\text{ m} = \square\text{ dm}$	$4\text{ m } 030\text{ mm} = \square\text{ mm}$	$2\ 000\text{ sm} = \square\text{ m}$

**268.** Ombordan har birida 3 t dan 15 mashina bug'doy olib ketildi. Shundan keyin omborda 60 t bug'doy qoldi.


Quyidagi amallarni bajarib nimani bilib olish mumkin:

$$3 \cdot 15; \quad 60 : 3; \quad 3 \cdot 15 + 60; \quad 60 - 3 \cdot 15; \quad 15 + 60 : 3 ?$$

**269.** Uy bekasi tomorqadan tushlikkacha 4 chelak, tushlikdan so'ng yana 2 chelak pomidor terib oldi. Uning tergan hamma pomidorlari 60 kg chiqdi. Uy bekasi tushlikkacha necha kilogramm pomidor tergan? Tushlikdan keyin-chi?

**270.** Reja bo'yicha fabrika 350 ta paltoni 10 kunda tikishi kerak edi. Fabrika ishchilari kuniga normaldagidan 2 ta ortiq palto tikish bilan reja topshiriqlarini ortig'i bilan bajardilar. 10 kunda fabrikada nechta palto tikilgan?

**271.**  $248\ 906 + 30\ 812 + 127\ 854$  |  $4\ t\ 064\ kg - 990\ kg$   
 $305\ 061 - (216\ 714 - 19\ 369)$  |  $(2\ sr - 50\ kg) : 2$



**272.** 5 ta bir xil qutining massasi 30 kg. 30 ta shunday qutining massasi qancha?



**273.**  $10\ sr\ 08\ kg - 4\ sr\ 12\ kg$  |  $47\ 650 - 857 - 6\ 599$   
 $12\ km\ 750\ m + 4\ km\ 075\ m$  |  $5\ 538 - (14 + 778)$

Tengliklar to'g'ri bo'lishi uchun kvadratlar o'rniga qanday raqamlarni qo'yish kerak?

$\square\square\square - 1 = \square\square$  |  $\square\square\square + 1 = \square\square\square\square$



## Mustahkamlash uchun mashqlar

**1.** Yig'indini qulay usul bilan hisoblang:

$$\begin{array}{r|l} 71 + 46 + 29 + 34 & 300 + 75 + 15 \\ 57 + 18 + 82 + 13 & 560 + 170 + 30 \end{array}$$

**2.**  $72 \cdot 10 : 8$  |  $540 : 6 \cdot 10$  |  $600 - 490 : 7$   
 $63 \cdot 10 : 9$  |  $810 : 9 \cdot 100$  |  $200 - 360 : 4$

$$3. \begin{array}{l|l|l} 6 \cdot 4 + 36 \cdot 10 : 9 & 480 : 6 \cdot 3 - 40 & (90 + 60) : 5 \cdot 7 \\ (243 + 27) : 9 \cdot 6 & 75 : 25 \cdot 14 + 116 & 350 \cdot 2 : 100 \cdot 13 \end{array}$$

$$4. \begin{array}{l|l|l|l} + 256\ 848 & - 409\ 001 & - 67\ 400 & + 341\ 002 \\ \hline + 308\ 657 & \hline 358\ 272 & \hline 8\ 956 & \hline 72\ 899 \end{array}$$

$$5. \begin{array}{l|l|l|l} 2\ 748 & 32\ 658 & 256\ 118 & 5\ 013 \\ + 3\ 965 & + 10\ 365 & + 72\ 816 & + 4\ 907 \\ \hline 1\ 094 & \hline 25\ 549 & \hline 50\ 942 & \hline 8\ 009 \end{array}$$

6. Tekshirish bilan yeching:

$$\begin{array}{l|l} 100\ 000 - 86\ 559 & 400\ 001 - 112\ 853 \\ 602\ 003 - 499\ 315 & 218\ 000 - 72\ 872 \end{array}$$

7. Bo'linma va qoldiqni toping, natijani tekshiring:

$$329 : 8 \quad | \quad 845 : 9 \quad | \quad 283 : 7 \quad | \quad 914 : 6$$

8. Arifmetik amallar tartibi haqidagi qoidalarni eslang va quyidagi ifodalarning qiymatlarini hisoblang:

$$\begin{array}{l|l} 867 - 349 + 360 : 9 & 240 : 3 + 150 \cdot 3 - 294 \\ 743 + 180 - 98 \cdot 9 & 80 \cdot 2 : 4 + (230 + 170) \end{array}$$

9. 100 nafar o'quvchi sayohatga jo'nadi. Ularning 40 nafari katta avtobusga, qolganlari esa baravardan 3 ta kichik avtobusga o'tirdi. Har bir kichik avtobusga nechtadan o'quvchi o'tirgan?

10. Paxta tozalash zavodiga birinchi kuni 325 t, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 15 t kam paxta jo'natildi. Uchinchi kuni zavodga ikkinchi kundagidan 5 marta kam paxta jo'natildi. Uchinchi kuni necha tonna paxta jo'natilgan?

11. Qayiq birinchi kuni 26 km, ikkinchi kuni esa birinchi kundagidan 2 marta ko'p suzdi. Agar qayiq hammasi bo'lib 91 km suzishi kerak bo'lsa, u yana qancha masofa suzishi kerak?

12. Uchta bir xil yashikda 39 kg olxo'ri bor. 104 kg olxo'rini joylash uchun shunday yashiklardan nechta kerak bo'ladi?
13. O'quvchilar 55 ta daraxt ko'chati o'tqazdilar. Ko'chatlardan 27 tasini maktab bog'iga, qolganlarini esa har bir qatorga 7 tadan qilib sport maydonchasi atrofiga o'tqazdilar. Sport maydonchasi atrofiga necha qator ko'chat o'tqazildi?
14. Ekinlarni sug'orish uchun 39 chelak suv tayyorlab qo'yildi. Har bir jo'yakka 4 chelakdan suv quyilgandan so'ng yana 3 chelak suv ortib qoldi. Necha jo'yak sug'orilgan?
15. Usta 8 soat ishlab 96 ta detal tayyorladi. Uning shogirdi 6 soat ishlab shunday detaldan 54 ta tayyorladi. Ular birgalikda ishlab, 2 soatda nechta detal tayyorlaydilar?
16. Vagondan 380 sr ko'mir tushirildi. Shundan keyin vagonda tushirilganidan 119 sr ko'p ko'mir qoldi. Dastlab vagonda qancha ko'mir bo'lgan?




### *Takrorlash uchun savollar*

1. *Qo'shishda son va unga mos ifoda qanday ataladi? Ayirishda-chi?*
2. *Ikki sonning yig'indisidan qo'shiluvchilardan biri ayirilsa, nima hosil bo'ladi? Ayiriluvchiga ayirma qo'shilsa-chi? Kamayuvchidan ayirma ayirilsa-chi?*
3. *Qo'shishni qanday tekshirish mumkin? Ayirishni-chi?*
4. *Qavslar ishtirok etmagan ifodalarda amallar bajarish tartibi haqidagi qanday qoidalarni bilasiz? Qavs ishtirok etgan ifodalarda-chi?*



## Tezlik. Vaqt. Masofa

274. 1) Velosipedchi 48 km masofani soatiga bir xil tezlik bilan yurib, 4 soatda bosib o'tdi. Velosipedchi bir soatda necha kilometr yo'l bosgan?



**Soatiga 12 km** – bu velosipedchining tezligi.  
**Qisqartirib quyidagicha yoziladi: 12 km/soat.**  
 4 soat – velosipedchining sarflagan vaqti.  
 48 km – velosipedchi bosib o'tgan masofa.

Harakat tezligining qisqartirib yozilishi:  
 km/soat, km/min, km/s, m/min, m/s.

2) Samolyot 10 minutda 110 km masofani uchib o'tadi. Samolyot har bir minutda necha kilometr masofani uchib o'tadi?

3) Quyidagi ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

a) Piyodaning tezligi 5 km/soat.



- b) Poyezdning tezligi 60 km/soat.
- d) Mototsiklchining tezligi 45 km/soat.
- e) Kosmik kema 7 260 m/s tezlik bilan uchadi.

**275.** 1) Vertolyot har bir soatda bir xil masofani uchib, 2 soatda 460 km masofani o'tdi. U qanday tezlik bilan harakatlangan?

2) Velosipedchi bir xil tezlik bilan yurib, 39 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. Velosipedchi qanday tezlik bilan harakatlangan?

3) Vertolyotning, velosipedchining tezligi va harakatlanish vaqti hamda ulardan har birining bosib o'tgan yo'li yozilgan jadvalni ko'rib chiqing:



	Tezlik	Vaqt	Masofa
	230 km/soat	2 soat	460 km
	13 km/soat	3 soat	39 km

Agar vaqt va masofa ma'lum bo'lsa, tezlikni qanday topish mumkin?



Harakat tezligini topish uchun masofani vaqtga bo'lish kerak.

**276.** Uchta sisternada 10 427 l benzin bor edi. Birinchi sisternada 4 574 l, ikkinchisida birinчисiga qaraganda 1 696 l kam benzin bor. Uchinchi sisternada necha litr benzin bor?



**277.**  $320 \cdot 3 + 810 : 9$  |  $658 \cdot 9$  |  $32\,700 - 24\,713$   
 $5\,000 - 410 \cdot 2$  |  $907 \cdot 5$  |  $11\,004 - 9\,376$




**278.** Jadvalni to'ldiring:

$a$		16	28	35
$b$	4	5	3	
$a \cdot b$	40			70

$a$	64	64	64	
$b$	8		4	16
$a : b$		32		6

279. Avtomobil yo'lda 4 soat bo'ldi va 240 km masofani bosib o'tdi. Yuk mashinasi yo'lda 3 soat bo'ldi va 120 km masofani bosib o'tdi. Avtomobilning tezligi yuk mashinasining tezligidan qancha ortiq?

280. Piyoda 4 km/soat tezlik bilan 3 soat yo'l yurdi. Piyoda qancha masofani bosib o'tdi?



Agar harakat tezligi va vaqt ma'lum bo'lsa, masofa qanday topiladi?



Masofani topish uchun tezlikni vaqtga ko'paytirish kerak.




281. Masalalarni jadvalga yozing va yeching:

1) Mototsiklchi 40 km/soat tezlik bilan yurdi. U 2 soatda qancha masofani bosib o'tadi?

2) Toshbaqa 4 m/min tezlik bilan harakatlandi. U 3 minutda qancha masofani bosib o'tadi?


3) Poni 20 m/min tezlik bilan yurdi. Poni 10 sekundda qancha masofani bosib o'tdi?



	Tezlik	Vaqt	Masofa
			
			
			

282.  $210 \cdot 4 - 88 : 44$        $137 \cdot 4$        $1809 : 9$   
 $140 \cdot 5 + 51 : 17$        $861 : 3$        $253 \cdot 6$

- 283.** Har bir chizmada  $ABCD$  to'rtburchakni:  
 1) ikkita to'rtburchakka; 2) to'rtburchakka va uchburchakka bo'ladigan kesmani toping:



- 284.** Jadvalni to'ldiring:

$a$	60 817	43 108	80 000
$b$	14 925	916	9 834
$a + b$			
$a - b$			


- 285.**  $400 - 540 : 6 + 80 \cdot 3 \quad | \quad 1\,000 - 190 \cdot 3 - 120 \cdot 2$

- 286.** Vertolyot 4 soat 200 km/soat tezlik bilan, 2 soat 230 km/soat tezlik bilan uchdi. U shu vaqt ichida qanday masofani uchib o'tdi?

- 287.** Yo'lovchi avtobusda 90 km yol' yurdi. Agar avtobus 45 km/soat tezlik bilan yursa, yo'lovchi necha soat yo'lda bo'lgan? Masalani jadvalga yozing va yeching:

Tezlik	Vaqt	Masofa

Agar tezlik va masofa ma'lum bo'lsa, vaqt qanday topiladi?



Harakat vaqtini topish uchun masofani tezlikka bo'lish kerak.



**288.** Toshkent va Samarqand shaharlari orasidagi masofa 300 km ga teng. Agar poyezd 60 km/soat tezlik bilan yursa, u bu masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?

**289.** Qayiq 6 soatda 66 km masofani suzib o'tadi. Agar qayiqning tezligi 4 km/soatga kamaysa, u shu vaqt ichida necha kilometr masofani o'tadi?



**290.** Ifodalang:

1) kilometr va metrlarda: 4 098 m, 45 981 m;

2) tonna va kilogrammlarda: 28 691 kg; 2 790 kg;

3) tiyinlarda: 7 so'm 08 tiyin; 469 so'm 20 tiyin;

4) sekundlarda: 5 min 56 s; 8 min 20 s.




**291.**  $19 \cdot 4 + 77 : 7$       |       $54\ 172 - 286 \cdot 3$

$39 : 3 + 28 \cdot 3$       |       $28\ 001 - 342 \cdot 2$

**292.** Tuya 4 kunda 80 km yo'l yurdi. Tuya qanday tezlik bilan yurgan?

Berilgan masalaga teskari masala tuzing, ularni jadvalga yozing va yeching:

Tezlik	Vaqt	Masofa
?	4 kun	80 km
<input type="checkbox"/>	?	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	?



**293.** Chavandoz 3 soatda 36 km, «Tiko» esa 2 soatda 120 km masofani bosib o'tdi.


1) «Tiko»ning tezligi chavandozning tezligidan qancha ortiq?


2) «Tiko»ning tezligi chavandozning tezligidan necha marta ortiq?

**294.** Bola 3 kunda 30 betdan va yana 40 bet kitob o'qidi. Agar kitob 200 betlik bo'lsa, bola yana necha bet o'qishi kerak?

$$\begin{array}{|l|l|l|} \hline \mathbf{295.} & 3 \cdot (16 + 17) \cdot 10 & 732 \cdot 7 \\ \hline & 6\,000 - 34 \cdot 2 & 636 : 6 \\ \hline & & 4\,048 : 8 \\ & & 903 \cdot 4 \\ \hline \end{array}$$

**296.**  $328\text{ km } 040\text{ m} - 179\text{ km } 825\text{ m}$   
 $3\text{ kg } 054\text{ g} + 7\text{ kg } 820\text{ g}$

 **297.** Kitob javonining 4 ta tokchasiga 26 tadan, 3 ta tokchasiga esa 30 tadan kitob taxlangan. Kitob javonida hammasi bo'lib nechta kitob taxlangan?

 **298.**  $47\text{ so'm } 50\text{ tiyin} - 18\text{ so'm } 75\text{ tiyin}$   
 $5\text{ t } 423\text{ kg} + 2\text{ t } 908\text{ kg}$



## Mustahkamlash uchun mashqlar

**1.** Hisoblang va natijalarni tekshiring:

$$\begin{array}{|l|l|} \hline 60\,202 - 48\,457 & 595\,738 + 206\,019 \\ \hline 29\,086 + 147\,654 & 711\,023 - 512\,316 \\ \hline \end{array}$$

**2.** Ifodaning qiymatini hisoblang:

$$\begin{array}{|l|l|} \hline 118 + 70 : 14 - 9 \cdot 9 & 800 - 80 : 4 - (70 + 9) \\ \hline 63 : 7 + 92 - 16 \cdot 3 & (800 - 80) : 4 - (70 + 9) \\ \hline \end{array}$$

Amallarni qanday tartibda bajarish kerak?

**3.** Ifodalang:

- 1) sekundlarda: 6 min; 3 min 10 s; 1 min 50 s;
- 2) detsimetr va santimetrlarda: 68 sm; 93 sm;
- 3) kilogrammlarda: 4 t; 5 sr; 3 t 4 sr; 2 000 g.

**4.** Ustun shaklida yozib hisoblang:

$$16\text{ m } 40\text{ sm} - 9\text{ m } 95\text{ sm}$$

6 sr 25 kg – 3 sr 72 kg

2 soat 16 min + 59 min


7 so‘m 36 tiyin – 2 so‘m 45 tiyin

5. Masalalarga doir tenglamalar tuzing va ularni yeching:
- 1) 92 soni noma‘lum songa kamaytirilsa, 75 hosil bo‘ladi. Noma‘lum sonni toping.
  - 2) Noma‘lum son 18 ga kamaytirilsa, 36 hosil bo‘ladi. Noma‘lum sonni toping.

6.

$a$	9 540	2 070	479 843
$b$	7 182	1 080	86 594

- 1)  $a + b$  va  $a - b$  ifodalarning qiymatlarini toping;
  - 2)  $a + b$  va  $a - b$  ifodalardagi sonlar qanday ataladi?
7. 3 soatda 33 km masofani o‘tishi uchun velosipedchi qanday tezlikda yurishi kerak?
8. Agar sayyoh 4 km/soat tezlik bilan yursa, u 28 km masofani qancha vaqtda bosib o‘tadi?
9. Xat tashuvchi kabutar 90 km/soat tezlik bilan 3 soat uchdi. U qancha masofani uchib o‘tdi?
10. Lochin 3 sekundda 78 m masofani uchib o‘tdi. Lochinning tezligi qanday?
11. Chizmadagi o‘lchamlardan foydalanib,  $ACEK$  to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini hisoblang:





## Ko'paytirish va bo'lish

### Bir xonali songa ko'paytirish

**299.** 1) Ikki sonning ko'paytmasini bir xil qo'shiluvchilarni qo'shish bilan hisoblash mumkin.

Masalan:  $6 \cdot 5 = 30$ , chunki  $6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 30$ .

2) Tengliklar nima uchun to'g'ri ekanini tushuntiring:

$$25 \cdot 4 = 25 + 25 + 25 + 25$$

$$a \cdot 7 = a + a + a + a + a + a + a$$

3) Tengliklar nima uchun to'g'ri ekanini tushuntiring:

$$17 \cdot 4 = 4 \cdot 17 \quad | \quad 8 \cdot 26 \cdot 3 = 26 \cdot 3 \cdot 8$$

4) Tenglik nima uchun to'g'ri ekanini tushuntiring:

$$(7 + 4 + 5 + 3) \cdot 2 = 7 \cdot 2 + 4 \cdot 2 + 5 \cdot 2 + 3 \cdot 2$$

(Ko'paytirishning sizga ma'lum bo'lgan xossalari eslang. 195- betga qarang.)

**300.** Hisoblashlarni tushuntirish bilan bajaring:

$$\begin{array}{r} \times 65 \\ \underline{\quad} \\ \quad 7 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 215 \\ \underline{\quad} \\ \quad 4 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 196 \\ \underline{\quad} \\ \quad 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 318 \\ \underline{\quad} \\ \quad 3 \end{array}$$

**301.** Tikuvchilik ustaxonasida 150 m shoyi bor. Undan bir xil 50 ta ko'ylak tikish mumkin. 90 m



shoyi ishlatildi. Quyidagi ifodalarni hisoblab nimani bilish mumkin?

$$\begin{array}{l|l} 150 - 90 & 150 : 50 \\ (150 - 90) : (150 : 50) & 90 : (150 : 50) \\ & 90 - (150 - 90) \end{array}$$

**302.** Do'konga 48 kg xurmo, undan 4 marta kam anor, olma esa anorga qaraganda 6 marta ko'p keltirildi. Olma xurmoga qaraganda necha kilogramm ko'p keltirilgan?



**303.** Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

	Tezlik	Vaqt	Masofa
	15 km/soat	Bir xil	45 km
	12 km/soat		?



**304.**  $275 \cdot 3$  |  $13 \text{ t } 040 \text{ kg} - 8 \text{ t } 600 \text{ kg}$   
 $326 \cdot 2$  |  $26 \text{ m } 74 \text{ sm} + 18 \text{ m } 37 \text{ sm}$

**305.** Hisoblash usulini tushuntiring:

$$6\,348 \cdot 4 = (6\,000 + 300 + 40 + 8) \cdot 4 = 6\,000 \cdot 4 + 300 \cdot 4 + 40 \cdot 4 + 8 \cdot 4 = 24\,000 + 1\,200 + 160 + 32 = 25\,392$$



Istalgan ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish kabi bajariladi; avval birliklarni, keyin o'nliklarni, yuzliklarni va h.k. ko'paytiriladi.

			6	3	4	8	
		x				4	
			2	5	3	9	2

**306.** Hisoblashlar qanday bajarilganligini tushuntiring:

			5	2	1	4					3	1	5	4	6				1	2	3	5	6	7		
		x				6					x				7				x					4		
			3	1	2	8	4					2	2	0	8	2	2				4	9	4	2	6	8

**307.** Qarg'a soatiga 50 km tezlik bilan 3 soat uchdi. Chug'urchiq shu masofani 5 soatda uchib o'tadi. Chug'urchiqning uchish tezligini toping.


**308.** Mehnat darsi uchun 90 so'mga har bir varag'i 9 so'mdan oq qog'oz va 120 so'mga har bir varag'i 10 so'mdan rangli qog'oz sotib olindi. Mehnat darsi uchun hammasi bo'lib necha varaq qog'oz sotib olindi?

Masalani ifoda tuzib yeching.

Masalaning savolini shunday o'zgartiringki, u quyidagi ifoda bo'yicha yechilsin:

$$120 : 10 - 90 : 9$$

**309.** Shakllardagi umumiylikni toping. 4- shaklning qolgan shakllardan qanday farqi bor?



**310.**  $(10 \text{ t} - 6 \text{ sr}) : 2$  |  $8 \ 234 \cdot 5$  |  $1 \ 000 \cdot 8 : 4$   
 $(2 \text{ m} - 80 \text{ sm}) : 4$  |  $62 \ 758 \cdot 4$  |  $1 \ 000 \cdot 6 : 100$

**311.** Har qaysi to'g'ri to'rtburchak nechta katakchaga bo'linganligini ikki usul bilan sanang:



**312.** Yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r|l|l} \times \begin{array}{r} 709 \\ 6 \\ \hline 4\ 254 \end{array} & \times \begin{array}{r} 80\ 306 \\ 9 \\ \hline 722\ 754 \end{array} & \times \begin{array}{r} 60\ 038 \\ 7 \\ \hline 420\ 266 \end{array} \end{array}$$

**313.** Ko'paytirishni tushuntirish bilan bajaring:

$$3\ 048 \cdot 9 \quad | \quad 50\ 003 \cdot 8 \quad | \quad 45\ 004 \cdot 7$$

**314.** 1) Yozuvlarni qarang va ko'paytirish qanday bajarilganligini tushuntiring:



$$8 \text{ km } 056 \text{ m} \cdot 4 = 32 \text{ km } 224 \text{ m}$$

$$8 \text{ km } 056 \text{ m} = 8 \text{ } 056 \text{ m}$$

$$32 \text{ } 224 \text{ m} = 32 \text{ km } 224 \text{ m}$$

$$\begin{array}{r} 8 \text{ } 056 \\ \times \quad 4 \\ \hline 32 \text{ } 224 \end{array}$$

2) Yeching:  $2 \text{ t } 074 \text{ kg} \cdot 5$ ;  $14 \text{ sr } 15 \text{ kg} \cdot 7$

**315.** «Neksiya» yengil mashinasida 2 soatda 16 l benzin sarflandi. 80 l benzin necha soat yurishga yetadi?

**316.** Agar  $a = 3$ ;  $a = 30$ ;  $a = 300$  bo'lsa,  $a \cdot 10 + 560$  ifodaning qiymatini toping.



**317.** Tikuvchilik fabrikasining tikuv sexiga har biri 9 m dan 3 846 bo'lak gazlama keltirildi. Hammasi bo'lib necha metr gazlama keltirilgan?



**318.**  $75 \text{ } 602 \cdot 3 + 14 \text{ } 856 \cdot 4$  |  $36 \text{ kg } 257 \text{ g} \cdot 5$   
 $2 \text{ } 007 \cdot 9 - 3 \text{ } 016 \cdot 2$  |  $15 \text{ sr } 16 \text{ kg} \cdot 6$

**319.** Ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirib ko'paytiring:

$$3 \cdot 368 \quad | \quad 4 \cdot 8 \text{ } 012 \quad | \quad 6 \cdot 12 \text{ } 005 \quad | \quad 7 \cdot 8 \text{ } 009$$

**320.**  $1 \cdot 7$  |  $16 \cdot 1$  |  $0 \cdot 48$  |  $24 \cdot 0$  |  $1 \cdot 0$  |  $0 \cdot 0$   
 (Ko'paytuvchilardan biri 0 yoki 1 bo'lgan holda ko'paytirish qoidasini eslang. 196- betga qarang).

**321.** Mashina tushgacha 2 soat yurdi, tushdan keyin esa shunday tezlik bilan yana 4 soat yurdi. U hammasi bo'lib 300 km yo'l yurdi. Mashina tushgacha necha kilometr va tushdan keyin necha kilometr yurgan?




**322.** Mototsiklchi 4 soatda 240 km masofani bosib o'tdi. Agar mototsiklchi tezligini 8 km/soatga oshirsa, u shu vaqt ichida qancha masofani bosib otadi? Masalani ikki usul bilan yeching.





**329.** Berilgan shakllarda nechta kvadrat borligini qanday oson hisoblash mumkin?



**330.** G'oz, tovuq va kurka tarozida tortildi. G'ozning massasi 4 kg 950 g, tovuqning massasi g'ozning massasidan 2 kg 130 g kam, kurkaning massasi esa g'oz va tovuqning birgalikdagi massasidan 1 kg 840 g ko'p chiqdi. Kurkaning massasi qancha?



**331.**  $5\ 023 \cdot 9 + 32\ 601$  |  $6 \cdot 24\ 745 - 19\ 805 \cdot 4$

**332.** 1) 195- betdan ko'paytirishda sonlar o'zaro qanday bog'langanligini o'qing va jadvalni to'ldiring:



Ko'paytuvchi	94		42			84
Ko'paytuvchi		23	3	7	15	
Ko'paytma	94	46		84	60	0

2) Tenglamalarning yechilishini va tekshirilishini tushuntiring:

a)  $x \cdot 9 = 45$

$x = 45 : 9$

$x = 5$

Tekshirish:

$5 \cdot 9 = 45$

$45 = 45$

b)  $x \cdot 3 + 50 = 170$

$x \cdot 3 = 170 - 50$

$x \cdot 3 = 120$

$x = 120 : 3$

$x = 40$

Tekshirish:

$40 \cdot 3 + 50 = 120 + 50 = 170$

$170 = 170$

**333.** Tenglamalarni yeching:

$x \cdot 8 = 48$  |  $4 \cdot x = 32$  |  $x \cdot 11 - 30 = 36$

**334.** Ifodani hisoblashning to'g'riligini tekshiring:

$$\overset{1}{7} \cdot \overset{4}{91\ 203} - \overset{2}{856} : \overset{5}{4} + \overset{3}{708} : \overset{3}{3} = 638\ 443$$

$$1) \begin{array}{r} \times 91\ 203 \\ \quad \quad 7 \\ \hline 638\ 421 \end{array}$$

$$2) \begin{array}{r} \underline{856} \quad | \quad \underline{4} \\ \quad \underline{8} \quad | \quad \underline{214} \\ \quad \underline{5} \quad | \\ \quad \quad \underline{4} \\ \quad \quad \underline{16} \\ \quad \quad \underline{16} \\ \quad \quad \underline{0} \end{array}$$

$$3) \begin{array}{r} \underline{708} \quad | \quad \underline{3} \\ \quad \underline{6} \quad | \quad \underline{236} \\ \quad \underline{10} \\ \quad \quad \underline{9} \\ \quad \quad \underline{18} \\ \quad \quad \underline{18} \\ \quad \quad \underline{0} \end{array}$$



$$4) \begin{array}{r} 638\ 421 \\ - \quad \quad 214 \\ \hline 638\ 207 \end{array}$$

$$5) \begin{array}{r} 638\ 207 \\ + \quad \quad 236 \\ \hline 638\ 443 \end{array}$$

**335.** 48 t suvni bir nasos 6 soatda, ikkinchisi esa 3 soatda hayday oladi. Ikkala nasos birgalikda ishlasa, shu suvni necha soatda haydaydi?

Masalani ushbu reja bo'yicha yeching:


1. Birinchi nasos 1 soatda necha tonna suv haydaydi?

2. Ikkinchi nasos 1 soatda necha tonna suv haydaydi?

3. Ikkala nasos birgalikda 1 soatda necha tonna suv haydaydi?

4. 42 t suv necha soatda haydaladi?

**336.**



Shaklda nechta uchburchak, to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak bor? A uchga ega bo'lgan shakllarning hamma burchaklarini ayting.



**337.** Perimetri 32 sm ga teng kvadrat chizing. Shunday perimetrli to'g'ri to'rtburchak chizing.



**338.**  $7\ 000 - 624 \cdot 3$   
 $924 + 492 \cdot 8$

$50\ 403 \cdot 7 + 8\ 032 \cdot 9$   
 $100\ 000 - 4\ 564 \cdot 9$

**339.** Jadval bo'yicha uchta masala tuzing va ularni yeching:



	Tezlik	Vaqt	Masofa
«Neksiya»	?	4 soat	360 km
«Tiko»	50 km/soat	8 soat	?
«Damas»	70 km/soat	?	210 km


**340.** Tikuvchilik ustaxonasida bir to'p shoyidan 19 ta bir xil ko'ylak tikildi, ikkinchi to'pdan 13 ta shunday ko'ylak tikildi. Tikilgan hamma ko'ylaklar uchun 64 m shoyi sarflandi. Har qaysi to'pda necha metrda shoyi bo'lgan?

**341.** Toshkent va Bekobod shaharlari orasidagi masofa 144 km. Avtobus bu masofani 3 soatda bosib o'tadi. Yengil mashina esa bu yo'lni 72 km/soat tezlik bilan bosib o'tadi. Qaysi mashinaning tezligi katta va qancha katta?


**342.** Masalalarni tenglama tuzib yeching:  
 1) Noma'lum son 8 marta orttirilsa, 1 392 hosil bo'ladi. Noma'lum sonni toping.  
 2) O'ylangan son 8 ta kamaytirilsa, 3 485 hosil bo'ladi. Qanday son o'ylangan?

**343.**  $(2\ 456 + 52) : 4 \cdot 3$   
 $861 : 7 + 9 \cdot 3\ 092$


$12\ \text{kg}\ 067\ \text{g} \cdot 4$   
 $5\ \text{sutka}\ 14\ \text{soat} \cdot 8$



**344.**



$ABCD$  to'rtburchakning tomonlarini millimetrda o'lchang va uning perimetrini toping.



**345.**  $a + b$  va  $a - b$  ifodalarning qiymatlarini  $a$  va  $b$  larning berilgan qiymatlarida hisoblang:

1)  $a = 626\ 546$  va  $b = 90\ 049$

2)  $a = 99\ 891$  va  $b = 46\ 059$



### Mustahkamlash uchun mashqlar

- $72 : 6 \cdot 9$  |  $81 : 3 : 3$  |  $4 \cdot 14 : 8$  |  $77 : 11 \cdot 12$
- $90 \cdot 4$  |  $250 \cdot 3$  |  $280 : 2$  |  $710 - (200 - 80 \cdot 2)$
- $24 \cdot 0$  |  $1 \cdot 36$  |  $99 : 99 \cdot 165$  |  $(84 - 7 \cdot 12) \cdot 48$   
 $0 \cdot 45$  |  $53 \cdot 1$  |  $(840 - 835) : 5$  |  $63 \cdot (48 - 2 \cdot 24)$
- $354 \cdot 5$  |  $24\ 122 \cdot 6$  |  $20\ 405 \cdot 3$  |  $3 \cdot 32\ 633$
- $8\ 049 \cdot 8 + 3\ 415$  |  $9\ 000 - (5\ 436 + 290 \cdot 4)$   
 $(3\ 000 - 2\ 809) \cdot 7$  |  $8\ 020 - (7\ 000 - 700 \cdot 3)$
- Bo'linma va qoldiqni toping. Yechishni tekshiring:  
 $39 : 7$  |  $63 : 4$  |  $35 : 5$  |  $51 : 7$  |  $49 : 6$
- Tenglamani yeching:  
 $7 \cdot x = 49$  |  $x - 160 = 515$  |  $362 - x = 171$
- 1 000 kg shakar 2 kg va 3 kg li xaltachalarga joylandi. 2 kg li xaltachalar soni 245 ta. 3 kg li xaltachalar soni nechta?
- Kattalar ko'ylagi uchun 5 m, bolalar ko'ylagi uchun 2 m gazlama ketadi. 114 m gazlamadan kattalar va bolalar ko'ylaklari tikildi. Kattalar ko'ylagidan 18 ta tikildi. Nechta bolalar ko'ylagi tikilgan?
- 1 sr 80 kg bodring 12 ta bir xil savatga baravardan joylandi. 3 sr bodringni joylash uchun shunday savatlardan nechta kerak bo'ladi?



Biz har kuni duch keladigan 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni, ular ustida bajariladigan amallar qoidalarini va boshqa ko'p arifmetik qonunlarni fanga birinchilardan bo'lib vatandoshimiz buyuk matematik al-Xorazmiy (783–850 y.) kiritgan. Uning matematikaga doir bir qator asarlari o'sha paytda boshqa tillarga tarjima qilinib, uzoq

vaqtgacha Yevropa universitetlarida hisob ilmidan darslik vazifasini bajarib kelgan.

Al-Xorazmiy matematikaga doir juda ko'p risolalar yaratgan. Buyuk bobokalonimiz al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.



### *Takrorlash uchun savol va topshiriqlar*

- 1. Ko'paytirishda sonlar va ularga mos ifodalar qanday ataladi?*
- 2. Ko'paytmani qo'shishdan foydalanib qanday hisoblash mumkin?*
- 3. Ko'paytuvchilardan biri 0 ga teng bo'lsa, ko'paytma nimaga teng bo'ladi? Ko'paytuvchilardan biri 1 ga teng bo'lsa-chi? Misollar keltiring.*
- 4. Ikki sonning ko'paytmasi ko'paytuvchilardan biriga bo'linsa, nima hosil bo'ladi?*

## Bir xonali songa bo'lish

**346.** Ikki sonning bo'linmasini ko'paytirish amali-dan foydalanib topish mumkin: buning uchun bo'luvchiga ko'paytirilganda bo'linuvchi chiqadigan sonni topish kerak.

Masalan:  $60 : 5 = 12$ , chunki  $12 \cdot 5 = 60$ .

Tengliklarning to'g'riligini ko'paytirishdan foydalanib tekshiring:

$$75 : 5 = 15 \quad 80 : 20 = 4 \quad 720 : 8 = 90$$

**347.** Qoldiqli bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring.

$$\begin{array}{r} 59 \overline{) 7} \\ 56 \overline{) 8} \\ \hline 3 \end{array}$$

Tekshirish:

$$3 < 7; \quad 8 \cdot 7 = 56$$

$$8 \cdot 7 + 3 = 59$$



**Yodingizda tuting!** Qoldiqli bo'lishning to'g'ri bajarilganligini tekshirish uchun bo'linma bo'luvchiga ko'paytiriladi va natijaga qoldiq qo'shiladi.

**348.** Qoldiqli bo'lishni tekshirish bilan bajaring:

$$20 : 3 \quad | \quad 83 : 9 \quad | \quad 70 : 6$$

**Yodingizda tuting!** Qoldiq har doim bo'luvchidan kichik bo'ladi.


**349.** Tengliklarning to'g'riligini tekshiring:

$$(28 + 16 + 32 + 12) : 4 = 88 : 4 = 22$$

$$(28 + 16 + 32 + 12) : 4 = 28 : 4 + 16 : 4 + 32 : 4 + 12 : 4 = 7 + 4 + 8 + 3 = 22$$

Bir necha sonning yig'indisini songa qanday bo'lish mumkinligini aytib bering.

350.




1) Qaysi shaklda kat-taklar soni ko'p va qancha ko'p?

2) Shu shakllarning perimetrlarini taq-qoslang.

351. Agar pomidorlarni 6 kg lik yashiklarga joylansa, 5 ta yashik kerak bo'ladi. Shuncha pomidorni 10 kg lik nechta yashikka joylash mumkin?



352. Har bir shakldagi kvadrat santimetrlarni sa-nang. Har bir shaklning yuzi nimaga teng?



353.  $640 : 8$  |  $72 : 18$  |  $80 : 5$  |  $3\ 083 \cdot 7 + 9\ 806 \cdot 9$   
 $270 : 3$  |  $95 : 19$  |  $55 : 5$  |  $50\ 604 \cdot 6 - 274\ 325$

354. Natijani qanday hosil qilganingizni tushun-tiring:

$0 : 85$  |  $0 : 16$  |  $34 : 1$  |  $93 : 1$  |  $57 : 57$  |  $90 : 90$

355. 1) Yechimning to'g'riligini tushuntiring:

$$(14 + 49 + 21) : 7 = 14 : 7 + 49 : 7 + 21 : 7 = 12$$

$$(15 + 30 + 18 + 9) : 3 = 15 : 3 + 30 : 3 + 18 : 3 + 9 : 3 = 24$$

2) Bo'lish qanday bajarilganligini tushuntiring:

$$684 : 2 = (600 + 80 + 4) : 2 = 600 : 2 + 80 : 2 + 4 : 2 = \\ = 300 + 40 + 2 = 342$$

$$825 : 3 = (600 + 210 + 15) : 3 = 600 : 3 + 210 : 3 + 15 : 3 = 200 + 70 + 5 = 275$$

3) Bu misollarning yechilishini ustun shaklida yozib, bo'linmani toping.

**356.** 1) Yechilishini ustun shaklida yozib, amalni bajar-ring:

$$508 : 2 \quad | \quad 852 : 3 \quad | \quad 784 : 4 \quad | \quad 630 : 5$$

2) Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

**357.** Yusuf 3 banka, Salim 5 banka olma sharbati sotib oldi. Shu xarid uchun Salim Yusufga qaraganda 160 so'm



ko'p to'ladi. 1 banka olma sharbati qancha turadi? Yusuf qancha pul to'lagan? Salim qancha pul to'lagan?

**Yechilishi:**

- 1)  $5 - 3 = 2$  (banka)
- 2)  $160 : 2 = 80$  (so'm)
- 3)  $80 \cdot 3 = 240$  (so'm)
- 4)  $80 \cdot 5 = 400$  (so'm)

**Tekshirish:**



$$\begin{array}{r} \_ 400 \\ \_ 240 \\ \hline 160 \end{array}$$

Har bir amalni bajarish bilan nimani bilib oldingiz?

**358.** Bir xona devoriga yelimlab yopishtirish uchun 4 o'ram va ikkinchi xona uchun 6 o'ram gulqog'oz olindi. Hammasi 100 m bo'ldi. Har bir xonaga necha metrdan gulqog'oz olindi?

**359.** Har qaysi to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang. Qanday hisobladingiz?





**360.**  $460 : 2$  |  $550 : 5$  |  $0 : 124$  |  $6\ 000 - (500 + 243 \cdot 4)$   
 $930 : 3$  |  $560 : 7$  |  $372 : 1$  |  $2\ 894 + (800 - 94 \cdot 7)$



**361.** Poyezd 316 km yo'lni o'tishi kerak edi. U 109 km yo'lni o'tdi. Poyezd yana o'tganidan necha kilometr ko'p yo'lni o'tishi kerak?

**362.** Ko'p xonali sonni bir xonali songa yozma bo'lish uch xonali sonni bir xonali songa bo'lish kabi bajariladi.

Uch xonali sonni bir xonali songa qanday bo'linganini tushuntiring. To'rt xonali sonni bir xonali songa qanday bo'linishini ko'rib chiqamiz:

$8\ 562$	$3$	$2854$
$-6$	$2854$	$\times$
$-25$	$\cdot\cdot\cdot\cdot$	$3$
$24$		$8562$
$-16$		
$15$		
$-12$		
$12$		
$0$		



Tushuntirish: 8 562 ni 3 ga bo'lish kerak.

Mingliklarni bo'lamiz:

8 ming – birinchi to'liqsiz bo'linuvchi. 8 soni 3 ga

bo'linadi. Demak, bo'linmada minglar, yuzlar, o'nlar va birlar, ya'ni 4 ta raqam bo'ladi. Har bir raqamning o'rniga nuqta qo'yib chiqish mumkin.

**Bo'lamiz:**  $8 : 3 = 2$  – bo'linmada shuncha ming bo'ladi.

**Ko'paytiramiz:**  $2 \cdot 3 = 6$  – shuncha mingni bo'ldik.

**Ayiramiz:**  $8 - 6 = 2$  – shuncha mingni bo'lmadik.

**Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:** qoldiq (2) bo'luvchidan (3) kichik. Demak, bo'lishni davom ettirish mumkin.

**Yuzliklarni bo'lamiz:**

2 minglik – bu 20 yuzl. va 5 yuzl., hammasi 25 yuzl.

Bu ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi.


**Bo'lamiz:**  $25 : 3 = 8$  – bo'linmada shuncha yuz bo'ladi.

Tushuntirishni davom ettiring. Tekshirish qanday bajarilganini tushuntiring.

**363.** Bo'lishni ustun shaklida yozib, tushuntirish bilan bajaring:

$$8\ 635 : 5 \quad | \quad 5\ 032 : 4 \quad | \quad 9\ 042 : 2$$

**364.** Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, har bir ekin turi egallagan maydonning perimetrini hisoblang:






**365.** Yangi yil archasi uchun Nasiba 7 ta bir xil narxli o'yinchoq, Karima esa shunday 9 ta o'yinchoq sotib oldi. Xarid qilgan o'yinchoqlar uchun Karima Nasibaga nisbatan 106 so'm ko'p pul to'ladi. Nasiba xarid qilgan o'yinchoqlar uchun qancha pul to'lagan? Karima xarid qilgan narsalari uchun qancha pul to'lagan?

**366.** Samolyot o'z bortiga 145 yo'lovchini sig'dira oladi. Samolyotning 4 ta reysiga 514 ta chipta sotildi. Bu reyslarga yana nechta chipta sotish mumkin?


**367.** Berilgan ma'lumotlar bo'yicha to'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlari va yuzlarini hisoblang:



**368.**  $7\ 242 : 3$  |  $7\ 146 : 6$  |  $9 \cdot 4\ 058$  |  $747 : 747$   
 $7\ 940 : 4$  |  $7\ 406 : 7$  |  $6 \cdot 3\ 240$  |  $482 : 1$



**369.** To'g'ri to'rtburchak 3 ta to'g'ri to'rtburchakka bo'lindi. Zarur o'lchashlarni bajaring va har bir to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang:





**370.** 1) Tomoni 1 m bo'lgan kvadrat – bu kvadrat metr bo'ladi. U yuz o'lchovining yangi, ancha katta birligidir. Sonlar bilan kelganda kvadrat metr so'zi qisqartirib yoziladi: 14 kv. m; 14 m<sup>2</sup>.

2) Xonaning bo'yi 4 m, eni esa 3 m. Xonaning yuzini kvadrat metrlarda ifodalang.

3) Sinf xonasining bo'yi va enini o'lchang. Uning yuzini kvadrat metrlarda toping.

**371.** Tomorqadan har biri 11 kilogrammdan 4 yashik bodring va 5 ta bir xil yashikda pomidor terib olindi. Hammasi bo'lib 89 kg pomidor va bodring terib olindi. Har bir yashikka necha kilogrammdan pomidor joylangan?



**372.** Bir albomda 350 ta marka bor. Bu ikkinchi albomdagi markalarga qaraganda 100 ta ortiq. Ikkala albomda hammasi bo'lib nechta marka bor?




**373.** Uchta sport maktabiga hammasi bo'lib 2 400 bola qatnashadi. Birinchi maktabda 600, ikkinchi maktabda birinchisiga qaraganda 400 bola ko'p. Uchinchi maktabga nechta bola qatnaydi?

**374.** 1) Yechimlarni ustun shaklida yozing:

$$5\ 372 : 4 \quad | \quad 97\ 055 : 7 \quad | \quad 732\ 415 : 5$$

2) Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$71 : 9 \quad | \quad 50 : 8 \quad | \quad 8 : 13 \quad | \quad 6 : 17$$



**375.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$51 : 6 \quad | \quad 85 : 9 \quad | \quad 13 : 5 \quad | \quad 12 : 7$$




**376.** Uzunligi 7 sm, eni esa undan 2 sm qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Xuddi shunday perimetrli kvadrat chizing.



**380.** Do'konda ertalab 3 yashik, kechqurun esa 2 yashik uzum sotildi. Hammasi bo'lib 50 kg uzum sotildi. Ertalab necha kilogramm uzum va kechqurun necha kilogramm uzum sotildi?

**381.** 118 betli kitobni qizcha dastlab har kuni 16 betdan 4 kun, keyingi kunlari esa 18 betdan o'qib tugatdi. Qizcha kitobni necha kunda o'qib tugatgan?

**382.** Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, tarvuz, qovun va qovoqqa qanchadan maydon ajratilganini aniqlang:




**383.** 4 000 so'mga 5 ta bir xil stol sotib olindi. Xuddi shunday narxda 6 ta kitob javoni sotib olish uchun qancha pul kerak bo'ladi?



**384.**  $19\ 284 : 6$  |  $24\ 948 : 7$  |  $(8\ 014 - 7\ 945) \cdot 9$   
 $25\ 016 : 4$  |  $26\ 120 : 8$  |  $8 \cdot (2\ 356 + 6\ 127)$

**385.** 1) «Kometa» va «Raketa» teploxodlari 1 soatda necha kilometr yaqinlashadilar? 2 soatda-chi? 4 soatda-chi?




2) Yuk poyezdi va tezyurar poyezd 1 soatda bir-biridan necha kilometr uzoqlashadi? 2 soatda-chi? 6 soatda-chi?



**386.** Tomoni 1 mm bo'lgan kvadrat – bu kvadrat millimetr bo'ladi. Bu yuz o'lchov birligi. Sonlar bilan kelganda kvadrat millimetr so'zi qisqartirib yoziladi: 72 kv. mm, 9 mm<sup>2</sup>.

Tasmaning uzunligi va enini millimetrlarda o'lchang. Uning yuzini toping.



**387.** Ayollar ko'ylagining chetlariga to'g'ri to'rtburchak shaklidagi tasma tikib chiqildi. Tasmaning eni 20 mm, bo'yi 400 mm. Tasmaning yuzini toping.

**388.** Rasmlar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching. To'la javobni ayting.

1)

?

50 so'm,  
4 marta arzon

2)

8 kg,

5 kg og'ir

?

$$389. \begin{array}{|l|l|l|l|} \hline 894 : 3 & 5\,536 : 8 & 10\,703 : 7 & 37\,284 : 4 \\ \hline 980 : 4 & 4\,655 : 5 & 39\,258 : 6 & 43\,668 : 9 \\ \hline \end{array}$$

Misollarning yechilishini quyidagi reja bo'yicha tushuntiring:


- 1) Birinchi to'liqsiz bo'linuvchi ...
- 2) Bo'lamiz: ...
- 3) Ko'paytiramiz: ...
- 4) Ayiramiz: ...
- 5) Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz: ...
- 6) Ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi ... .

**390.** 1) Sayohatchilar har birida 40 kishidan ikki avtobusda va har birida 5 kishidan to'rtta yengil mashinada yo'lga chiqdilar. Avtobusda yengil mashinalardagiga qaraganda necha marta ko'p sayohatchi yo'lga chiqdi?

2) Masalaning savolini shunday o'zgartiringki, u  $40 \cdot 2 + 5 \cdot 4$  ifoda bilan yechilsin.



**391.** Qurilgan ko'p qavatli uylarning birida 48 xonadon, ikkinchisida 36 xonadon bor. Yangi yilda 54 xonadon egalari ko'chib kirdi. Yana nechta xonadon bo'sh turibdi?



$$392. \begin{array}{|l|l|l|l|} \hline 10\,572 : 4 & 55\,488 : 6 & 7 \cdot 4\,045 & 749 : 749 \\ \hline 20\,881 : 7 & 18\,992 : 8 & 9 \cdot 3\,480 & 452 : 1 \\ \hline \end{array}$$

**393.** Jadvalni to'ldiring:



$a$	80		84	48	1	
$b$	16	7		1	1	35
$a : b$		12	12			0

1) Bo'luvchi va bo'linma ma'lum bo'lsa, bo'linuvchi qanday topiladi?



2) Bo'linuvchi va bo'linma ma'lum bo'lsa, bo'luvchi qanday topiladi?

3) Tenglamalarni yechishni va ularni tekshirishni tushuntiring:

$$x : 4 = 15$$

$$x = 15 \cdot 4$$

$$x = 60$$

Tekshirish:

$$60 : 4 = 15$$

$$90 : x = 18$$

$$x = 90 : 18$$

$$x = 5$$

Tekshirish:

$$90 : 5 = 18$$

**394.** Tenglamalarni yeching:

$$42 : x = 2$$

$$x \cdot 16 = 48$$

$$x : 13 = 39$$

$$x - 18 = 54$$

**395.**  $4\ 376 : 8$

$$3\ 740 : 5$$

$9\ 478 : 7$

$$8\ 742 : 6$$

$34\ 172 : 4$

$$26\ 451 : 9$$

**396.** Sayyohlar qayiqda 52 km suzishdi. Dastlabki 4 km yo'lni 7 km/soat tezlik bilan, qolgan yo'lni esa 8 km/soat tezlik bilan o'tishdi. Sayyohlar yo'lda hammasi bo'lib qancha vaqt bo'lganlar?

**397.**  $(2\ 000 - 1\ 705) \cdot 9$

$$7\ 082 \cdot 8 + 1\ 329$$

$8\ 000 - (4\ 536 + 160 \cdot 3)$

$$1\ 235 + (8\ 100 - 300 : 3)$$



**398.)** Yechilishini ustun shaklida yozib, bo'linmani toping:

$$24\ 759 : 3$$

$$7\ 948 : 4$$

$$3\ 190 : 5$$

$$4\ 152 : 6$$



**399.)**  $(30\ 000 - 9\ 864) \cdot 3$

$$30\ 000 - 9\ 864 \cdot 3$$

$$0 \cdot 4$$

$$0 : 4$$

$$356 : 1$$

$$843 : 1$$

$$639 : 639$$

$$1 \cdot 524$$

**400.** 389-mashqda ko'rsatilgan rejadan foydalanib, bo'lishni tushuntiring:



$2720 \overline{) 8}$	$3563 \overline{) 7}$
$24 \quad \underline{\quad}$	$35 \quad \underline{\quad}$
$32$	$6$
$32 \quad \underline{\quad}$	$0$
$0$	$63$
$0 \quad \underline{\quad}$	$63$
$0$	$0$

**401.** Bo‘linmani toping, natijaning to‘g‘riligini ko‘paytirish bilan tekshiring:


$$1\ 740 : 6 \quad | \quad 7\ 680 : 8 \quad | \quad 2\ 745 : 9 \quad | \quad 2\ 535 : 5$$

**402.** Ombordan har birida 7 kg bo‘lgan 32 yashik pecheniy va har birida 9 kg bo‘lgan bir nechta yashik konfet jo‘natildi. Hammasi bo‘lib pecheniy va konfetlardan birgalikda 449 kg jo‘natildi. Necha yashik konfet jo‘natilgan?

**403.** Perimetri tomoni 4 sm ga teng kvadratning perimetri bilan bir xil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchaklardan birortasini chizing. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha hollarni jadvalga yozing.

Bo‘yi	Eni	To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri

**404.** Kattaroq birliklarda ifodalang:




$$7\ 900\ \text{sm} = \square\ \text{m}$$

$$9\ 250\ \text{sm} = \square\ \text{m} \square\ \text{sm}$$

$$63\ 540\ \text{m} = \square\ \text{km} \square\ \text{m}$$

$$407\ \text{sm} = \square\ \text{dm} \square\ \text{sm}$$




**405.**  $(5\ 000 - 3\ 893) : 9$

$$8\ 000 - (2\ 778 + 439 \cdot 6)$$

$$3\ 063 + 5\ 094 \cdot 8$$

$$2\ 145 + (7\ 070 - 900 : 3)$$



**406.** Tenglamalarni yeching va ularni tekshiring:

$$x : 7 = 63 \quad | \quad x : 15 = 3 \quad | \quad 72 : x = 3 \quad | \quad 78 : x = 6$$

**407.** Tushuntirish bilan yeching va natijani tekshiring:

$$142\ 800 : 4 \quad | \quad 29\ 004 : 6 \quad | \quad 509\ 700 : 5$$

**408.** Tokar 100 ta detal tayyorladi. Dastlabki 3 soatning har bir soatida 12 tadan, keyingi har bir soatda 16 tadan detal tayyorlagan. U necha soat 16 tadan detal tayyorlagan?

Yechilishi:

$$1) 12 \cdot 3 = 36 \text{ (d.)} \quad 3) 64 : 16 = 4 \text{ (soat)}$$

$$2) 100 - 36 = 64 \text{ (d.)}$$

Har bir amal bilan nimani bilib olganingizni tushuntiring.

**409.** Jadvaldan foydalanib masala tuzing va yechishni tugating.



Bahosi	Miqdori	Narxi
25 so'm	6 kg	270 so'm
?	3 kg	

Yechilishi:

$$1) 25 \cdot 6 = 150 \text{ (so'm)}$$

$$2) 270 - \square = \square \text{ (so'm)}$$

$$3) \square : \square = \square \text{ (so'm)}$$



**410.** Bir qopda 48 kg, ikkinchisida esa 36 kg shakar bor. Ular 42 ta bir xil xaltachalarga solindi. Har qaysi qopdagi shakarni joylash uchun nechtadan xaltacha kerak bo'lgan?


**411.**  $6\ \text{t}\ 051\ \text{kg} - 4\ \text{t}\ 382\ \text{kg}$


$32\ \text{so'm}\ 64\ \text{tiyin} + 47\ \text{so'm}\ 98\ \text{tiyin}$

$753\ \text{km}\ 450\ \text{m} - 6\ \text{km}\ 353\ \text{m}$

**412.** Ushbu shakllarning yuzlarini taqqoslang:



 **413.** Birining tomoni 3 sm 9 mm, ikkinchisining tomoni 4 sm 3 mm bo'lgan ikkita kvadrat chizing va ularni qirqib oling. Har qaysi kvadratning perimetrini toping.

 **414.**  $74\ 196 : 4$  |  $29\ 571 : 3$  |  $172\ 942 : 2$  |  $748\ 915 : 5$   
 $80\ 080 : 8$  |  $15\ 009 : 3$  |  $27\ 063 : 9$  |  $96\ 180 : 2$

**415.**



Agar rasmdagi soat 15 minut ilgari bo'lsa, aniq vaqtni hisoblab bering. Agar 20 minut orqada yursa-chi?

**416.** 45 054 sonini 9 ga bo'lib, bir o'quvchi bo'linmada 506 sonini, ikkinchi o'quvchi 5 006 sonini, uchinchi o'quvchi esa 56 sonini hosil qildi. Misolni ulardan qaysi biri to'g'ri bajarganini tekshiring.

Ko'p xonali sonni bir xonali songa bo'lishda bo'linmaning yozuvida nechta raqam bo'lishini oldindan aniqlab olish foydali. Bu bo'lishda xatolikka yo'l qo'yishning oldini oladi.

**417.** 389-mashqda ko'rsatilgan rejadan foydalanib, bo'lishni tushuntiring:

4364	54126
4	54
3	7
0	0
36	12
36	12
0	0
109	902
.	.
.	.
.	.



**418.** Dastlab, bo'lishda nechta raqam hosil bo'lishini aniqlang. Buni bo'lish bilan tekshiring:

$$\begin{array}{|l|l|l|l|} \hline 693 : 3 & 3\ 295 : 5 & 7\ 812 : 6 & 7\ 620 : 4 \\ \hline 772 : 4 & 4\ 884 : 6 & 8\ 012 : 4 & 10\ 005 : 5 \\ \hline \end{array}$$

**419.** Tomoni 1 km bo'lgan kvadrat – bu kvadrat kilometr bo'ladi. U yuz o'lchovining yangi, ancha katta birligidir. Sonlar bilan kelganda kvadrat kilometr so'zi qisqartirib yoziladi: 2 kv. km, 7 km<sup>2</sup>.




Istirohat bog'i to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Uning bo'yi 2 km, eni 1 km. Istirohat bog'ining yuzini toping.

**420.** Tomoni 5 m bo'lgan kvadrat shaklidagi xonaga bo'yi 4 m, eni esa 3 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi palos to'shaldi. Bu xonaning necha kvadrat metrini palos qoplamaydi?



**421.**  $1\ 792 + 5\ 628 : 7$   
 $(1\ 792 + 5\ 628) : 7$

$86\ 886 - 4\ 437 : 9$   
 $(86\ 886 - 4\ 437) : 9$



**422.**  $68\ 000\ m = \square\ km$   
 $\square\ kg = 64\ t$

$92\ 800\ tiyin = \square\ so'm$   
 $\square\ kg = 279\ sr$

**423.** 1) 389- mashqda ko'rsatilgan rejadan foydalanib bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:

3	1	5	0	7	5	4	2	4	6					
-	2	8		4	5	0	-	5	4		1	9	0	4
	-	3	5					-	2					
		-	3	5					-	0				
			-	0						-	2	4		
				-	0						-	2	4	
					-	0							-	0



2) Bo'lishning qisqa yozuvi bilan yuqoridagi yozuvini taqqoslang va farqini tushuntiring:



$3750 \overline{) 7}$	$5424 \overline{) 6}$
$\underline{28}$	$\underline{54}$
$35$	$24$
$\underline{35}$	$\underline{24}$
$0$	$0$

424. 1) Yechmasdan turib tengliklardan qaysilari noto'g'ri ekanini ayting:

$$63\ 126 : 7 = 7\ 014$$

$$50\ 600 : 8 = 6\ 325$$

$$35\ 133 : 7 = 519$$

$$90\ 470 : 5 = 1\ 894$$

2) Yechishdagi xatolikni toping.

425. 1) Jadvalni ko'rib chiqing:

Tezlik	12 km/soat	36 km/soat
Masofa	60 km	216 km

2) Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

$$60 : 12$$

$$36 : 12$$

$$60 : 12 + 216 : 36$$

$$216 : 36$$

$$36 - 12$$


$$216 : 36 - 60 : 12$$

426. 1) Masalalarning yechilishlarini taqqoslang:

Operator birinchi kun 35 bet, ikkinchi kun 42 bet matn terdi. U soatiga bir xil unum bilan ishlab, bu ishga 11 soat sarfladi. Operator shu ikki kunda necha soatdan ishlagan?

2) Operator ikki kun davomida 70 bet matn terdi. U birinchi kun 4 soat, ikkinchi kun 6 soat ishladi. Operator har kuni necha betdan matn tergan?

427. Rasmlardan foydalanib, qaysi to'g'ri to'rtburchakning yuzi katta va necha marta katta ekanini aniqlang:



**428.** Birinchi soatda 40 ta, ikkinchi soatda birinchi soatdagiga qaraganda 4 ta kam, uchinchi soatda ikkinchi soatdagiga qaraganda 4 marta kam lotereya chiptalari sotildi. Uchinchi soatda nechta lotereya chiptasi sotildi?


**429.**  $3\ 615 - 2\ 743$  |  $8\ 435 : 7$  |  $523\ 200 : 5$   
 $872 \cdot 600$  |  $104\ 640 - 96\ 205$  |  $1\ 205 \cdot 3$

**430.** Daftaringizda shunday ikkita to'g'ri to'rtbur-chak chizingki, ikkinchisining yuzi birinchisi-ning yuzidan katta bo'lsin.


**431.** Shaklning yuzini topish uchun paletkadan foy-dalaniladi. U kvadrat santimetrlarga bo'lingan shaf-fof plastinka. Rasmda paletka shakl ustiga qo'yilgan. Shaklning yuzini topish uchun birinchi navbatda shu shaklda nechta to'liq kvadrat santimetrlar joylash-ganini aniqlaymiz. Ular 25 ta. Keyin to'liq bo'lmagan kvadrat santimetrlarni sanaymiz. Ular 18 ta. Shu sonni 2 ga bo'lamiz. Taxminan 9 ta to'liq kvadrat chiqdi. Demak, bu shaklning yuzi quyidagicha bo'ladi:

$$25 + 9 = 34.$$


J a v o b : shaklning yuzi  $34\text{ sm}^2$  ga teng.



432. Paletkadan foydalanib berilgan shakllarning yuzini hisoblang:



433. Rasmda ko'rsatilgan shakllarning yuzini va perimetrini toping:





434. Ikkita qutichada 16 ta archa o'yinchoqlari bor. Birinchi quticha 350 so'm, ikkinchi quticha 450 so'm turadi. Agar o'yinchoqlar narxi bir xil bo'lsa, har bir qutichada nechtdan o'yinchoq bor?

435.  $4\ 184 : 8 + 1\ 912 : 8$  |  $(665 - 665) \cdot 7 + 12 \cdot 10$   
 $(4\ 184 + 1\ 912) : 8$  |  $(500 - 499) \cdot 6 + 75 : 75$




436. Tenglamalarni yeching:

$4 \cdot x = 64$  |  $87 : x = 3$  |  $200 - x = 161$



437.  $24\ 120 : 8 + 6\ 095$  |  $4\ 090 : 5 \cdot 7$   
 $10\ 980 : 9 - 999$  |  $7\ 020 \cdot 3 : 9$

438. Doiraning va ko'pburchakning yuzini toping.



439. 1) Ikki velosipedchi bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi va uchrashdi. Ikki velosipedchining uchrashguncha sarflagan vaqti haqida nima deyish mumkin?

**Yodingizda tuting!** Agar jismlar bir vaqtda bir-biriga qarab yura boshlasa, ular uchrashguncha bir xil vaqt harakatda bo'ladilar.

2) Buxoro va Navoiy shaharlaridan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita avtobus yo'lga chiqdi va



bir soatdan keyin uchrashdi. Uchrashguncha har bir avtobus necha soat yo'lda bo'ldi?

**440.** Velosipedchi 5 soatda 65 km, mototsiklchi esa 4 soatda 208 km masofani bosib o'tdi. Mototsiklchining tezligi velosipedchining tezligidan necha kilometr ortiq? Velosipedchining tezligi mototsiklchining tezligidan necha marta kam?

**441.** Yuz birliklarini eslang!

$$1 \text{ sm}^2 = 100 \text{ mm}^2$$

$$1 \text{ dm}^2 = 100 \text{ sm}^2$$

$$1 \text{ dm}^2 = 10\,000 \text{ mm}^2$$

$$1 \text{ m}^2 = 100 \text{ dm}^2$$

$$1 \text{ m}^2 = 10\,000 \text{ sm}^2$$

$$1 \text{ km}^2 = 1\,000\,000 \text{ m}^2$$

**442.** «Darchalar»ni to'ldiring:

$$400 \text{ dm}^2 = \square \text{ m}^2$$

$$700 \text{ sm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$3\,000 \text{ sm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$9 \text{ m}^2 = \square \text{ dm}^2$$

**443.** 7 ta qutida 42 ta rangli qalam bor. Shunday 9 ta qutida nechta rangli qalam bor?



**444.** Agar samolyot 540 km/soat tezlik bilan uchsa, u 3 soatda qancha masofani bosib o'tadi?





$$39\,072 : 4 : 3$$

$$30\,960 : 9 - 2\,891$$


$$350\,647 - 36\,008 \cdot 5$$

$$120\,094 \cdot 7 - 609\,304 : 4$$


**446.** Shakllarning yuzini hisoblang:




447. 1) Ikki punktdan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki piyoda yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin uchrashdilar. Ulardan biri 3 km/soat tezlik bilan, ikkinchisi 4 km/soat tezlik bilan yurdi. Punktlar orasidagi masofa qancha?



2) Oralaridagi masofa 21 km bo'lgan ikki punktdan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki piyoda yo'lga chiqdi. Ulardan biri 3 km/soat tezlik bilan, ikkinchisi 4 km/soat tezlik bilan yurdi. Ular necha soatdan keyin uchrashadilar?





3) Oralaridagi masofa 21 km bo'lgan ikki punktdan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki piyoda yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin uchrashdilar. Piyodalardan birining tezligi 3 km/soat. Ikkinchisining tezligini aniqlang.



448.  $36 \text{ t } 9 \text{ sr} : 9 \text{ sr}$   
 $2 \text{ sr } 08 \text{ kg} : 8 \text{ kg}$

$13 \text{ km } 250 \text{ m} : 5 \text{ m}$   
 $3 \text{ m } 12 \text{ sm} : 4 \text{ sm}$

 449. Tomonlari 6 dm va 4 dm bo'lgan to'g'ri to'rtbur-chak hamda tomoni 5 dm bo'lgan kvadratning perimetri va yuzini hisoblang. Bu shakllarning perimetrlarini, so'ngra yuzlarini taqqoslang.

 450.  $20\ 000 - 780 : 3 \cdot 9$   
 $3 \cdot 32\ 024 - 47\ 989$

$3 \text{ m } 20 \text{ sm} : 8 \text{ sm}$   
 $14 \text{ m } 7 \text{ dm} : 7 \text{ dm}$

451. Jadvalni ko'rib chiqing:

1 ta tugmaning narxi	4 so'm	8 so'm
Xarid bahosi	240 so'm	160 so'm

Jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ifodalar nimani ifodalashini tushuntiring:

- 1)  $240 : 4$  <sup>60</sup> | 3)  $8 : 4$  <sup>2</sup> | 5)  $240 : 4 + 160 : 8$   
 2)  $160 : 8$  <sup>20</sup> | 4)  $8 - 4$  <sup>4</sup> | 6)  $240 : 4 - 160 : 8$

**452.** Toshkent va Andijon shaharlaridan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi va 4 soatdan keyin uchrashdilar. Birinchi poyezdning tezligi 50 km/soat, ikkinchisniki 70 km/soat. Ikki shahar orasidagi masofani toping.

Masala turli usullar bilan yechilishini ko'ring, har bir amal bilan nima topilganini tushuntiring.



Yechilishi:

1 - usul	2 - usul
1) $50 \cdot 4 = 200$ (km)	1) $50 + 70 = 120$ (km/soat)
2) $70 \cdot 4 = 280$ (km)	2) $120 \cdot 4 = 480$ (km)
3) $200 + 280 = 480$ (km)	
J a v o b : 480 km	J a v o b : 480 km

**453.** Oralaridagi masofa 90 km bo'lgan ikki pristandan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki kema yo'lga chiqdi. Bir kemaning tezligi 8 km/soat, ikkinchisining tezligi 10 km/soat. Kemalar necha soatdan keyin uchrashadi?

Yechish rejasi

- 1) 1 soatda kemalar bir-biriga qancha masofaga yaqinlashadilar?
- 2) Kemalar necha soatdan keyin uchrashadilar?

Masalaning yechimini ayting.

**454.** Oralaridagi masofa 44 km bo'lgan ikki shaharchadan bir vaqtda bir-birlariga qarab ikki velosipedchi

yo'lga chiqdi va 2 soatdan keyin uchrashdilar. Ulardan birining tezligi 12 km/soat. Ikkinchisining tezligini aniqlang.

Bunday hisoblashlarni bajarib, nimani bilib olasiz:

1 - u s u l	2 - u s u l
1) $12 \cdot 2 = \square$	1) $44 : 2 = \square$
2) $44 - 24 = \square$	2) $22 - 12 = \square$
3) $20 : 2 = \square$	

**455.** Bo'linmaning yozuvida nechta raqam hosil bo'lishi kerakligini oldindan aniqlang va bo'lishni bajaring:

$$\begin{array}{|l|l|l|l|} \hline 2\ 895 : 3 & 52\ 184 : 8 & 165\ 578 : 7 & 180\ 052 : 2 \\ \hline 1\ 434 : 6 & 46\ 185 : 5 & 368\ 356 : 4 & 477\ 189 : 9 \\ \hline \end{array}$$

**456.** Shaharda 2 400 ta mashinaga 2 ta taksomotor saroyi bor. Yana shunday 3 ta saroy qurilmoqda. Agar hamma saroylarda baravardan mashina bo'lsa, yangi saroylarga nechta mashina joylashtiriladi?

**457.**

$$\begin{array}{|l|l|l|} \hline 14\ 042 : 7 & 6 \cdot (2\ 001 - 948 + 137) & 6 \cdot 9 : 3 \\ \hline 27\ 522 : 9 & 9\ 800 - (560 - 496) \cdot 8 & 8 \cdot 8 : 4 \\ \hline \end{array}$$

**458.** 1) Bo'ri va quyon bir vaqtda bir nuqtadan qarama-qarshi tomonlarga yugurib ketdi. Agar bo'rining tezligi 60 km/soat, quyonning tezligi esa 50 km/soat bo'lsa, ular 1 soatda bir-birlaridan necha kilometr uzoqlashadilar?




2) Sayohat bazasidan bir vaqtda ikki sayyoh qarama-qarshi tomonga yo'lga chiqdi. Birinchi sayyoh soatiga 5 km, ikkinchisi 4 km tezlik bilan yurdi. 5 soatdan keyin ular orasidagi masofa necha kilometr ga teng bo'ladi?

Yechish rejasi

1) 1 soatdan keyin sayyohlar orasidagi masofa necha kilometr bo'ladi?

2) 5 soatdan keyin-chi?




**459.** Stansiyadan ikkita elektropoyezd bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi. Birinchi elektropoyezdning tezligi 80 km/soat, ikkinchisining tezligi undan 5 km/soat kam. 3 soatdan so'ng ular orasidagi masofa necha kilometr bo'ladi?

**460.** Qishloqdan shahar tomon piyoda yo'lga chiqdi va u bilan bir vaqtda shahardan qishloq tomon velosipedchi jo'nadi. Piyoda 4 km/soat tezlik bilan, velosipedchi esa 13 km/soat tezlik bilan yurdi. Ular ikki soatdan so'ng uchrashdilar. Qishloq bilan shahar orasidagi masofa qanday?

**461.**  $(48\ 096 : 8 + 204) \cdot 7$  |  $450\ 918 : (2 + 63 : 9)$   
 $(8\ 014 \cdot 3 - 18\ 030) : 6$  |  $34\ 805 : (8 - 27 : 9)$

**462.** Tenglamalarni yeching:

$16 \cdot x = 64$  |  $352 + x = 400$  |  $720 - x = 630$  |  $14 \cdot x = 0$   
 $90 : x = 18$  |  $x - 126 = 259$  |  $x : 12 = 8$  |  $x : 15 = 0$



**463.** Jadval bo'yicha qarama-qarshi yo'nalishli harakatga oid masala tuzing va uni yeching:




Tezlik	Vaqt	Masofa
45 km/soat	Bir vaqtda	90 km
13 km/soat		?




**464.**  $x \cdot 3 = 480$  |  $x : 2 = 480$  |  $150 : x = 3$


**465.** 1) Temiryo'l stansiyasidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita yuk poyezdi yo'lga chiqdi. Agar birinchi poyezd 50 km/soat va ikkinchi poyezd 40 km/soat tezlik bilan harakat qilsa, 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?



2) Temiryo'l stansiyasidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita yuk poyezdi yo'lga chiqdi. Agar birinchi poyezd 50 km/soat va ikkinchi poyezd 40 km/soat tezlik bilan harakat qilsa, necha soatdan keyin ular orasidagi masofa 270 km bo'ladi?



3) Temiryo'l stansiyasidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita yuk poyezdi yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa 270 km bo'ldi. Agar poyezdlardan biri 50 km/soat tezlik bilan harakat qilgan bo'lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.



**466.** Uyda ikki xona bo'lib, xonalardan birining bo'yi 5 m, eni 3 m, ikkinchisniki 4 m va 3 m. Agar 1 m<sup>2</sup> polga 100 g bo'yoq sarflansa, bu ikki xona polini bo'yash uchun qancha bo'yoq kerak bo'ladi?

**467.**  $24\ 708 \cdot 4 - 24\ 708 : 4 \mid (24\ 708 \cdot 4 - 24\ 708) : 4$



**468.** Sayyohlar 65 km/soat tezlik bilan 2 soat poyezdda, keyin esa 40 km/soat tezlik bilan teploxodda yurdilar. Shu vaqt ichida ular qancha masofani o'tganlar?



**469.**  $43\ m\ 08\ sm = \square\ sm$

$8\ min\ 7\ s = \square\ s$

$3\ soat\ 30\ min = \square\ min$

$3\ 844\ kg = \square\ t\ \square\ kg$

$784\ mm = \square\ sm\ \square\ mm$

$906\ sm = \square\ dm\ \square\ sm$

**470.** Bir manzildan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikki piyoda yo'lga chiqdi. Birining tezligi 4 km/soat, ikkinchisniki 5 km/soat. 2 soatdan so'ng piyodalar orasidagi masofa qancha bo'ladi?

$4 \cdot 2 + 5 \cdot 2 \quad \mid \quad (4 + 5) \cdot 2$


Yechishning ikkala usulini tushuntiring.

**471.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi bog'ning uzunligi 40 m, eni undan 10 m qisqa. Bog' maydonining uchdan bir qismini olma daraxtlari, qolgan qismini boshqa mevali daraxtlar egallagan. Boshqa mevali daraxtlar qancha maydonni egallagan?



**472.** Suv omborining oralaridagi masofa 33 km bo'lgan ikki qarama-qarshi qirg'og'idan bir vaqtda birbiriga tomon ikki qayiq suza boshladi. Birining






tezligi 5 km/soat, ikkinchisini 6 km/soat. Qayiq-  
lar necha soatdan keyin uchrashadi?

Yechish rejasi

1. Qayiqlarning yaqinlashish tezligi qanday?
  2. Qayiqlar necha soatdan keyin uchrashadilar?
- Masalaning yechimini yozing.

473. Qishloqdan shaharga qarab piyoda va u bilan bir vaqtda shahardan qishloqqa qarab velosipedchi yo'lga chiqdi. Qishloq bilan shahar orasidagi masofa 34 km. Piyoda bilan velosipedchi 2 soatdan keyin uchrashdi. Piyoda 4 km/soat tezlik bilan yurgan bo'lsa, velosipedchining tezligini toping.

474. To'g'ri to'rtburchakning yuzi va tomonlaridan biri ma'lum bo'lganda, ikkinchi tomoni qanday topilganligini tushuntiring:



$$x \cdot 6 = 60$$

$$x = 60 : 6$$

$$x = 10$$

J a v o b : 10 sm.

$$9 \cdot x = 45$$

$$x = 45 : 9$$

$$x = 5$$

J a v o b : 5 sm.



475. Ikkita silos yig'uvchi kombayn 4 soatda 448 t jo'xori ko'k massasi tayyorladi. Bitta shunday kombayn 5 soatda necha tonna jo'xori ko'k massasi tayyorlaydi?



476.  $81\ 147 : 3$     |     $245\ 351 - 245\ 351$     |     $597 : 597$

$$14\ 079 \cdot 8 \quad | \quad 308\ 479 + 56\ 814 \quad | \quad 0 : 6\ 349$$

$$19\ 251 : 9 \quad | \quad 24\ 906 + 28\ 408 \quad | \quad 7\ 184 \cdot 0$$



## Mustahkamlash uchun mashqlar

1.  $85 : 5$      $96 : 8$      $87 : 29$      $520 : 4$      $0 : 8$   
 $600 : 5$      $720 : 8$      $80 : 16$      $450 : 3$      $6 \cdot 1$
2. Qoldiqli bo'lishni bajaring:  
 $25 : 3$      $19 : 4$      $47 : 5$      $52 : 7$      $36 : 8$
3. 1) Biror sonni 4 ga bo'lganda qoldiqda 3 chiqishi mumkinmi? 7 ga bo'lganda qoldiqda 9 chiqishi mumkinmi? 10 ga bo'lganda qoldiqda 9 chiqishi mumkinmi?  
 2) 7 ga bo'lganda qoldiqda 1 qoladigan bir necha sonni ayting. Qoldiqda 4 qoladigan sonlarni ayting.
4.  $(136 + 164) : 6 \cdot 9 - 250$      $600 - (24 + 76) : 10 \cdot 1$
5.  $764 \cdot 8$      $3\ 708 \cdot 3$      $14\ 007 \cdot 5$      $7 \cdot (3\ 147 + 5\ 083)$
6. 609 ni 3 marta orttiring va ko'paytmani 7 003 ta orttiring.
7.  $848 : 4$      $603 : 3$      $436 : 4$      $749 : 7$      $880 : 8$
8.  $8\ 577 : 3$      $8\ 696 : 4$      $2\ 352 : 3$      $4\ 825 : 5$   
 $9\ 852 : 6$      $7\ 966 : 7$      $1\ 592 : 4$      $5\ 874 : 6$
9.  $172\ 942 : 2$      $816 : 4$      $900\ 498 : 6$   
 $748\ 915 : 5$      $97\ 200 : 20$      $756\ 720 : 8$
10. Hisoblang va tekshiring:  
 $4\ 607 + 72\ 538$      $9\ 407 \cdot 6$      $60\ 203 - 7\ 836$      $5\ 742 : 9$
11. Tenglamalarni yeching:  
 $x \cdot 9 = 3\ 168$      $6 \cdot x = 5\ 604$      $x : 7 = 135$      $4\ 816 : x = 8$
12. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang:  
 1) 1 608 va 4 sonlarining bo'linmasini 2 marta orttiring.  
 2) 8 127 va 6 sonlarining ko'paytmasini 3 ga bo'ling.  
 3) 20 100 dan 14 515 bilan 5 ning bo'linmasini ayiring.  
 4) 7 240 ga 6 070 va 8 sonlarining ko'paytmasini qo'shing.

- 13.** Yosh tabiatshunoslar bir maydondan 473 kg, ikkinchisidan unga qaraganda 3 marta ko'p piyoz yig'ishtirib oldilar. Yosh tabiatshunoslar birinchi maydondan ikkinchisiga qaraganda qancha kam piyoz yig'ishtirib olganlar?
- 14.** Omborda 5 sr 04 kg shakar 9 ta bir xil qopda saqlanardi. Shundan 5 qopi do'konga jo'natildi. Do'konga necha kilogramm shakar jo'natilgan?
- 15.** Yechish rejasiga ko'ra masala tuzing:  
 1) Bitta qog'oz xaltada necha kilogramm olma bor?  
 2) 4 ta shunday xaltada necha kilogramm olma bor?
- 16.** 28 m uzunlikdagi arqonning to'rttdan bir qismi qirqib olindi. Arqonning qolgan qismi qirqib olinganidan necha marta ortiq?
- 17.** Jadvaldan foydalanib masala tuzing va uni yeching:

	Bir uydagi xonadonlar soni	Uylar soni	Hamma xonadonlar soni
4 qavatli uylar	?	5 uy	] 540
9 qavatli uylar	100 xonadon	3 uy	

Masalaga «Hammasi bo'lib nechta xonadon bor?» savolini qo'ying va teskari masala tuzing.

**18.**

<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>	<i>d</i>
5 634	8 172	9 540	7 182
1 206	3 204	2 070	1 080
8 967	7 038	8 325	4 653

Jadvaldan foydalanib quyidagi ifodalarning qiymatlarini toping:  $a + b$ ,  $c - d$ ,  $10\,000 - c$ ,  $a : 3$ ,  $b : 6$ ,  $d : 9$ .

- 19.** Fermer xo'jaligi davlatga 930 t sabzavot sotdi. Sabzavotlarning yarmi kartoshka. Karam esa kartoshkadan 187 t kam, qolgani – sabzi. Davlatga necha tonna sabzi sotilgan?
- 20.** Uch qizchada 7 ta o'yinchoq bor. Qizchalarning har biri turli miqdorda o'yinchoqlarga ega. Bir qizchaning o'zida 4 ta o'yinchoq bo'lishi mumkinmi? 5 ta-chi?



## Kasrlar

477. 1, 2, 3, 4, ..., 100, ..., 1 000, ..., 1 000 000, ... – bular natural sonlar. Ixtiyoriy ikki xonali (uch xonali, to‘rt xonali, besh xonali) natural sonni ayting.

478. 4 ta shokolad sotib olindi va ikkita bolaga baravardan bo‘lib berildi. Har bir bolaga qanchadan shokolad tegdi?

Bu masalani qanday amal bilan yechasiz? Nega?

479. 1) Ikki opa-singil 1 ta shokoladni teng bo‘lib olishdi.



Har bir qizga qanchadan tegdi? Bu masalani qanday amal bilan yechasiz? Nega yana

bo‘lish amali bilan? Amalni yozing.

Yozuvingizni tekshiring:  $1 : 2$

2) Bunday bo‘lishda natural son hosil qila olasizmi? Har bir qizga shokoladning qanchasi tegadi?

Har bir qizga shokoladning yarmi tegishini sezdingizmi?

Yarmi so‘zining o‘rniga **ikkidan biri** deyish mumkin.

**Ikkidan bir – kasr son.**


3) Natural son nimani bildiradi? Kasr son nimani bildiradi?

480. Rasmlarga qarang:



Olma nechta teng bo'lakka bo'lingan? Patir-chi? Olmaning bir qismi nima deb ataladi? Patirning bir qismi-chi? Bular – kasr sonlardir.

Kasr sonni ikki natural son yordamida, chiziqcha bilan ajratilgan holda,  $\frac{a}{b}$  ko'rinishida yoziladi. Bunday yozuv **kasr** deb ataladi.



Har bir doira nechta teng bo'lakka bo'lingan? Doiraning nechta sakkizdan biri bo'yalgan? Nechta beshdan biri bo'yalgan? Nechta uchdan biri bo'yalgan? Qanchasi bo'yalmagan?

$\frac{3}{8}$ ,  $\frac{2}{3}$ ,  $\frac{4}{5}$  – bular ham **kasrlar**.

Chiziqcha **kasr chizig'i** deyiladi. Kasr chizig'ining **ostidagi** son narsaning nechta bo'lakka bo'linganini ko'rsatadi. Bu son kasrning **maxraji** deyiladi. Kasr chizig'ining **ustida** turgan son narsaning nechta bo'lagi olinganini ko'rsatadi. Bu son kasrning **surati** deb ataladi.  $\frac{3}{8}$  kasrda 8 – maxraj, 3 esa suratdir.

3) Kasrlarning maxraji va suratlarini ayting:  $\frac{1}{2}$ ,  $\frac{1}{4}$ ,  $\frac{2}{3}$ ,  $\frac{4}{5}$ .  
 Har bir kasrda maxraj nimani ko'rsatadi? Surat nimani ko'rsatadi?  $\frac{3}{8}$  kasri quyidagicha o'qiladi: **sakkizdan uch**.  
 Qolgan kasrlarni o'qing.

**481.** Ifodalarni belgi va ishoralar yordamida yozing va ularning qiymatini toping:

1) 7 km 308 m va 9 sonlarining bo'linmasini 2 ga bo'lish;

2) 8 kg 480 g va 8 sonlarining bo'linmasini 3 ga ko'paytirish.

Namuna:  $(3\ 544\ \text{m}\ 66\ \text{sm} : 7) : 2 = 253\ \text{m}\ 19\ \text{sm}$

$3\ 544\ \text{m}\ 66\ \text{sm} = 354\ 466\ \text{sm}$

$$\begin{array}{r} \underline{354\ 466} \quad | \quad \underline{7} \\ \underline{35} \phantom{000} \quad | \quad \underline{50\ 638} \\ \phantom{0} \underline{44} \\ \phantom{0} \phantom{0} \underline{42} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{26} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{21} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{56} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{56} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \underline{50\ 638} \quad | \quad \underline{2} \\ \underline{4} \phantom{000} \quad | \quad \underline{25\ 319} \\ \phantom{0} \underline{10} \\ \phantom{0} \phantom{0} \underline{10} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{6} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{6} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{3} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{2} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{18} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \underline{18} \\ \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} \phantom{0} 0 \end{array}$$

$25\ 319\ \text{sm} = 253\ \text{m}\ 19\ \text{sm}$



**482.** Tenglamalarni yeching:

$54 \cdot x + 96 = 304$      |      $780 : (x - 7) = 78$

Namuna:  $(139 - x) : 8 = 14$       $(139 - 27) : 8 = 14$

$139 - x = 14 \cdot 8$

$112 : 8 = 14$

$139 - x = 112$

$14 = 14$

$x = 139 - 112$

$x = 27$




483.  $3\ 725 : 5$  |  $61\ 376 : 8$  |  $108\ 120 : 4$



484. Geologlar 144 km yo'l yurishdi. Ular dastlab 60 km/soat tezlik bilan 2 soat mashinada yurishdi, keyin qolgan yo'lni 6 km/soat tezlik bilan otda bosib o'tishdi. Ular qancha vaqt otda yurishgan?

485. Rasmda kvadratlarda bir nechta teng bo'laklarga bo'lingan. Bu bo'laklardan qaysi biri eng katta? Eng kichik? Har bir shtrixlangan qismni kasr ko'rinishida ifodalang. Bu kasrlarni eng kichigidan boshlab eng kattasigacha ayting.



486. 1) To'g'ri to'rtburchakning qanday qismi bo'yalganini kasr bilan yozing. Kasrning surati nima-ni bildiradi, kasrning maxraji-chi?



2) Kesma chizing. Uni 6 ta teng bo'lakka bo'ling. Kesmaning  $\frac{1}{6}$  bo'lagini,  $\frac{5}{6}$ ,  $\frac{3}{6}$ ,  $\frac{2}{6}$ ,  $\frac{6}{6}$  bo'lagini ko'rsating. Kasrning surati nimani ko'rsatadi? Maxraji-chi?




487. Birinchi marta 5 ta bir xil kitob, ikkinchi marta 3 ta shunday kitob sotib olindi. Hamma kitob uchun 720 so'm to'landi. Birinchi marta sotib olingan kitob qancha turadi? Ikkinchi marta sotib olingani-chi?


**488.** Qopda 48 kg sabzi bor edi. 4 kun har gal baravardan sabzi olinganidan so'ng qopda 32 kg sabzi qoldi. Har kuni qopdan necha kilogrammdan sabzi olingan?

**489.**  $37\ 009 - 1\ 108 \cdot 8 + 4\ 508$  |  $2\ t : 8\ kg$

**490.**



Uchlaridan biri A nuqta bo'lgan ko'pburchaklarni ayting.



**491.** Tenglamalarni yeching:

$654 + x = 810$  |  $720 - x = 426$  |  $35 \cdot x = 0$  |  $x : 27 = 0$



**492.** Hisoblang:

$21\ 024 : 6 \cdot 8 + 845 - 16\ 573$

**493.** Chizmani qarab chiqing. Bu yerda to'g'ri to'rtburchaklar nechta? Butun to'g'ri to'rtburchakni ko'rsating. Ikkinchi to'g'ri to'rtburchak nechta teng bo'lakka bo'lingan? Uchinchisi-chi? To'rtinchisi-chi?

1							
$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$	$\frac{1}{4}$
$\frac{1}{2}$				$\frac{1}{2}$			
$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{1}{8}$


Butun to'g'ri to'rtburchakda nechta yarim bor? Nechta to'rtdan bir ulush bor? Yarimda nechta to'rtdan bir ulush bor? Butun to'g'ri

to'rtburchakda nechta sakkizdan bir ulush bor? Yarimda nechta sakkizdan bir ulush bor? To'rtdan bir bo'lakda nechta sakkizdan bir ulush bor?





**494.** Yuqoridagi chizmadan foydalanib shunday sonlarni topingki, ularni kvadratlar o'rniga qo'yganda tengliklar to'g'ri bo'lsin:

  $\frac{1}{2} = \frac{\square}{4}; \frac{1}{2} = \frac{\square}{8}; \frac{1}{4} = \frac{\square}{8}; \frac{2}{4} = \frac{\square}{8}; \frac{3}{4} = \frac{\square}{8}; \frac{2}{8} = \frac{\square}{4};$   
 $\frac{4}{8} = \frac{\square}{4}; \frac{6}{8} = \frac{\square}{4}; \frac{8}{8} = \frac{\square}{4}.$

**495.** Chizmadan foydalanib kasrlarni taqqoslang:

$\frac{3}{8}$  va  $\frac{7}{8}; \frac{1}{2}$  va  $\frac{2}{4}; \frac{1}{4}$  va  $\frac{2}{8}; \frac{1}{2}$  va  $\frac{4}{8}.$

**496.** Do'konda 360 m gazlama bor. Birinchi kuni gazlamaning to'rttdan bir qismi, ikkinchi kuni qolgan gazlamaning beshdan bir qismi sotildi. Ikkinchi kuni gazlamaning necha metri sotildi?

Yechish rejası

- 1) Birinchi kuni necha metr gazlama sotildi?
- 2) Necha metr qoldi?
- 3) Ikkinchi kuni necha metr gazlama sotildi?

**497.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi bog'ning uzunligi 20 m, eni 10 m. Bog' maydonining yarmini nok daraxtlari egallagan. Nok daraxtlari egallagan maydon yuzini aniqlang.

**498.**  $2\ 148 \cdot 2 + 3\ 760 \cdot 5 - 14\ 998 \quad | \quad 32\ t\ 8\ sr : 4sr$




**499.** To'g'ri to'rtburchakning perimetri 36 sm, tomonlaridan birining uzunligi 12 sm. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.



**500.** Hisoblang:

$17\ 600 : 4$	$5\ 75 \cdot 5$	$(63\ 144 - 7\ 191) : 3$
$17\ 600 \cdot 4$	$575 : 5$	$63\ 144 - 7\ 191 : 3$

**501.** 1) Butun to'g'ri to'rtburchakda nechta yarim




joylashadi? Unda nechta uchdan bir, to'rttdan bir, beshdan bir, oltidan bir, sakkizdan bir, o'ndan bir ulush bor?

2) Rasmdan foydalanib kasrlarni taqqoslang:

$$\frac{1}{2} \text{ va } \frac{1}{3}; \quad \frac{1}{5} \text{ va } \frac{1}{2}; \quad \frac{1}{8} \text{ va } \frac{1}{10};$$

$$\frac{1}{4} \text{ va } \frac{1}{3}.$$

**502.** 1) Butun doirada to'rttdan bir ulushdan to'rtta



bor. Bu bunday yoziladi:  $1 = \frac{4}{4}$ .

2)  $1 = \frac{6}{6}$ ;  $1 = \frac{3}{3}$  yozuvlarni qanday tushunasiz?

Buni kesmalarda ko'rsating.

**503.** Ikki qiz bir xil bahoda 8 ta daftar sotib olishdi. Ulardan biri 240 so'm, ikkinchisi 80 so'm to'ladi. Har qaysi qiz nechtadan daftar sotib olgan?

**504.** Xo'jalikda 120 sr xashak tayyorlandi. Sigirlar uchun hamma xashakning  $\frac{1}{3}$  qismi, otlar uchun  $\frac{1}{10}$  qismi, qolgani qo'ylar uchun ajratildi. Qo'ylar uchun qancha xashak ajratilgan?

**505.**  $8\ 320 : 10 - 9\ 800 : 100 - 475 \mid 25\ \text{km}\ 350\ \text{m} : 5\ \text{m}$




**506.** Dam olish uyi uchun 2 ta televizor va 4 ta radio-priyomnik sotib olindi. Hammasi uchun 242 000

so'm to'landi. Bitta televizor 97 000 so'm tura-  
di. Bitta radiopriyomnik qancha turadi?



**507.**  $9\ 876 : 4$  |  $50\ 216 : 8$  |  $(20\ 100 - 8\ 709) \cdot 9$   
 $9\ 583 : 7$  |  $20\ 364 : 3$  |  $100\ 040 - 3\ 805 \cdot 8$

**508.** 8 sm uzunlikda kesma chizing. Bu kesmaning  $\frac{3}{4}$  qismida necha santimetr bor?



1) Oldin bu kesmaning  $\frac{1}{4}$  qismida necha santimetr borligini topamiz:  $8 : 4 = 2$  (sm).

2) Kesmaning  $\frac{3}{4}$  qismida necha santimetr borligini topamiz:  $2 \cdot 3 = 6$  (sm).

3) Yechimini to'liq yozing:  $8 : 4 \cdot 3 = 6$  (sm).

J a v o b :  $AB$  kesmaning  $\frac{3}{4}$  qismi 6 sm ga teng.

**509.** Uzunligi 10 sm bo'lgan  $CD$  kesma chizing.  $CD$  kesmaning  $\frac{4}{5}$  qismiga teng bo'lgan  $MK$  kesmani chizing.

$MK$  kesmaning uzunligi nimaga teng?

Daftar 12 betli. Bir qiz shu daftar betlarining  $\frac{5}{6}$  qismini yozib to'ldirdi. Yozilmagan necha bet qoldi?

Yechilishi:

1)  $12 : 6 \cdot 5 = 10$  (bet)      2)  $12 - 10 = 2$  (bet)

Har bir amal bilan nimani bilib olganingizni tushuntiring.

**511.** 1) 71 235 sonining  $\frac{5}{9}$  qismini toping.

Yechilishi:  $71\,235 : 9 \cdot 5 = 39\,575$

$$\begin{array}{r} \text{— } 71\,235 \mid 9 \\ \text{— } 63 \phantom{00} \\ \hline \phantom{— } 82 \phantom{00} \\ \text{— } 81 \phantom{00} \\ \hline \phantom{— } 13 \phantom{00} \\ \phantom{— } 9 \phantom{00} \\ \hline \phantom{— } 45 \phantom{00} \\ \phantom{— } 45 \phantom{00} \\ \hline \phantom{— } 0 \phantom{00} \end{array} \qquad \begin{array}{r} \phantom{\times} 7\,915 \\ \phantom{\times} \phantom{00} 5 \\ \hline \phantom{\times} 39\,575 \end{array}$$




2) 67 809 sonining  $\frac{3}{7}$  qismini toping.

**512.** Velosipedchi tushgacha 3 soat, tushdan keyin 2 soat yo'lda bo'ldi. U tushgacha 42 km yo'l yurdi. Agar velosipedchi tushdan keyin tezligini 2 km oshirgan bo'lsa, u hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurgan?

**513.**  $13\,048 : 4 \cdot 2 - 756 - 2\,875$  |  $46\,949 : 7$



**514.** Tikuv fabrikasida 3 kun kuniga 112 tadan ko'y-lak tikildi. Keyingi 5 kunning har birida 126 ta-dan ko'y-lak tikildi. Hammasi bo'lib nechta ko'y-lak tikildi?



**515.** Misollarni yeching, yechimning to'g'riligini ko'-paytirish bilan tekshiring:

●  $14\,812 : 4$  |  $351\,540 : 7$

**516.** Onam nonushta uchun 8 ta teng bo'lakka bo'lin-



gan tort qo'ydilar. Akam 2 bo'lagini, singlim esa 1 bo'lagini yedi.

1) Tortning qanday qismini akam, qanday qismini singlim yedi?

2) Akam bilan singlim birgalikda tortning qanday qismini yeyishgan?

Bu masalani qanday amal bilan yechish kerak?

3) Bu kasrlarni qo'shib, quyidagini hosil qilamiz:  $\frac{2}{8} + \frac{1}{8} = \frac{3}{8}$ .

Bu son qanday hosil qilindi? Bir xil maxrajli kasrlar yig'indisining qiymati qanday qoida bo'yicha topiladi?




**Yodingizda tuting!** Bir xil maxrajli kasrlarni qo'shish uchun ularning suratlarini qo'shib, maxrajini o'zgartirmay yoziladi.

**517.** Hisoblang:  $\frac{3}{5} + \frac{1}{5}$ ;  $\frac{4}{9} + \frac{2}{9}$ ;  $\frac{1}{16} + \frac{10}{16}$ .

**518.** Mavsumda qo'ychilik fermasida qo'ylardan 1 250 kg qora jun va undan 352 kg ko'p oq jun qirqib olindi. Hamma junlarning to'rttdan bir qismi soliqlarni to'lash uchun sarflandi. Soliqlarni to'lash uchun necha kilogramm jun ajratilgan?

**519.**  $20\ 384 : 8 + 33\ 336 : 9$  |  $4\ t\ 320\ kg : 5 \cdot 9$   
 $80\ 105 : 5 - 61\ 002 : 9$  |  $12\ km\ 375\ m \cdot 6 : 9$

**520.** 1)  $C$  burchakni o'z ichiga olgan hamma uchburchaklarni yozing.



2)  $BCD$  va  $BKD$  uchburchaklar uchun umumiy bo'lgan tomonni yozing.



**521.** Kasrlarni kamayib borish tartibida yozing:

$\frac{2}{9}$ ;  $\frac{4}{9}$ ;  $\frac{1}{9}$ ;  $\frac{8}{9}$ ;  $\frac{6}{9}$ ;  $\frac{3}{9}$ ;  $\frac{5}{9}$ ;  $\frac{7}{9}$ .



**522.** 10 sm uzunlikda  $AB$  kesma chizing.  $AB$  kesmaning  $\frac{2}{5}$  qismiga teng bo'lgan  $CD$  kesmani chizing.

**523.** 1) Masalaning yechilishini tushuntiring.

24 m 50 sm gazlama 7 ta teng bo'lakka qirqilgan. Besh bo'lakda qancha gazlama bor?

Yechilishi:

a)  $24\text{ m } 50\text{ sm} : 7 = 3\text{ m } 50\text{ sm}$  (bir bo'lakda)



$$\begin{array}{r|l} 2450 & 7 \\ \hline 21 & 350 \\ \hline 35 & \\ - 35 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

b)  $3\text{ m } 50\text{ sm} \cdot 5 = 17\text{ m } 50\text{ sm}$  (besh bo'lakda)

$$\begin{array}{r} \times 350 \\ 5 \\ \hline 1750 \end{array}$$

2) Masalani yeching.

Ikki aravaning har birida 2 sr 94 kg dan don keltirildi. Hamma donni 6 ta qopga teng qilib solindi. Har bir qopga necha kilogrammdan don sig'di?

**524.** Masalalarni yeching, ularning shartlarini va yechilishini taqqoslang.

1) Do'konda bir kunda 8 banka olcha murabbosini va shunday 10 banka olma murabbosini sotildi, bunda olma murabbosini olcha murabbosiga qaraganda 4 kg ortiq sotildi. Bir kunda har qaysi murabbodan necha kilogramm sotilgan?

2) Do'konda bir kunda 16 kg olcha murabbosini va 20 kg olma murabbosini sotildi, bunda olma murabbosini olcha murabbosiga qaraganda 2 banka ortiq sotildi. Agar bankalar bir xil bo'lsa, har qaysi murabbodan necha banka sotilgan?

525. Kasrlarni qo'shing:

$$\frac{1}{4} + \frac{1}{4} \quad \left| \quad \frac{2}{5} + \frac{1}{5} \quad \left| \quad \frac{3}{6} + \frac{5}{6} \quad \left| \quad \frac{2}{10} + \frac{4}{10} \quad \left| \quad \frac{5}{9} + \frac{3}{9} \quad \left| \quad \frac{1}{7} + \frac{4}{7} \right.\right.\right.$$

526.  $7 \text{ dm } 8 \text{ sm} : 3 \cdot 2$

527. Toping: 12 ning  $\frac{3}{4}$  qismini; 5 999 ning  $\frac{3}{7}$  qismini; 67 572 ning  $\frac{8}{9}$  qismini.



528. Velosipedchi 3 soat yo'l yurganidan keyin, yana 48 km yo'l yurishi kerak. Agar hamma yo'l 84 km bo'lsa, u qanday tezlik bilan yurgan?



529.  $204\ 012 : 6 \quad | \quad 7 \cdot 27\ 004 \quad | \quad 361\ 809 : 3 \quad | \quad 9 \cdot 12\ 030$

530.



1) Tarvuzni 4 ta teng bo'lakka bo'lindi. Bir qismini singlimga qoldirishdi. Uch qismdan ikkitasini tushlikda yeyildi. Tarvuzning yana qanday qismi qoldi?

Yechilishi: 1)  $\frac{4}{4} - \frac{1}{4} = \frac{3}{4}$ ; 2)  $\frac{3}{4} - \frac{2}{4} = \frac{1}{4}$

Bu kasr son qanday hosil qilindi?

Bir xil maxrajli kasrlarning ayirmasi qanday qoidaga ko'ra topiladi?



**Yodingizda tuting!** Bir xil maxrajli kasrlarning ayirmasini topish uchun kamayuvchining suratidan ayriluvchining suratini ayirib, maxrajini o'zini yozib qo'yiladi.

2) Bir xil maxrajli kasrlarning ayirmasini topishga doir 4 ta misol yozing va ularning qiymatlarini toping.

**531.** Bir do'konga 18 yashik, ikkinchisiga shunday 15 yashik sabzavot keltirildi. Ikkinchi do'konga birinчисiga qaraganda 24 kg kam sabzavot keltirildi. Har qaysi do'konga necha kilogrammdan sabzavot keltirilgan?

**532.** Farg'ona va Qo'qon shaharlari orasidagi masofa 170 km. Bu shaharlardan bir-birlariga qarab bir vaqtda ikki mototsiklchi yo'lga chiqdi. Birinchi mototsiklchi butun yo'lning  $\frac{9}{17}$  qismini, ikkinchisi  $\frac{2}{10}$  qismini bosib o'tdi. Shu vaqtda ular uchrashadimi?

Agar uchrashmasa, ular shu vaqtda bir-birlaridan qanday masofada bo'lganlar?

$$\begin{array}{l|l} \mathbf{533.} & 36\ 016 : 2 + 50\ 045 : 5 & 8\ 016 : 8 - 816 : 8 \\ & 1\ 327 \cdot 4 + 1\ 027 \cdot 6 & 407 \cdot 5 - 9\ 018 : 9 \end{array}$$

**534.** Agar  $a = 884$  bo'lsa,  $(a \cdot 9 - a : 2) \cdot 3$  ifodaning qiymatini toping.

**535.** Kasrlarni o'qing va ular qanday hosil qilinganini tushuntiring.



**536.** Bir egatdan 3 qop kartoshka, ikkinchi egatdan shunday 4 qop kartoshka olindi. Hamma kartoshkaning massasi 315 kg. Har qaysi egatdan necha kilogrammdan kartoshka olingan?






$$537. \quad 1\ 307 \cdot 2 \quad | \quad 37\ 206 : 3 \quad | \quad 6\ 010 \cdot 8 \quad | \quad 2\ 418 : 6$$

$$20\ 418 \cdot 3 \quad | \quad 672 : 3 \quad | \quad 6\ 408 : 2 \quad | \quad 6\ 008 \cdot 3$$

## Nollar bilan tugaydigan sonlarga ko'paytirish

538. Nechta apelsin borligini aniqlanishini har xil usullardan foydalanib tushuntirib bering:



$$3 \cdot (4 \cdot 2) = 24$$

$$(3 \cdot 4) \cdot 2 = 24$$

$$(3 \cdot 2) \cdot 4 = 24$$

Sonni ko'paytmaga ko'paytirishni har xil usullar bilan bajarish mumkin:

$$1) 7 \cdot (8 \cdot 5) = 7 \cdot 40 = 280$$

Ko'paytmani hisoblash va uni songa ko'paytirish.

$$2) 7 \cdot (8 \cdot 5) = (7 \cdot 8) \cdot 5 = 56 \cdot 5 = 280$$

Sonni birinchi ko'paytuvchiga ko'paytirish va natijani ikkinchi ko'paytuvchiga ko'paytirish.

$$3) 7 \cdot (8 \cdot 5) = (7 \cdot 5) \cdot 8 = 35 \cdot 8 = 280$$

Sonni ikkinchi ko'paytuvchiga ko'paytirish va natijani birinchi ko'paytuvchiga ko'paytirish.

539. 1) Hisoblang:

$$6 \cdot (5 \cdot 4) = 6 \cdot 20 = \square$$

$$6 \cdot (5 \cdot 4) = (6 \cdot 5) \cdot 4 = \square$$

$$6 \cdot (5 \cdot 4) = (6 \cdot 4) \cdot 5 = \square$$

2) Misollarda nima uchun bir xil natija hosil bo'lganligini tushuntiring.

540. Natijani qulay usul bilan hisoblang:

$$17 \cdot (10 \cdot 2)$$

$$25 \cdot (2 \cdot 4)$$

$$14 \cdot (3 \cdot 5)$$

541. Bir chevar kuniga 12 ta dastro'molcha tikadi.


4 ta chevar 5 kunda nechta dastro'molcha tikadi?


542. Ikki shahardan bir-biriga qarab bir vaqtda ikki

velosipedchi yo'lga chiqdi. Uchrashguncha birin-  
chisi 24 km, ikkinchisi esa 2 marta ko'p masofani  
bosib o'tdi.

Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?

- 1)  $24 \cdot 2$                       2)  $24 \cdot 2 + 24$                       3)  $24 \cdot 2 - 24$

 **543.** Sutchi ayol har birida 3 litrdan 3 banka sut sot-  
di. Agar 1 litr sut 138 so'm tursa, bankalardagi  
hamma sut necha so'm turadi?

 **544.**  $243\ 600 : 7$                       |                       $1\ 804 \cdot 2 \cdot 10 + 8\ 631$   
●  $114300 : 6$                       |                       $320 \cdot 4 \cdot 100 - 29\ 075$



**545.** Hisoblash usulini tushuntiring:

$$19 \cdot 40 = 19 \cdot (4 \cdot 10) = (19 \cdot 4) \cdot 10 = 76 \cdot 10 = 760$$

$$24 \cdot 15 = 24 \cdot (5 \cdot 3) = (24 \cdot 5) \cdot 3 = 120 \cdot 3 = 360$$



$$24 \cdot 15 = 24 \cdot (5 + 10) = 24 \cdot 5 + 24 \cdot 10 = 120 + 240 = 360$$

**546.** Yechishni tugallang va hisoblash usullarini taq-  
qoslang:

  $14 \cdot 50 = 14 \cdot (5 \cdot 10) = \square$                       |                       $16 \cdot 18 = 16 \cdot (10 + 8) = \square$   
  $14 \cdot 12 = 14 \cdot (10 + 2) = \square$                       |                       $16 \cdot 80 = 16 \cdot (8 \cdot 10) = \square$

**547.** 546-mashqdagi hisoblash usullaridan foydalanib  
quyidagi misollarni yeching:

$12 \cdot 20$	$12 \cdot 15$	$14 \cdot 60$	$14 \cdot 17$
$16 \cdot 50$	$34 \cdot 14$	$25 \cdot 19$	$13 \cdot 30$

 **548.** O'quvchilar 94 ta archa o'yinchog'i yasadilar.  
 Shulardan 32 tasi bayroqchalar, yulduzchalar esa  
undan 9 ta kam, qolganlari qor parchalari. Bo-  
lalar nechta qor parchasi yasashgan?

**549.** Bir olmaning massasi 100 g bo'lib, u ikkinchi ol-  
maning massasidan 3 marta kam. Ikkala olma-  
ning massasini toping.

**550.** Xo'jalikka 320 l benzin keltirildi. Birinchi kuni benzinning  $\frac{3}{8}$  qismi, ikkinchi kuni  $\frac{2}{5}$  qismi ishlatildi. Ikki kunda qancha benzin ishlatildi?

Yechilishi:

1)  $320 : 8 \cdot 3 = 120$  (l)

$320 : 8 = 40, 40 \cdot 3 = 120$

2)  $320 : 5 \cdot 2 = 128$  (l)



$$\begin{array}{r} \underline{320} \quad | \quad \begin{array}{l} 5 \\ \hline 64 \end{array} \\ \underline{30} \quad | \\ \underline{20} \\ \underline{20} \\ 0 \end{array} \quad \times \begin{array}{r} 64 \\ \hline 2 \\ \hline 128 \end{array}$$

3)  $120 + 128 = 248$  (l)

Masalaning yechilishini tushuntiring.

**551.** Hisoblang:

$75 \text{ m } 24 \text{ sm} : 9$

$6 \text{ so'm} : 5 \text{ tiyin}$

$6 \text{ kg } 375 \text{ g} : 5$

$70 \text{ dm} : 2 \text{ sm}$



**552.** 127 432 va 93 599 sonlarining yig'indisi va ayirmasini toping.



**553.** «Doiraviy» misollarni yeching:



$605 + 29\,897$

$30\,502 - 13\,478$

$5\,445 : 9$

$17\,024 \cdot 6$

$34\,048 - 28\,603$

$102\,144 : 3$



«Shokolad» konfetining donasi shartli ravishda 4 «jeton», «Ayiqcha» konfetining donasi esa 2 «jeton» turadi. Bolada 10 «jeton» bor, u konfetlarning har biridan tatib ko'rmoqchi va iloji boricha ko'p konfet olmoqchi. Bola qanday yo'l tutishi kerak?

**554.** Ko'paytirish usulini tushuntiring:

$$425 \cdot 40 = 425 \cdot (4 \cdot 10) = 425 \cdot 4 \cdot 10 = 17\,000$$

$$547 \cdot 800 = 547 \cdot (8 \cdot 100) = 547 \cdot 8 \cdot 100 = 437\,600$$

Yechishni quyidagicha yozish mumkin:



	×	4	2	5					×	5	4	7	
												8	0
												0	0
												4	3
												7	6
												0	0
												1	7
												0	0
												0	0

**555.**  $526 \cdot 50$  |  $659 \cdot 70$  |  $3\,042 \cdot 200$  |  $2\,307 \cdot 400$   
 $384 \cdot 30$  |  $291 \cdot 90$  |  $2\,709 \cdot 300$  |  $4\,122 \cdot 200$


**556.** Kvadrat detsimetrlarda ifodalang:


$$1\text{ m}^2 \quad | \quad 2\text{ m}^2 \, 15\text{ dm}^2 \quad | \quad 800\text{ sm}^2 \quad | \quad 10\,000\text{ mm}^2$$

**557.** Kutubxonaga yangi kitoblar keltirildi. Kutubxonachi 3 ta tokchaga 45 tadan kitob qo'yganidan keyin yana 80 ta kitob qoldi. Kutubxonaga nechta kitob keltirildi?

**558.** Maktab bog'ida o'quvchilar 4 kun 80 tupdan va 3 kun 100 tupdan daraxt ko'chati o'tqazishdi. O'quvchilar ikki kunda hammasi bo'lib nechta tup daraxt ko'chati o'tqazishdi.

**559.** 12 348 sonining  $\frac{5}{9}$  qismini, 8 105 sonining  $\frac{3}{5}$  qismini toping.

 **560.**  $605 \cdot 30$  |  $7\,043 \cdot 70$  |  $806 \cdot 200$  |  $1\,487 \cdot 40$   
 $328 \cdot 90$  |  $694 \cdot 600$  |  $456 \cdot 500$  |  $6\,391 \cdot 20$

 **561.** Yuзи 56 sm<sup>2</sup> va bir tomonining uzunligi 8 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.

**562.** Yechishni tushuntiring:

$$\begin{aligned}
 1) \quad 60 \cdot 70 &= \\
 &= 4 \text{ o'nl.} \cdot (7 \cdot 10) = \\
 &= (4 \text{ o'nl.} \cdot 7) \cdot 10 = \\
 &= 28 \text{ o'nl.} \cdot 10 = \\
 &= 280 \text{ o'nl.} = 2\ 800
 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 2) \quad 800 \cdot 500 &= \\
 &= 8 \text{ yuz} \cdot (5 \cdot 100) = \\
 &= (8 \text{ yuz} \cdot 5) \cdot 100 = \\
 &= 40 \text{ yuz} \cdot 100 = \\
 &= 4\ 000 \text{ yuz} = 400\ 000
 \end{aligned}$$

Nol bilan tugaydigan ko'p xonali sonlar quyidagicha ko'paytiriladi:




$$\begin{array}{|l}
 563. \quad 4\ 800 \cdot 40 \qquad | \qquad 1\ 840 \cdot 30 \qquad | \qquad 2\ 040 \cdot 400 \\
 3\ 500 \cdot 60 \qquad | \qquad 5\ 010 \cdot 90 \qquad | \qquad 3\ 090 \cdot 200
 \end{array}$$

564. Og'zaki hisoblang, faqat javobni yozing:


$400 \cdot 30$	$250 \cdot 200$	$400 \cdot 600$	$7\ 000 \cdot 40$
$90 \cdot 200$	$60 \cdot 900$	$300 \cdot 700$	$50 \cdot 2\ 000$

565. Qayerda sharbat ko'p – 3 ta 5 l li bankadami yoki 4 ta 3 l li bankadami? Necha litr ko'p?


566. Kinoteatr katta zalining har birida 28 o'rindiqdan 30 qator, kichik zalining har birida 18 o'rindiqdan 20 qator bor. Kinoteatrning ikkala zalida hammasi bo'lib nechta o'rindiq bor?

567. Sayohatchilar uch kunda 120 km yo'l yurdilar. Birinchi kuni hamma yo'lning  $\frac{2}{6}$  qismini, ikkinchi kuni esa hamma yo'lning  $\frac{4}{8}$  qismini yurdilar. Uchinchi kuni sayohatchilar necha kilometr yo'l yurganlar?

$$568. \quad 6\ 845 + 34 \cdot (91 - 89) \quad | \quad 10\ 332 : 4 + 36\ 846 : 9$$

 **569.** Tenglamalarni yeching:

$$\begin{array}{l|l} 760 - x = 312 & x : 10 = 230 \\ x \cdot 10 = 450 & 670 : x = 670 \end{array}$$

 **570.** Yeching va natijani tekshiring:

●  $56\,792 + 42\,009$  |  $80\,014 - 72\,935$

**571.** Tushuntirish bilan yeching:

$$809 \cdot 60 \quad | \quad 826 \cdot 400 \quad | \quad 410 \cdot 200$$

$$\begin{array}{l|l|l|l} 572. & 408 \cdot 300 & | & 1\,752 \cdot 30 & | & 49\,700 : 7 & | & 581 \cdot 200 : 7 \\ & 609 \cdot 500 & | & 2\,084 \cdot 70 & | & 32\,040 : 6 & | & 835 \cdot 300 : 5 \end{array}$$

**573.** Kvadrat santimetrlarda ifodalang:



$$3 \text{ dm}^2 \quad | \quad 2 \text{ dm}^2 \quad 18 \text{ sm}^2 \quad | \quad 900 \text{ mm}^2$$

**574.** Parrandachilik fermasida 930 ta parranda bor.




Tovuqlar hamma parrandalarning  $\frac{2}{3}$  qismini, g'ozlar  $\frac{1}{5}$  qismini, qolganlarini kurkalar tashkil etadi. Parrandachilik fermasida qancha kurka bor?

$$575. (53 + 28) \cdot (24 - 19) \quad | \quad 8\,115 : 5 - 1\,806 : 3$$

**576.** Ikkita bir xil avtobusda 56 ta o'rindiqlik bor. Shunday 5 ta avtobusda nechta o'rindiqlik bor?



**577.** Do'konga televizorlar, magnitofonlar va radiopriyomniklar keltirildi. Ularning hammasi birgalikda 296 ta. Shulardan 78 tasi magnitofon, radiopriyomniklar esa magnitofonlardan 2 marta ko'p, qolganlari televizorlar. Do'konga nechta televizor olib kelingan?



●  $286 \cdot 300$  |  $63 \cdot 500 : 3$  |  $954 \cdot 40$  |  $21\,420 : 9$



$$\begin{array}{r} + 385 \diamond \\ \diamond \diamond 89 \\ \hline 9245 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 91 \diamond 6 \\ \diamond 38 \diamond \\ \hline 4754 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + \diamond \diamond 83 \\ \diamond \diamond \\ \hline 8332 \end{array}$$

579. Tengliklarning to'g'riligini tushuntiring:

$$6 \cdot 8 \cdot 5 = 5 \cdot 6 \cdot 8$$

$$7 \cdot 9 \cdot 4 = 7 \cdot (9 \cdot 4)$$

$$35 \cdot 4 \cdot 10 \cdot 3 = 35 \cdot 10 \cdot 4 \cdot 3$$

$$6 \cdot 2 \cdot 9 \cdot 5 = (6 \cdot 9) \cdot (2 \cdot 5)$$



**Yodingizda tuting!** Ko'paytuvchilarning o'rnini turli usullar bilan almashtirish va guruhlash mumkin.

Masalan:  $7 \cdot 2 \cdot 500 \cdot 9 = (7 \cdot 9) \cdot (500 \cdot 2)$

580. Ko'paytma qanday hisoblanganini tushuntiring:

$$50 \cdot 49 \cdot 2 = 49 \cdot 50 \cdot 2 = 49 \cdot 100 = 4900$$

$$7 \cdot 25 \cdot 8 \cdot 4 = (7 \cdot 8) \cdot (25 \cdot 4) = 56 \cdot 100 = 5600$$

581. Eng qulay usul bilan hisoblang:


$$9 \cdot 25 \cdot 7 \cdot 4 \quad | \quad 16 \cdot 7 \cdot 10 \cdot 5 \quad | \quad 45 \cdot 14 \cdot 2 \cdot 5 \quad | \quad 25 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 4$$

582. 4 ta bir xil bo'lak oq ip va 8 ta shunday havorang ip bir xil narxda sotib olindi. Hamma iplar uchun 960 so'm to'landi. Bir bo'lak ip necha so'm turadi? Hamma oq ip necha so'm turadi? Hamma havorang ip necha so'm turadi?

583. Oralaridagi masofa 102 km bo'lgan ikki shahardan bir-biriga qarab ikki velosipedchi yo'lga chiqdi. Birining tezligi 16 km/soat, ikkinchisniki esa bundan 2 km ortiq. Velosipedchilar necha soatdan keyin uchrashadilar?

584. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 40 sm, eni 25 sm. Yuzi shu to'g'ri to'rtburchakning yuziga teng bo'-

lib, eni esa 5 marta kichik bo'lgan to'g'ri to'rt-  
burchakning bo'yini toping.


 **585.** Agar  $a = 6412$  va  $b = 4$  bo'lsa,  $a \cdot b$  va  $a : b$  ifodalarning qiymatini toping.

 **586.** Amallarni bajaring:

$35\ 532 : 9 \cdot 4 + 15\ 618 \cdot 3$	$21\ 476 : 7$
$(294\ 883 - 49\ 295 - 294) : 7$	$16\ 272 : 8$
$60\ 001 - 13\ 284 : 9$	$24\ 348 : 6$

### Nollar bilan tugaydigan sonlarga bo'lish

**587.** 12 ta quyovni turli usullar bilan teng guruhlarga qanday ajratish mumkinligini tushuntiring:



Endi 12 sonini 3 va 2 sonlarining ko'paytmasiga bo'lishning har xil usullarini tushuntiring:

1)  $12 : (3 \cdot 2) = 12 : 6 = 2$

Ko'paytma hisoblanadi va son shu ko'paytmaga bo'linadi.

2)  $12 : (3 \cdot 2) = (12 : 2) : 3 = 6 : 3 = 2$

Son ikkinchi ko'paytuvchiga bo'linadi va natija birinchi ko'paytuvchiga bo'linadi.



$$3) 12 : (3 \cdot 2) = (12 : 3) : 2 = 4 : 2 = 2$$


Son birinchi ko'paytuvchiga bo'linadi va natija ikkinchi ko'paytuvchiga bo'linadi.

**588.** Hisoblang:

$$30 : (3 \cdot 5) = 30 : 15 = \square \quad | \quad 28 : (7 \cdot 2) = 28 : 14 = \square$$

$$30 : (3 \cdot 5) = (30 : 3) : 5 = \square \quad | \quad 28 : (7 \cdot 2) = (28 : 7) : 2 = \square$$

$$30 : (3 \cdot 5) = (30 : 5) : 3 = \square \quad | \quad 28 : (7 \cdot 2) = (28 : 2) : 7 = \square$$

 Nima uchun har bir ustunda bir xil natijalar hosil bo'lganligini tushuntiring.

**589.** Natijani qulay usul bilan hisoblang:

$$80 : (5 \cdot 4) \quad | \quad 140 : (4 \cdot 7) \quad | \quad 360 : (10 \cdot 2)$$

$$90 : (6 \cdot 3) \quad | \quad 270 : (9 \cdot 6) \quad | \quad 7\,200 : (100 \cdot 9)$$

**590.** O'ramda 320 m sim bor. Uning  $\frac{7}{8}$  qismi ishlatildi. Qolganiga qaraganda necha metr ko'p sim ishlatilgan?

**591.** Sayyohlar 90 km yo'lni o'tishni mo'ljalladilar. Bir kun yo'lda bo'lganlaridan so'ng ular yana birinchi kun o'tgan yo'llarining yarmicha yo'lni o'tishlari kerak ekanini payqadilar. Sayyohlar yana necha kilometr yo'lni o'tishlari kerak?

**592.**  $3\,240 \cdot 30 - 54\,808 : 8 \quad | \quad 7 \cdot (746 + 23\,016) : 2$

**593.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$1\,631 : 5 \quad | \quad 4\,780 : 7 \quad | \quad 1\,833 : 6 \quad | \quad 50\,704 : 9$$



**594.** Kitob 100 betli. Qizcha birinchi kun uning  $\frac{3}{4}$  qismini, ikkinchi kun esa birinchi kuni o'qiganining  $\frac{1}{5}$  qismini o'qidi. Qizcha ikkinchi kun kitobning necha betini o'qidi?



**595.**  $620 \cdot 400$  |  $50\ 050 - 8\ 000$  |  $490 \cdot 40 : 8$   
 $780 \cdot 90$  |  $3\ 600 \cdot 30$  |  $20\ 881 : 7$

**596.** Bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:

$$240 : 60 = 240 : (10 \cdot 6) = 240 : 10 : 6 = 4$$

$$640 : 16 = 640 : (8 \cdot 2) = 640 : 8 : 2 = 40$$

$$5\ 600 : 700 = 5\ 600 : (100 \cdot 7) = 5\ 600 : 100 : 7 = 8$$


**597.** Yechishni og'zaki tushuntiring:

$$800 : 40 \quad | \quad 2\ 400 : 30 \quad | \quad 4\ 200 : 600$$

**598.**  $280 : 70$  |  $540 : 36$  |  $300 : 15$  |  $1\ 400 : 700$   
 $720 : 90$  |  $490 : 70$  |  $720 : 45$  |  $6\ 300 : 900$

**599.** Ustaxonada 1971 m gazlama bor edi. Shu gazlamaning  $\frac{5}{9}$  qismi ayollar kastumlarini tikish uchun sarflandi. Bolalar kastumlariga ayollar kastumlariga sarflanganining  $\frac{3}{5}$  qismi sarflandi. Bolalar kastumlarini tikish uchun qancha gazlama sarflangan?

**600.** Uzunligi 100 m bo'lgan yugurish yo'lkasi bo'ylab ikki bola bir vaqtda bir-biriga qarab yugurib ketdi. Agar birinchi bola 4 m/s, ikkinchi bola 5 m/s tezlik bilan yugursa, 4 sekunddan keyin bolalar orasidagi masofa qancha bo'ladi?



**601.** Tikuvchi birinchi kun 3 ta bir xil yostiq jildi, ikkinchi kun esa 4 ta shunday yostiq jildi tikdi.

U hammasi bo'lib, 14 m gazlama sarfladi. Tikuvchi birinchi kun necha metr gazlama sarflagan?



$$602. \quad \begin{array}{l|l} 2\,340 \cdot 80 - 164\,840 & 16\,130 : 10 \cdot 9 \\ 2\,943 + 205\,480 : 8 & 5\,600 : 700 \cdot 4 \end{array}$$

603. Qoldiqli bo'lish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:

1)  $274 : 10$

$$274 : 10 = 27 \text{ (qold. 4).}$$

2)  $457 : 100$

$$457 : 100 = 4 \text{ (qold. 57).}$$

T u s h u n t i r i s h :

274 soni 10 ga qoldiqsiz bo'linmaydi. 270 ni 10 ga bo'lsak, bo'linma 27, qoldiq 4 bo'ladi.

T e k s h i r i s h :

$$27 \cdot 10 + 4 = 274$$

457 soni 100 ga qoldiqsiz bo'linmaydi. 400 ni 100 ga bo'lsak, bo'linma 4, qoldiq 57 bo'ladi.

$$4 \cdot 100 + 57 = 457$$

604. Bo'linma va qoldiqni toping. Tekshiring:

$386 : 10$

$6\,247 : 100$

$72\,835 : 1\,000$

$1\,254 : 10$

$53\,913 : 100$


$263\,924 : 1\,000$


Har bir bo'linuvchida, bo'linmada bo'ladigan raqamlarning tagiga bittadan, qoldiqda bo'ladigan raqamlarning tagiga ikkitadan chiziq chizing. Nimani sezdingiz?

605. 5 ta bir hil kanistrda benzin bor edi. Bor benzinning hammasi ikkita avtomobilga quyildi. Bir avtomobilga 54 l benzin, ikkinchisiga 36 l benzin quyildi. Birinchi avtomobilga necha kanistr benzin quyildi? Ikkinchisiga-chi?


$$606. \quad x : 20 = 180 \quad | \quad x \cdot 20 = 140 \quad | \quad 360 : x = 40$$

**607.** Agar  $a = 300$  bo'lsa,  $160 \cdot a - a \cdot 8$  ifodaning qiymatini toping.

 **608.** 6 ta qo'ydan bir yilda 36 kg jun olinadi. 24 kg jun nechta qo'ydan olinadi?

 **609.**  $(827 + 453) \cdot 70$  |  $10\ 297 : (403 - 396)$   
 $580 \cdot (356 + 244)$  |  $425 \cdot 2 \cdot 600$   
 $(50\ 103 - 35\ 073) : 9$  |  $50 \cdot 76 \cdot 2 \cdot 10$

**610.** Ikki kalava jun ipdan 3 ta qalpoqcha to'qish mumkin. 8 kalava shunday ipdan nechta qalpoqcha to'qish mumkin?



Tushuntirish: har ikki kalava jundan 3 ta qalpoqcha chiqishi ma'lum. Agar biz 8 ta kalavada 2 tali kalavadan nechta borligini bilsak, masalani yecha olamiz. Birinchi savolni bunday ifodalash mumkin: 8 kalavada 2 ta kalavadan nechta bor?

Masalaning yechilishini tugallang.

**611.** 1) 10 litr sutdan 2 kg qaymoq olinadi. 50 litr sutdan necha kilogramm qaymoq olinadi?

2) 100 kg undan 135 kg non yopiladi. 500 kg undan necha kilogramm non yopiladi?

**612.** Novvoyxonaga tushgacha 4 200 kg va tushdan keyin 2 800 kg un keltirildi. Hamma un 100 qop bo'ldi. Novvoyxonaga tushgacha necha qop va tushdan keyin necha qop un keltirilgan?

**613.** Qoldiqli bo'lishni bajaring va tekshiring:

$$2\ 783 : 10 \quad | \quad 48\ 509 : 100 \quad | \quad 317\ 461 : 1\ 000$$



**614.** Tenglama tuzib yeching:

1) noma'lum sondan 380 ni ayirganda 70 hosil bo'ladi;

2) noma'lum sonni 60 ga ko'paytirilganda 540 hosil bo'ladi;

3) noma'lum sonni 10 ga bo'lganda 700 hosil bo'ladi.



**615.**  $38\ 412 : 6$  |  $840\ 192 : 6$  |  $709 \cdot 6 - 13\ 200 : 100$

●  $24\ 056 : 8$  |  $751\ 410 : 9$  |  $53\ 060 : 10 + 478 \cdot 2$

**616.** 1) Yechishni tushuntiring va natijani hisoblang:

$$540 : 90 = 540 : (9 \cdot 10) = 540 : 10 : 9 = \square$$

$$7\ 200 : 800 = 7\ 200 : (8 \cdot 100) = 7\ 200 : 100 : 8 = \square$$

2) Qoldiqli bo'lishni bunday bajarish mumkin:

4	1	8	6	0					
3	6	0	6						
<hr/>									
		5	8						

2	5	1	0	6	0	0			
2	4	0	0	4					
<hr/>									
		1	1	0					

T u s h u n t i r i s h :

418 ni 60 ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** 418 ni oldin 10 ga, keyin hosil bo'lgan sonni (41 ni) 4 ga bo'lamiz. 6 hosil bo'ladi.

**Ko'paytiramiz:** 6 ni 60 ga. 360 hosil bo'ladi.

**Ayiramiz:** 360 ni 418 dan. 58 qoladi. 58 – bu qoldiq.

**Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:** 58 kichik 60 dan.

Demak, bo'lish to'g'ri bajarilgan.

**Javobni o'qiymiz:** bo'linma 6, qoldiq 58.


**Tekshirish:**  $58 < 60$ ,  $6 \cdot 60 + 58 = 418$ .

**617.** 2 510 ni 600 ga qanday bo'lganingizni yozib tushuntiring.

**618.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$\begin{array}{|l|l|l|l|} \hline 157 : 30 & 174 : 50 & 670 : 300 & 1\ 900 : 600 \\ \hline 184 : 60 & 235 : 40 & 620 : 200 & 2\ 150 : 700 \\ \hline \end{array}$$

**619.** «Neksiya» avtomobili 100 km yo'lga 8 l benzin sarflaydi. U 400 km yo'lga necha litr benzin sarflaydi?



**620.** Qisqa yozuvi bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

	Yashiklar soni	Umumiy massa
Birinchi do'kon	? ] 20 ta	99 kg
Ikkinchi do'kon	? ] yashik	81 kg



**621.** Ikkita brigada 8 savat sabzi terdi. Birinchi brigada 39 kg, ikkinchi brigada 65 kg sabzi terdi. Har qaysi brigada necha savat sabzi terdi?



**622.**  $167\ 004 + 320 \cdot 3 : 4$  |  $7\ 720 : 8 \cdot 30$   
 $910\ 000 - 548 \cdot 2 : 8$  |  $2\ 682 : 9 \cdot 60$

**623.** 1)  $5\ 520 : 80$  bo'lish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:



5520	80	14160	40
480	69	120	354
720		216	
720		200	
0		160	
		160	
		0	

**Tushuntirish:** 5 520 ni 80 ga bo'lish kerak.

552 o'nl. – **birinchi to'liqsiz bo'linuvchi.**

Demak, bo'linmada o'nliklar va birliklar, ya'ni 2 ta raqam bo'ladi.

**Bo'lamiz:** 552 ni 80 ga. Buning uchun 55 ni 8 ga bo'lamiz, 6 chiqadi – bo'linmada shuncha o'nlik bo'ladi.

**Ko'paytiramiz:** 80 ni 6 ga, 480 chiqadi – shuncha o'nni bo'ldik.

**Ayiramiz:** 480 ni 552 dan, 72 chiqadi – shuncha o'n bo'linmadi.

**Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:** 80 dan kichik o'nliklar qoldi ( $72 < 80$ ).

720 birlik – **ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi.**

**Bo'lamiz:** 720 ni 80 ga. Buning uchun 72 ni 8 ga bo'lamiz. 9 chiqadi – bo'linmada shuncha birlik bo'ladi.

**Ko'paytiramiz:** 80 ni 9 ga, 720 chiqadi. Hamma birliklar bo'lindi.

**Javobni o'qiymiz:** bo'linma 69 ga teng. Tekshirish qanday bajarilganini tushuntiring.

2) 14 160 ni 40 ga qanday bo'lganimizni yozib tushuntiring.

**624.** Yuqorida keltirilgan tushuntirishlar bo'yicha yeching:


2 340 : 30		5 360 : 40		12 350 : 50
3 010 : 70		5 040 : 80		28 380 : 60

**625.** Ko'mir konidan 60 tonnali vagonlarda 2 220 t va 50 tonnali vagonlarda 1 850 t ko'mir jo'natildi. 60 tonnali va 50 tonnali vagonlar soni teng ekanini isbotlang.


**626.** Ikkita avtomashinada 80 t kartoshka keltirildi. Birinchi mashinada 30 t, ikkinchisida esa qolgan

kartoshka keltirildi. Mashinalar bir xil yuk oladi. Mashinalar hammasi bo'lib 16 marta qatnadi. Har bir mashina necha marta qatnagan?

**627.** Termiz va Denov shaharlari orasidagi masofa 180 km. Bu ikki shahardan bir-birlari tomon bir vaqtda ikki avtobus yo'lga chiqdi. Avtobuslardan biri butun yo'lning  $\frac{4}{10}$  qismini, ikkinchisi esa  $\frac{1}{5}$  qismini o'tgan paytda avtobuslar orasidagi masofa qancha bo'ladi?



**628.** 18 l sut 4 ta tog'oracha va 5 ta bankaga quyildi. Tog'oracha va bankalarning sig'imi bir xil. Bankalarda necha litr sut bo'lgan?



**629.** Tenglamalarni yeching:

$$540 : x = 90$$

$$700 - x = 80$$

$$x \cdot 60 = 420$$

$$x : 40 = 15$$



$$\begin{array}{r} \diamond 845 \\ + 4\diamond 70 \\ \hline 29\diamond 4 \\ 526\diamond \\ \hline 18590 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 7\diamond 4\diamond \\ \diamond 9\diamond 5 \\ \hline 2415 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - \diamond 0\diamond\diamond \\ 5\diamond 09 \\ \hline 2847 \end{array}$$

**630.** Bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:

$68600$	$700$	$238500$	$900$
$- 6300$	$98$	$- 1800$	$265$
$5600$		$5850$	
$- 5600$		$- 5400$	
$0$		$4500$	
		$- 4500$	
		$0$	



$$\begin{array}{ccc|ccc}
 631. & 26\ 800 : 400 & & 44\ 100 : 700 & & 110\ 400 : 300 \\
 & 32\ 800 : 800 & & 42\ 300 : 900 & & 249\ 500 : 500
 \end{array}$$

**632.** 1) Parashutchi 2 400 m balandlikdan sakradi. U yo'lning uchdan ikki qismida parashutni ochmasdan tushdi. Yerga qancha qolganda parashut ochilgan?

2) Maktab hovlisida gulzor uchun 60 m<sup>2</sup> yer ajratildi. Bu hamma hovlining beshdan bir qismini tashkil etadi. Butun maktab hovlisining yuzi qancha?

**633.** Toshbaqa va shilliqurt qarama-qarshi tomonga harakat qilyapti. Agar toshbaqaning tezligi 22 sm/min, shilliqurtning tezligi 14 sm/min bo'lsa, 2 minutdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

**634.** Agar  $c = 308$ ,  $d = 90$ ;  $c = 627$ ,  $d = 400$ ;  $c = 7060$ ,  $d = 8$  bo'lsa,  $c \cdot d$  ifodaning qiymatini toping.



**635.** 72 l benzin 4 kanistrga baravardan quyildi. 90 l benzinni quyish uchun shunday kanistrdan nechta kerak bo'ladi?



**636.**  $55\ 140 : 6 \cdot 30 + 560 \cdot 400$  |  $720 - (300 - 420 : 6)$   
 $860 \cdot 900 - 6\ 750 : 5 \cdot 70$  |  $800 + (40 \cdot 90 - 600)$

**637.** 1) Yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r|l}
 \underline{\underline{28800}} & \underline{\underline{80}} \\
 \underline{240} & \underline{360} \\
 \underline{\underline{480}} & \\
 \underline{480} & \\
 \underline{\underline{0}} & \\
 \underline{0} & \\
 \underline{\underline{0}} &
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 \underline{\underline{364200}} & \underline{\underline{600}} \\
 \underline{3600} & \underline{607} \\
 \underline{\underline{420}} & \\
 \underline{0} & \\
 \underline{\underline{4200}} & \\
 \underline{4200} & \\
 \underline{\underline{0}} &
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 \underline{\underline{285600}} & \underline{\underline{70}} \\
 \underline{280} & \underline{4080} \\
 \underline{\underline{56}} & \\
 \underline{0} & \\
 \underline{\underline{560}} & \\
 \underline{560} & \\
 \underline{\underline{0}} & \\
 \underline{0} & \\
 \underline{\underline{0}} &
 \end{array}$$

2) Shu misollarni yechishning qisqaroq yozilishini tushuntiring:

$$\begin{array}{r|l} 28800 & 80 \\ \underline{240} & \underline{360} \\ \underline{480} & \\ 480 & \\ \underline{0} & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 364200 & 600 \\ \underline{3600} & \underline{607} \\ \underline{4200} & \\ 4200 & \\ \underline{0} & \end{array}$$


$$\begin{array}{r|l} 285600 & 70 \\ \underline{280} & \underline{4080} \\ \underline{560} & \\ 560 & \\ \underline{0} & \end{array}$$


638.  $78\ 400 : 800$        $69\ 680 : 40$        $27\ 720 : 30$   
 $552\ 000 : 600$        $67\ 410 : 90$        $32\ 760 : 70$

639. Qizcha birinchi kitobni 7 soatda, ikkinchisini 5 soatda o'qib chiqdi. Agar birinchi kitob ikkinchisiga qaraganda 40 bet ko'p bo'lsa, qizcha bir soatda necha bet o'qigan?

640. Ikki aholi punktidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda g'ildirakli va zanjirli traktorlar yo'lga chiqdi. G'ildirakli traktorning tezligi 30 km/soat, zanjirli traktorning tezligi 10 km/soat. G'ildirakli traktor 120 km yo'lni o'tgan vaqtda zanjirli traktor necha kilometr yurgan bo'ladi?

641. Ekin maydonining berilgan rejasi bo'yicha tarvuz uchun, qovun va qovoq uchun qancha maydon ajratilganini toping.



 **642.** Bo'yi 5 sm, eni 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning yuzini toping.

 **643.** Ifodalarni taqqoslang:

●  $420 \cdot 5 \cdot 10 \square 420 \cdot 50$      $650 \cdot 10 + 650 \cdot 3 \square 650 \cdot 30$

**644.** Yechishni tushuntiring:



	284200	700		416000	40
	2800	406		40	1040
	4200	...		160	...
	4200			160	
		0			0


**645.** Amallarni bajaring va tekshiring:


$276\ 300 : 900$	$44\ 400 : 60$	$102\ 000 : 300$
$7\ 420 : 70$	$29\ 600 : 80$	$156\ 000 : 200$

**646.** Bir qishloqdan ikki otliq bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqishdi. Bu otliqlardan birining tezligi 14 km/soat, ikkinchisining tezligi 12 km/soat. Otliqlar 4 soat yo'lda bo'lsalar,  $14 + 12$ ;  $14 \cdot 4$ ;  $12 \cdot 4$ ;  $14 \cdot 4 + 12 \cdot 4$ ;  $(14 + 12) \cdot 4$  ifodalarning ma'nosini tushuntiring.

**647.** Umumiy yuzi  $1\ 750\ m^2$  bo'lgan ikkita yer maydoniga mevali daraxtlar ekildi. I maydonga 20 tup va II maydonga 30 tup daraxt ekildi. Agar daraxtlar orasidagi masofalar bir xil bo'lsa, har qaysi maydonning yuzini toping.

**648.**  $160 : 4 + 6 \cdot 2$  ifodaning qiymatini toping. Uning qiymati 32 ga teng bo'lishi uchun qavslarni qanday qo'yish kerak? 10 ga teng bo'lishi uchun-chi? 92 ga teng bo'lishi uchun-chi?

 **649.** 28 m materialdan 7 ta xalat tikish mumkin bo'lsa, 56 m materialdan nechta xalat chiqadi?

 **650.**  $350 \cdot 30 : 70$  |  $354\ 000 : 200 \cdot 8$  |  $85 \cdot 5 \cdot 0$   
●  $428 \cdot 60 : 80$  |  $738\ 000 : 300 \cdot 9$  |  $1 \cdot 39 \cdot 0$

**651.** Yechishni tushuntiring, bo'linma va qoldiqni ayting:

$\begin{array}{r} \underline{2419} \\ \underline{200} \\ \underline{\quad 419} \\ \underline{\quad 400} \\ 19 \end{array}$	$\begin{array}{r} \underline{50} \\ \underline{48} \end{array}$	<p><b>Tekshirish:</b></p> <p>1) <math>19 &lt; 50</math>      3) <math>2\ 400 + 19 = 2\ 419</math></p> <p>2) <math>\times \begin{array}{r} 48 \\ \underline{50} \\ 2400 \end{array}</math>      4) <math>48 \cdot 50 + 19 = 2\ 419</math></p>
--	---	--

**652.** Qoldiqli bo'lishni bajaring va tekshiring:  
 $3\ 333 : 40$  |  $1\ 307 : 20$  |  $20\ 200 : 300$  |  $424\ 920 : 600$

**653.** To'rttdan uch sentnerda necha kilogramm bor?  
 Beshdan uch tonnada-chi? O'ndan yetti tonnada-chi?

**654.** Tenglamalar tuzib yeching:  
 1) 70 sonini bir necha marta orttirib, 630 hosil qilindi. 70 soni necha marta orttirilgan?  
 2) 720 soni bir necha marta kamaytirildi va 80 hosil qilindi. 720 soni necha marta kamaytirilgan?



**655.** 3 ta olma 25 so'm turadi. Oltita shunday olma qancha turadi?



**656.** Ikki piyoda bir vaqtda bir qishloqdan qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa 33 km bo'ldi. Agar piyodalardan birining tezligi 5 km/soat bo'lsa, ikkinchisining tezligini toping.



**657.** Amallarni bajaring va tekshiring:  
●  $38\ 960 : 80$  |  $780 : 60$  |  $34\ 500 : 300$  |  $83 \cdot 700$



## Mustahkamlash uchun mashqlar

### 1. Ifodalarni taqqoslang:

1)  $26 \cdot (10 \cdot 4)$  va

$26 \cdot 10 \cdot 4$

$76 \cdot 21$  va  $76 \cdot 3 \cdot 7$

Sonni ko'paytmaga qanday ko'paytirish mumkin?

2)  $560 : (7 \cdot 4)$  va

$560 : 7 : 4$

$80 : 16$  va  $80 : 8 : 2$ .

Sonni ko'paytmaga qanday bo'lish mumkin?

### 2. Qulay usulda hisoblang:

$35 \cdot (2 \cdot 7)$

$210 : (7 \cdot 6)$

$5 \cdot 35 \cdot 6 \cdot 2$

3.  $1\ 683 \cdot 70$

$803 \cdot 300$

$1\ 070 \cdot 800$

$2\ 060 \cdot 70$

$7\ 048 \cdot 60$

$709 \cdot 400$

$3\ 600 \cdot 200$

$30\ 400 \cdot 20$

4.  $560 : 20$

$780 : 30$

$4\ 900 : 700$

$5\ 400 : 900$

### 5. Qoldikli bo'lishni bajaring:

$1\ 704 : 10$

$42\ 617 : 100$

$13\ 784 : 10$

6.  $47\ 600 : 700$

$276\ 800 : 800$

$25\ 800 : 300$

7.  $40\ 230 - 380 \cdot 40 + 26\ 970$

$600\ 000 - 976 \cdot 300$

$16\ 210 + 639\ 200 : 800 - 8\ 706$

$2\ 916 + 185\ 040 : 60$

8.  $71\ 440 : 80 - 14\ 820 : 60$

$418\ 200 : 50 - 637 \cdot 10$

$(900 - 735) \cdot 80 + 20$

$(60\ 990 + 12\ 240) : 30 - 30$

### 9. Ifodalar tuzing va qiymatlarini hisoblang:

1) Eng katta besh xonali son bilan 1 ning yig'indisini 100 marta kamaytiring.

2) Eng kichik to'rt xonali son bilan 1 ning ayirmasini 9 marta kamaytiring.


3) 251 sonini 482 va 18 sonlarining yig'indisiga ko'paytiring.

4) 3 200 sonini 280 va 200 sonlarining ayirmasiga bo'ling.

5) Eng katta uch xonali sonning uchdan bir qismini eng kichik ikki xonali songa ko'paytiring.

**10.** Paxta chuvish mashinasi bir soatda 500 kg paxtani chuviydi. 10 ta shunday mashina 7 soat davomida har biri 200 kg bo'lgan toy paxtadan nechtasini chuviydi?

**11.** «Kim cho'qqiga tezroq  chiqadi?» oyin-estafetasi



**12.** O'quvchilarning ikki guruhi 100 qop kartoshka terishdi. Agar I guruh 2 450 kg va II guruh 2 550 kg kartoshka tergan bo'lsa, har bir guruh necha qopdan kartoshka tergan?

**13.** 1) 6 ta otga bir kunga 60 kg pichan beriladi. 25 ta otga bir kunda qancha pichan beriladi?

2) 100 kg javdaridan 80 kg un chiqadi. 300 kg javdaridan qancha un chiqadi?

**14.** Ikkita qishloqdan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita velosipedchilar guruhi yo'lga chiqdi. ...

Masala shartini o'zingiz shunday to'ldiringki, u

1)  $14 + 16 = 30$  (km); 2)  $150 : 30 = 5$  (soat)


yo'l bilan yechilsin.

**15.** 1) Yonilg'i quyish tarmog'idan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita avtomobil yo'lga chiqdi. Ular-

dan birining tezligi 60 km/soat, ikkinchisining tezligi 70 km/soat. 3 soatdan keyin bu avtomobillar orasi necha kilometr bo'ladi?

2) Masalani shunday o'zgartiringki, uning yechimi  $(390 - 70 \cdot 3) : 3 = 60$  (km/soat) bo'lsin.

16. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning bo'yi 22 m, eni 10 m. Shu maydon o'rtasida kvadrat shaklida ikkita bir xil gulzor ajratildi. Agar gulzor (kvadrat)ning tomoni 6 m bo'lsa, qolgan joyning yuzini toping:



17. Tomonlaridan biri 9 sm va yuzi  $54 \text{ sm}^2$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing va uning perimetrini toping.
18. Har bir ifodada qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$60 : 4 + 2 \cdot 3 = 6 \quad | \quad 60 : 4 + 2 \cdot 3 = 30 \quad | \quad 60 : 4 + 2 \cdot 3 = 51$$

19. Tenglamalarni yeching:

$$800 - x = 70 \quad | \quad x - 140 = 30 \quad | \quad 630 : x = 70 \quad | \quad 40 \cdot x = 320$$



Qutichada 2 ta ko'k va 3 ta qizil qalam bor. Ikkita bir xil rangli qalam chiqishi uchun qutichadan nechta qalam olish kerak?



### Takrorlash uchun topshiriqlar

1. Sonni ko'paytmaga qanday ko'paytirish mumkinligini tushuntiring. Misol keltiring.
2. Sonni ko'paytmaga qanday bo'lish mumkinligini tushuntiring. Misol keltiring.



## Jismlarning hajmi

658. 1) Atrofimizni jismlar qurshab olgan. Ulardan ba'zilari bir o'lchamga – uzunlikka, yoki kenglikka, yoki balandlikka ega, yoki qandaydir boshqa o'lchamga ega. Boshqa narsalar ikki o'lchamga – bo'yi va eniga, masalan, qog'oz varag'i, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, xona polining yuzi va shu kabi. Narsalar borki, ular uch o'lchamga (bo'y, en va balandlikka) ega, masalan, yashiklar, shkaflar, g'ishtlar, gugurt qutilari va shu kabilar. Shunday uchta o'lchamga ega bo'lgan narsalar hajmga egadir. Hajmlar turli kattaliklarga ega. Masalan, uyning hajmi shkafning hajmidan katta, g'ishtning hajmi yashikning hajmidan kichik, gugurt qutilarining hajmi ko'pincha o'zaro teng bo'ladi. Kub uch o'lchamga: **bo'y, en va balandlikka** ega. Kub ol-tita yoq bilan chegaralangan. Kubning har bir yog'i kvadrat shakliga ega. Kubning hamma yoqlari o'zaro teng. Kub yoqlarining chegaralari **qirralar** deb ataladi. Kubda 12 ta qirra bor. Kubning hamma qirralari o'zaro teng. Kubning 8 ta **uchi** bor.



2) Kub haqida so'zlab bering, uning yoqlarini, qirralarini, uchlarini ko'rsating. Kub chizing.



3) Gugurt qutisining, shkafning, yashikning, uyning bo'yi, eni va balandligini ko'rsating.

**659.** Traktorchi ishni soat 6-yu 30 minutda boshlab, uni 20-yu 15 minutda tugatdi. U 1 soat 45 min dam oldi. Traktorchi necha soat ishlagan?

**660.** Misollarni yeching. Avval ko'paytmada yoki bo'linmada nechta raqam chiqishini aniqlang. Teskari amallar yordamida javoblarni tekshiring:

$$7\ 005 \cdot 4 \quad | \quad 2\ 011 \cdot 7 \quad | \quad 1\ 206 : 6 \quad | \quad 2\ 808 : 4$$

**661.**  $69\ 580 : 70 - 14\ 280 : 60$  |  $55\ 440 : 90 - 10\ 460 : 20$   
 $463\ 700 : 50 + 546 \cdot 40$  |  $41\ 090 : 70 + 11\ 950 : 50$

**662.** Fermer umumiy massasi 1 828 kg bo'lgan ikkita bir xil sigir va to'rtta bir xil novvos sotdi. Bitta sigirning massasi 286 kg. Bitta novvosning massasi qancha?



**663.** Bir guruhda 42 o'quvchi, ikkinchisida birinchisidagiga qaraganda 8 ta kam, uchinchisida esa ikkinchisidagiga qaraganda 4 ta ko'p o'quvchi bor. Uchinchi guruhda nechta o'quvchi bor?



**664.** Bo'lishni bajaring va javobni ko'paytirish bilan tekshiring:

●  $6\ 200 : 50$  |  $67\ 140 : 90$  |  $379\ 060 : 20$

**665.**

Hajmlarni o'lchash uchun kub birlik o'lchovi kiritilgan.

Kub qirrasining uzunligi 1 metr bo'lsa, uning hajmi **bir kub metr** (kub m) deb ataladi.




Kub qirrasining uzunligi 1 detsimetr bo'lsa, uning hajmi **bir kub detsimetr** (kub dm) deb ataladi.

Kub qirrasining uzunligi 1 santimetrga teng bo'lsa, bunday kubning hajmi **bir kub santimetr** (kub sm) deb ataladi.

1) Bo'yi 4 sm, eni 3 sm va balandligi 2 sm bo'lgan karton qutichani kub santimetrlar bilan to'ldiring, buning uchun nechta kub santimetr kerakligini hisoblang.

2)



Rasmga qarab yashikning ichini kub santimetrlar bilan xayolan to'ldiring.

Yashikning bo'yi, eni, balandligi nimaga teng?

Qanday hajmga

ega bo'ldingiz? Hajmni hisoblash uchun bo'yi, eni va balandligini bildiruvchi sonlar ustida qanday amallar bajarishingiz kerak?

(Tekshiring: yashikning hajmi – 72 kub sm)

Yashik, quti, xona va boshqa shu kabi jismlarning hajmini hisoblash uchun ularning bo'yi, eni va balandligini bir xil birlikda o'lchab, hosil bo'lgan sonlarni o'zaro ko'paytirish kerak. Ko'paytmada har doim kub birliklar hosil bo'ladi.

**666.** Agar qutining:

a) bo'yi 6 sm, eni 1 sm, balandligi 1 sm;

b) bo'yi 5 sm, eni 3 sm, balandligi 1 sm;

d) bo'yi 9 sm, eni 5 sm, balandligi 2 sm bo'lsa, unga nechta kub santimetr joylashadi?


**667.** Sinf xonasining bo'yi 6 m, eni 5 m, balandligi 3 m. Sinf xonasining hajmini toping.

**668.** O'quvchilar bo'yi 40 m, eni bo'yidan 10 m qisqa maydonda bog' barpo etishdi. Bog' maydonining yuzini toping. Bog' atrofini qanday uzunlikdagi devor bilan o'rash kerak?

**669.**  $2\ 250 : 90 + 8\ 420 : 20$  |  $900\ 100 - (735 - 184) \cdot 80$   
 $8\ 130 : 30 + 2\ 640 : 10$  |  $60\ 997 + (6\ 012 + 6\ 228) : 30$



**670.**  $234\ 521 - 216 \cdot 1\ 000$  |  $354\ 000 : 200 \cdot 6$   
 $721\ 018 + 360 \cdot 100$  |  $835 \cdot 100 : 50 \cdot 9$



**671.** Do'konga 2 mashinada 6 t kartoshka keltirildi. Birinchi mashinada 3 t 400 kg kartoshka keltirildi. Ikkinchi mashinada necha kilogramm kam kartoshka keltirildi?




Agar har bir uyning yoniga 9 tadan daraxt o'tqazilsa, u holda 100 ta daraxt yetmaydi. Agar har bir uyning yoniga 5 tadan daraxt o'tqazilsa, u holda 20 ta daraxt ortib qoladi. Yoniga daraxt o'tqazilishi kerak bo'lgan nechta uy bor?

**672.** 1) Bir ishchi 7 soatda 84 ta detalga ishlov berdi, boshqasi esa 5 soatda 120 ta detalga ishlov berdi. Ikkinchi ishchi birinchi ishchiga qaraganda soatiga necha marta ko'p detalga ishlov bergan?

2) 3 ta g'isht teruvchi 8 soatda 7 200 dona g'ishtni terdi. Agar ishchilar bir xilda ishlagan bo'lsalar, har bir g'isht teruvchi soatiga nechtadan g'isht tergan?

**673.** Birinchi ishchi 4 m, ikkinchi ishchi 5 m, uchinchi 12 m ariq qazidi. Har bir ishchi o'rtacha hisobda necha metr ariq qazigan?



Reja va yechilishi:

1) Uchta ishchi necha metr ariq qazishdi?

$$4 + 5 + 12 = 21 \text{ (m)}$$

2) Har bir ishchi o'rta hisobda necha metr ariq qazigan?

$$21 : 3 = 7 \text{ (m)}$$

Javob: har bir ishchi o'rta hisobda 7 m ariq qazigan.



Bir nechta sonning o'rta arifmetik qiymatini topish uchun ularni qo'shib, chiqqan sonni qo'shiluvchilar soniga bo'lish kerak.

**674.** 1) Velosipedchi past-baland joydan yurib, birinchi soatda 13 km, ikkinchi soatda 14 km, uchinchi soatda esa 9 km masofani o'tdi. Velosipedchi qanday o'rtacha tezlik bilan yurgan?

Yechilishi:

a)  $1 + 1 + 1 = 3$  (soat) – velosipedchi yurgan vaqt.

b)  $13 + 14 + 9 = 36$  (km) – shuncha yo'lni bosib o'tdi.

d)  $36 : 3 = 12$  (km/soat) – velosipedchining o'rtacha tezligi.

Masalaning yechilishini takrorlang.

2) Masalani yeching.

Kutubxona kitobxonlarga birinchi oyda 600 ta, ikkinchi oyda 800 ta va uchinchi oyda 1 000 ta kitob tarqatdi. Kutubxona har oyda o'rta hisobda nechtadan kitob tarqatgan?

$$675. \begin{array}{l} 69\,580 : 70 - 14\,280 : 60 \\ 463\,700 : 50 + 546 \cdot 40 \end{array} \quad \left| \quad \begin{array}{l} 100\,100 - 935 \cdot 90 \\ 180\,997 + 12\,240 : 90 \end{array} \right.$$

676. Tenglamalarni yeching:

$$900 - x \cdot 40 = 660 \quad | \quad x : 20 = 4\,800 : 48$$



677. Samolyotning o'rtacha tezligi soatiga 600 km, poyezdning tezligi undan 10 marta kam, velosipedchining tezligi esa poyezd tezligidan 45 km kam. Velosipedchining tezligini aniqlang.



678. Rasmdan foydalanib, kasrlarni ortib borish tartibida joylashtiring:



●  $\frac{1}{5}; \frac{1}{2}; \frac{4}{10}; \frac{3}{5}; \frac{8}{10}; \frac{5}{5}; \frac{1}{10}; \frac{3}{10}; \frac{7}{10}.$

679. Bir samolyot 2 soat, ikkinchisi esa 5 soat uchdi. Ikkinchi samolyot birinchisiga qaraganda 2 100 km ortiq masofani uchib o'tdi. Agar samolyotlarning tezligi bir xil bo'lsa, ularning har biri qanday masofani o'tgan?

680. Samolyot 9 soat parvozda bo'ldi. Dastlabki 4 soatda u 600 km/soat tezlik bilan, qolgan vaqtda esa 546 km/soat tezlik bilan uchdi. Samolyot butun masofani qanday o'rtacha tezlik bilan uchib o'tgan?

681. Uyning bo'yi 20 m, eni esa 5 m. Uyning balandligi 6 m. Uyning hajmini hisoblang.

682. Quyidagi jummalarni tenglama shaklida yozing va bu tenglamalarni yeching:

a) 4 907 soni  $x$  dan  
1 425 ga ko'p.

b)  $x$  soni 1 562 dan  
837 ga ko'p.

d)  $c$  soni 3 004 dan 68 ga kam.

e) 5 007 soni  $k$  dan  
2 001 ga kam.

**683.**  $37\,100 \cdot 20 + 630 : 90$  |  $(810 : 90 + 640 : 80) \cdot 300$   
 $(32\,400 - 9\,848) \cdot 20$  |  $(960 - 240) : 30$

**684.** Harflarning qanday qiymatlarida tengsizliklar to'g'ri bo'ladi:

$$5 \cdot x > 20 \quad | \quad 20 - a < 15?$$



**685.** Bog'dan 3 500 kg olma terib olindi. Terib olingan olmalarning bir qismi 80 ta bir xil yashikka joylandi, shundan keyin 1 900 kg olma qoldi. Har bir yashikka necha kilogrammdan olma joylangan?



**686.** Tenglamalarni yeching:


●  $x : 40 = 6\,840$  |  $728\,100 : x = 900$

**687.** Velosipedchi 3 soat 13 km/soat tezlik bilan, 2 soat 15 km/soat tezlik bilan yurdi. U qanday masofani bosib o'tgan? Ifodalarning qaysilari yechimga to'g'ri keladi, qaysilari to'g'ri kelmaydi:

$$13 \cdot 3 \quad | \quad 15 \cdot 2 \quad | \quad 3 + 15 \quad | \quad 13 - 2$$

$$13 \cdot 3 + 15 \cdot 2 \quad | \quad 13 \cdot 3 - 15 \cdot 2 ?$$

**688.**



1) Rasmdan kub detsimetrni (kichiklashtirilib olingan) qarab chiqing va unda nechta kub santimetr borligini sanang.

2) Kub metrni nechta kub detsimetr bilan to'ldirish mumkin?


Ko'rsatma. Avval bir qavatdagi kublarni hisoblang, keyin nechta qavat borligini sanang.

3) Kub birliklar jadvali bilan tanishing:



1 kub m = 1 000 kub dm  
 1 kub dm = 1 000 kub sm  
 1 kub sm = 1 000 kub mm

 chiziqli santimetr

 kvadrat santimetr



kub santimetr

Bu o'lchov birliklari nima uchun xizmat qiladi?

**689.** Uyda uchta xona bor. Har bir xona polining yuzini va xonaning hajmini hisoblang, so'ngra quyida berilganlarga ko'ra butun uyning hajmini hisoblang:


Xona nomeri	Bo'yi	Eni	Balandligi	Polining yuzi	Hajmi
1	6	5	3		
2	5	4	3		
3	4	3	3		

**690.**  $3\ 002 \cdot 60 - 92\ 981$   
 $378\ 000 : 3\ 000 \cdot 7$

$105\ 000 : 7\ 000$   
 $305\ 000 : 5\ 000$

**691.** Bo'linma va qoldiqni toping:

$1\ 605 : 10$  |  $15\ 872 : 5$  |  $36\ 707 : 8$



**692.**  $562 \cdot 800$   
 $754 \cdot 600$

$1\ 400 \cdot 70$   
 $250 \cdot 600$

$38\ 960 : 80$   
 $81\ 720 : 90$



**693.** Birinchi yuk mashinasiga 4 ta gaz balloni, ikkinchisiga 6 ta gaz balloni o'rnatilgan. Birinchi mashinada gaz yonilg'isi ikkinchi mashinadagiga qaraganda 70 l kam. Har bir yuk mashinasida qanchadan yonilg'i bor?




Agar kitob javonining har bir tokchasiga 30 tadan kitob qo'yilsa, 10 ta kitob qoladi, agar har bir tokchaga 25 tadan kitob qo'yilsa, 50 ta kitob qoladi. Kitob javonining nechta tokchasi bor?

**694.** Turli o'lchamdagi uchta konteyner bor. Birinchi konteynerning o'lchamlari – 4 m, 3 m va 2 m; ikkinchisidiki – 2 m, 2 m va 2 m; uchinchisidiki – 3 m, 1 m va 2 m. Har bir konteynerning hajmini aniqlang.

**695.** Velosipedchilar musobaqa paytida 2 soat soatiga 42 km 600 m tezlik bilan, 3 soat soatiga 40 km tezlik bilan va 1 soat soatiga 45 km 600 m tezlik bilan harakat qildilar. Velosipedchilarning butun yo'lni bosib o'tishdagi o'rtacha tezligini hisoblang.

**696.** Bo'yi 30 m va eni 20 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bog' maydonining o'n ikkidan bir qismini uy egallaydi. Qolgan maydonning beshdan bir qismini bog' egallaydi. Uy necha kvadrat metr maydonni egallaydi? Bog'-chi?

$$\begin{array}{l|l} \mathbf{697.} & 40\,000 - 4\,500 \cdot 70 : 30 \quad | \quad (800 - 600) \cdot (310 - 260) \cdot 9 \\ & 30\,815 + 6\,050 \cdot 20 : 50 \quad | \quad 900 - 700 : (37 + 33) \cdot 6 \end{array}$$



**698.** Yozgi oromgohda bir oyda turli don mahsulotlaridan 83 kg sarflandi. Guruch 36 kg, grechka yormasi guruchdan 2 marta kam sarflandi. Sarflangan mahsulotning qolganini mosh tashkil etdi. Necha kilogramm mosh sarflangan?



$$\begin{array}{l|l|l} \mathbf{699.} & (1\,245 + 483) \cdot 50 & | & (4\,804 - 1\,336) : 4 & | & 780 : 30 \\ & 1\,245 + 483 \cdot 50 & | & 4\,804 - 1\,336 : 4 & | & 910 : 70 \end{array}$$



## Ikki xonali va uch xonali songa ko'paytirish

700.



Hamma qalamlar nechta?

Qalamlarning umumiy sonini ikki usulda topish mumkin:

1-usul	2-usul
$4 \cdot (3 + 2) = 4 \cdot 5 =$ $= 20 \text{ (qalam)}$	$4 \cdot (3 + 2) = 4 \cdot 3 + 4 \cdot 2 =$ $= 12 + 8 = 20 \text{ (qalam)}$

Yechimlarni taqqoslang va sonni yig'indiga qanday ko'paytirish mumkinligini tushuntiring.



**Yodingizda tuting!** Sonni yig'indiga turli usullar bilan ko'paytirish mumkin:

- 1) yig'indini hisoblab, so'ngra sonni unga ko'paytirish mumkih;
- 2) bu sonni har bir qo'shiluvchiga alohida-alohida ko'paytirib, chiqqan natijalarni qo'shish mumkin.

**701.** Hisoblashning turli usullarini tushuntiring:

$$7 \cdot (6 + 2) = 7 \cdot 8 = 56$$

$$7 \cdot (6 + 2) = 7 \cdot 6 + 7 \cdot 2 = 42 + 14 = 56$$

**702.** Qulay usul bilan hisoblang:


$$3 \cdot (4 + 10) \quad | \quad 8 \cdot (5 + 3) \quad | \quad 2 \cdot (40 + 7) \quad | \quad 15 \cdot (7 + 3)$$

**703.** Ifodalarni taqqoslang:

$$7 \cdot 2 + 7 \cdot 8 \dots 7 \cdot 10 \quad | \quad 16 \cdot 10 + 16 \cdot 4 \dots 16 \cdot 40$$

**704.** Do'konda 240 kg guruch bor edi. Birinchi kun hamma guruchning  $\frac{3}{8}$  qismi, ikkinchi kuni esa  $\frac{2}{6}$  qismi sotildi. Ikki kunda necha kilogramm guruch sotilgan?

**705.**  $12\ 460 : (3\ 079 - 3\ 059) \cdot 50 \quad | \quad (811 - 12\ 720 : 30) : 9$



**706.** Chang'ichi bir xil tezlik bilan yurib, 63 km yo'l bosdi. U dam olguncha 5 soat, dam olgandan so'ng 2 soat yurdi. Chang'ichi qanday tezlik bilan yurgan?



**707.**  $740 \cdot 300 - 85\ 800 : 60 \quad | \quad 574\ 350 : 70 + 64 \cdot 700$



Qutichada 12 ta ko'k va 18 ta qizil qalam bor. Qutichadan 15 ta qalam olindi. Qutichada hech bo'lmaganda bitta qizil qalam qoladimi?

**708.** Ko'paytirish qanday bajarilganini tushuntiring:

$$14 \cdot 13 = 14 \cdot (10 + 3) = 14 \cdot 10 + 14 \cdot 3 = 140 + 42 = 182$$

$$60 \cdot 12 = 60 \cdot (10 + 2) = 60 \cdot 10 + 60 \cdot 2 = 600 + 120 = 720$$

**709.** Og'zaki tushuntirish bilan yeching:

$$15 \cdot 16 \quad | \quad 60 \cdot 23 \quad | \quad 42 \cdot 17 \quad | \quad 80 \cdot 34$$

**710.** Natijalarni hisoblang va hisoblash usullarini taqqoslang:

$$45 \cdot 18 = 45 \cdot (10 + 8) = 45 \cdot 10 + 45 \cdot 8 = \dots$$

$$45 \cdot 80 = 45 \cdot (8 \cdot 10) = 45 \cdot 8 \cdot 10 = \dots$$

$$19 \cdot 20 = 19 \cdot (2 \cdot 10) = \dots \quad | \quad 19 \cdot 12 = 19 \cdot (10 + 2) = \dots$$


**711.** Mehnat darsi uchun 12 o'ram qizil va 8 o'ram sariq qog'oz sotib olindi. Agar bir o'ramda 10 varaqdan qog'oz bo'lsa, hammasi bo'lib necha varaq qog'oz sotib olingan? Masalani turli usullar bilan yeching.

**712.** Xo'jalikka yordam berish uchun yuqori sinflardan 50 o'quvchi olma terimiga chiqdi va har bir o'quvchi 20 savatdan olma terdi. Agar bir savatga 10 kg olma sig'sa, o'quvchilar hammasi bo'lib necha kilogramm olma terganlar?  
Masalani turli usullar bilan yeching.

**713.** Birinchi qopda 48 kg 600 g, ikkinchisida 39 kg 300 g un bor edi. O'rtacha hisobda har bir qopda qanchadan un bo'lgan?



**714.** Bo'sh kataklarni to'ldirirng:



$4 \text{ km } 060 \text{ m} = \square \text{ m}$

$1 \text{ soat } 40 \text{ min} = \square \text{ min}$

$8 \text{ t } 9 \text{ sr} = \square \text{ sr}$

$374 \text{ sm} = \square \text{ m } \square \text{ sm}$



**715.**  $227\ 360 : 6 \cdot 4 - 7\ 500 : 30$  |  $30 \cdot 70$  |  $18 \cdot 13$   
 $496\ 072 : 8 \cdot 5 - 212\ 400 : 60$  |  $30 \cdot 17$  |  $18 \cdot 30$

**716.** 1) 39 soni 58 ga qanday ko'paytirilganini tushuntiring:

$$39 \cdot 58 = 39 \cdot (50 + 8) = 39 \cdot 50 + 39 \cdot 8 = 2\ 262$$

a) 
$$\begin{array}{r} \times 39 \\ \underline{\phantom{0}8} \\ 312 \end{array}$$
 312 – birinchi to'liqsiz ko'paytma

b) 
$$\begin{array}{r} \times 39 \\ \underline{\phantom{0}50} \\ 1950 \end{array}$$
 1 950 yoki 195 o'nl. – ikkinchi to'liqsiz ko'paytma

d) 
$$\begin{array}{r} + 312 \\ \underline{1950} \\ 2262 \end{array}$$

2 262 soni 39 va 58 larning ko'paytmasi

Yechishni bunday yozish mumkin:

$$\begin{array}{r} \phantom{00} \times 39 \\ \phantom{00} \phantom{0} 58 \\ \phantom{00} \phantom{00} \underline{312} \\ + \phantom{00} \phantom{00} 1950 \\ \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} \underline{2262} \end{array}$$

Qisqacha bunday yoziladi:

$$\begin{array}{r} \phantom{00} \times 39 \\ \phantom{00} \phantom{0} 58 \\ \phantom{00} \phantom{00} \underline{312} \\ + \phantom{00} \phantom{00} 195 \\ \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} \underline{2262} \end{array}$$

Tekshirish:

$$\begin{array}{r} \phantom{00} \phantom{00} \times 58 \\ \phantom{00} \phantom{00} \phantom{0} 39 \\ \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} \underline{522} \\ + \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} 174 \\ \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} \phantom{00} \underline{2262} \end{array}$$

**Tushuntirish:** 39 ni 58 ga ko'paytirish kerak.

**Ko'paytiramiz:** 39 ni 8 ga, **birinchi to'liqsiz ko'paytma** 312 ni hosil qilamiz.

**Ko'paytiramiz:** 39 ni 50 ga, **ikkinchi to'liqsiz ko'paytma** 1 950 ni hosil qilamiz. Ikkinchi to'liqsiz ko'paytma oxiriga nolni yozmaslik qabul qilingan. Shuning uchun ikkinchi to'liqsiz ko'paytmani (195 o'nl.) o'nliklar tagidan boshlab yozamiz.

**To'liqsiz ko'paytmalarni qo'shamiz.**

Javobni o'qiymiz: 2 262. Bu – 39 va 58 sonlarining ko'paytmasi.

Tekshirish qanday bajarilganini tushuntiring.

2) Berilgan yozuvlar bo'yicha 49 ni 74 ga, 68 ni 35 ga va 91 ni 26 ga qanday ko'paytirilganini tushuntiring.



$\begin{array}{r} \times 49 \\ \times 74 \\ \hline 196 \\ +343 \\ \hline 3626 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 68 \\ \times 35 \\ \hline 340 \\ +204 \\ \hline 2380 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 91 \\ \times 26 \\ \hline 546 \\ +182 \\ \hline 2366 \end{array}$
--	--	--


Har bir holda to'liqsiz ko'paytmani va oxirgi natijani ayting.


**717.** Ko'paytiring va tekshiring:

$$32 \cdot 59 \quad | \quad 72 \cdot 27 \quad | \quad 64 \cdot 28 \quad | \quad 41 \cdot 84$$

**718.** Bir do'konga 3 ta, ikkinchisiga esa 4 ta bir xil o'ram gazlama keltirildi. Ikkala do'konga hammasi bo'lib 672 m gazlama olib kelindi. Har bir do'konga necha metrdan gazlama keltirilgan?

**719.** 18 ta bir xil sisternada xuddi shunday 11 ta sisternaga qaraganda 350 t ko'p neft bor. 18 ta sisternada qancha neft bor?

 **720.** Xaridorda 1 000 so‘m pul bor edi. U 120 so‘mdan 3 kg olma va shu narxda 2 kg pomidor sotib oldi. Unda qancha pul ortib qoldi? Masalani turli usullar bilan yeching.

 **721.**  $64\ 080 : 9 \cdot 70$  |  $956 \cdot 400 : 80$   
●  $26 \cdot (37 - 72 : 6)$  |  $57 : 19 \cdot 70$

**722.** Ko‘paytmani qanday topganingizni tushuntiring:



$\begin{array}{r} \times 84 \\ 39 \\ \hline 756 \\ +252 \\ \hline 3276 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 523 \\ 96 \\ \hline 3138 \\ +4707 \\ \hline 50208 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 1942 \\ 34 \\ \hline 7768 \\ +5826 \\ \hline 66028 \end{array}$
---	---	--

**723.**  $78 \cdot 54$  |  $856 \cdot 43$  |  $456 \cdot 59$  |  $7\ 268 \cdot 19$   
 $28 \cdot 35$  |  $907 \cdot 68$  |  $527 \cdot 32$  |  $2\ 234 \cdot 37$

Misollarning yechilishini quyidagi reja bo‘yicha tushuntiring:

- 1) Birliklar soniga ko‘paytirib, birinchi to‘liqsiz ko‘paytmani hosil qilaman.
- 2) O‘nliklar soniga ko‘paytirib, ikkinchi to‘liqsiz ko‘paytmani hosil qilaman.
- 3) To‘liqsiz ko‘paytmalarni qo‘shib, natijani o‘qiyman.
- 4) Javobni o‘qiyman.


**724.** Jadvalda berilgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi sport maydonlarining o‘lchamlaridan foydalanib, yuzlarini hisoblang:

To‘g‘ri to‘rtburchak tomonlari	Maydonlar		
	futbol	basketbol	xokkey
Bo‘yi	100 m	26 m	61 m
Eni	60 m	14 m	30 m

**725.** Yangioboddan Toshkentgacha 122 km. Avtobus Yangioboddan yo'lga chiqib, 48 km/soat tezlik bilan 2 soat yurdi. Toshkentgacha yana necha kilometr yo'l qoldi?



**726.** 1) Shuhrat 5 ta, Muxtor 3 ta shunday daftar sotib oldi. Qaysinisi ko'p pul to'lashi kerak?  
2) Shuhrat 2 ta daftar ortiq sotib oldi va Muxtorga qaraganda 60 so'm ortiq to'ladi. Daftarning bahosini toping.



<b>727.</b>	$c$	8	10	17	93	246	732
	$37 \cdot c$						



Har bir ustundagi misollarning tuzilishidagi qonuniyatni aniqlang va tushib qolgan sonlarni qo'ying:

$$22 \cdot 1 = 22$$

$$3 \cdot 1 + 1 = 4$$

$$10 \cdot 4 - 4 = 36$$

$$22 \cdot 2 = 44$$

$$3 \cdot 2 + 2 = 8$$

$$10 \cdot 3 - 3 = 27$$

$$22 \cdot 3 = 66$$

$$3 \cdot 3 + 3 = 12$$

$$10 \cdot 2 - 2 = 18$$

$$22 \cdot \bigcirc = \square$$

$$3 \cdot \square + \bigcirc = \diamond$$

$$10 \cdot \square - \bigcirc = \triangle$$

**728.** Uchta qo'yning massasini tarozida tortib aniqlashdi: 28 kg, 31 kg, 34 kg. Bitta qo'yning o'rtacha massasini hisoblang.

**729.** Xo'jalik sabzavot omboriga birinchi kun 3 mashina karam, ikkinchi kun esa 8 ta shunday mashina karam jo'natdi. Ikkinchi kun 15 t ko'p karam jo'natildi. Ikkinchi kun necha tonna karam jo'natilgan?


**730.**  $8\,491 \cdot 73$

$2\,758 \cdot 62$

$94\,720 : 80 \cdot 96 + 89\,994$

$99\,630 : 90 \cdot 79 - 36\,958$

**731.** Hamma uchburchaklarning va to'rtburchaklar-




ning nomini yozing. To'rtburchaklardan qaysinisi to'g'ri to'rtburchak?

To'g'ri to'rtburchakning perimetrini va yuzini hisoblang.



**732.** Ertalab soat 10 da temiryo'l vokzalidan qarama-qarshi yo'nalishda ikkita poyezd yo'lga chiqdi va soat 13 da ular orasidagi masofa 330 km bo'ldi. Agar poyezdlardan birining tezligi 50 km/soat bo'lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.



**733.**  $69 \cdot 74$   
 $92 \cdot 55$

$45\ 040 : 80 - 18\ 240 : 60$   
 $283 \cdot 50 + 384 \cdot 200$

**734.** 1) Po'lat 9 ta otkritka, Yo'ldosh esa xuddi shunday 5 ta otkritka sotib oldi. Hamma xarid uchun Po'lat Yo'ldoshga qaraganda 20 so'm ortiq to'ladi. Bitta otkritka necha so'm turadi?



2) Po'lat 9 ta otkritka, Yo'ldosh esa xuddi shunday 5 ta otkritka sotib oldi. Hamma xarid uchun Po'lat Yo'ldoshga qaraganda 20 so'm ortiq to'ladi. Po'lat va Yo'ldosh har bir xarid uchun necha so'mdan to'lashgan?

**735.** Jadvaldan foydalanib uchta sodda masala tuzing, ularni yeching:

To'g'ri to'rtburchakning bo'yi	To'g'ri to'rtburchakning eni	To'g'ri to'rtburchakning yuzi
16 dm	?	64 dm <sup>2</sup>
9 m	8 m	?
?	5 sm	75 sm <sup>2</sup>

**736.** Misollarning yechilishini ko'rib chiqing va tushuntiring:



$\begin{array}{r} \times 7300 \\ 54 \\ \hline + 292 \\ 365 \\ \hline 394200 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 9007 \\ 89 \\ \hline + 81063 \\ 72056 \\ \hline 801623 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 4080 \\ 36 \\ \hline + 2448 \\ 1224 \\ \hline 146880 \end{array}$
--	--	--

**737.**  $4\ 280 \cdot 57$  |  $8\ 040 \cdot 36$  |  $19\ 750 : 50 \cdot 92$   
 $7\ 004 \cdot 29$  |  $7\ 237 \cdot 48$  |  $508\ 000 : 800 \cdot 16$

**738.** Brigada paxta tozalash zavodiga birinchi kun har birida 2 t 7 sr dan 10 mashina paxta, ikkinchi kun esa birinchi kundagining  $\frac{9}{10}$  qismiga teng paxta jo'natdi. Shu ikki kun ichida brigada zavodga qancha paxta jo'natgan?



**739.** Ustada bo'yi 65 sm, eni 76 sm bo'lgan oyna bor edi. Undan uzunligi 52 sm va eni 37 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakli qirqib olingandan keyin qolgan oynaning yuzini hisoblang.



**740.** Tenglamalarni yeching:

$620 - x = 80$  |  $x + 120 = 400$  |  $x : 9 = 14$  |  $30 \cdot x = 270$



Bolada bir nechta jeton bor edi. U hisoblab ko'rib, agar bitta shokolad olsa, 2 ta jetoni qolishini, agar ikkita shokolad olsa, bitta jeton yetmasligini aniqladi. Bolada qancha jeton bo'lgan?


**741.** 1) Bo'yi 6 m, eni 5 m va balandligi 4 m bo'lgan sinf xonasida 24 o'quvchi o'qiydi. Bir o'quvchiga necha kub metr havo to'g'ri keladi?



2) Bizning bo'yi ... m, eni ... m va balandligi ... m bo'lgan sinfimizda ... o'quvchi o'qiydi. Bizning sinfimizda har bir o'quvchiga necha kub metr havo to'g'ri keladi?

**742.** Ikkita avtomobil bir xil tezlik bilan harakat qildi va biri 9 soat, ikkinchisi 4 soat yo'lda bo'ldi. Agar birinchi avtomobil ikkinchisidan 320 km ortiq yo'l yurgan bo'lsa, har bir avtomobil necha kilometr yo'l yurganini toping.


**743.** Rasmda yozgi oromgoh xaritasi tasvirlangan. Xaritada 1 sm joy 200 m masofani bildiradi (mashtab: 1sm da 200 m). Xaritadan foydalanib haqiqiy masofani (to'g'ri chiziq bo'yicha) toping: oshxona – hovuz, oshxona – yotoqxona, sport maydoni – hovuz, yotoqxona – sport maydoni, yotoqxona – hovuz, oshxona – sport maydoni.



**744.**  $456 \cdot 26$   
 $802 \cdot 37$   
 $970 \cdot 82$


$4\ 027 \cdot 53$   
 $7\ 804 \cdot 67$   
 $6\ 580 \cdot 44$

$320 \cdot 75 : 800$   
 $860 \cdot 34 : 40$   
 $46\ 800 : 90 \cdot 48$

 **745.** Detsimetrlarda ifodalang: 4 m, 7 m 3 dm, 80 sm, 130 sm.


Santimetrlarda ifodalang: 8 dm, 9 dm 4 sm, 50 mm, 340 mm.

Minutlarda ifodalang: 2 soat, 3 soat 40 min, 180 s, 540 s.

 **746.** a) uchburchakning perimetrini;  
b) to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang:



**747.** 375 sonini ikki xonali songa ko'paytirish bilan uni uch xonali songa ko'paytirishni taqqoslang:



Har bir misolda to'liqsiz ko'paytma qanday hosil bo'lganini tushuntiring va ularning nomini o'qib bering. Ikkinchi misolda uchinchi to'liqsiz ko'paytmaning yozi-lishini tushuntiring.

573 va 426 sonlarining ko'paytmasini ayting.

**748.** Ko'paytirishni tushuntirib bajaring:

$$392 \cdot 458 \quad | \quad 645 \cdot 384 \quad | \quad 972 \cdot 418 \quad | \quad 727 \cdot 641$$

**749.** Xaridor do'kondan metri 225 so'mdan 12 m chit va metri 280 so'mdan 15 m satin sotib oldi. U hammasi uchun qancha pul to'lagan?


**750.** O'quvchi dars tayyorlash uchun bir kunda o'rta-cha 1 soat 50 minut vaqt sarflaydi. O'quvchi dars tayyorlash uchun 6 kunda qancha vaqt sarflaydi? 14 kunda-chi?

**751.** 1) Uchta sonning yig'indisini toping: birinchi son 136, ikkinchi son undan 214 marta katta, uchinchi son ikkinchisidan 198 ta ortiq.

2) Ko'paytmani toping: birinchi ko'paytuvchi 954, ikkinchi ko'paytuvchi 358.

3) 649 ni 768 marta orttiring.

**752.**



Hamma kesmalarning nomlarini yozing:



**753.** Fabrikada 1 069 ta 18 varaqli va 2 405 ta 12 varaqli daftar tayyorlandi. Hamma daftarlarda necha varaq bor?



**754.** Agar  $c = 68$ ;  $c = 145$  bo'lsa,  $376 \cdot c$  ifodaning qiymatini hisoblang.

**755.** Ko'paytirish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:

$\times 690$	$\times 809$
$\times 935$	$\times 723$
$+ 345$	$+ 2472$
$+ 207$	$+ 1608$
$276$	$5628$
$300150$	$581292$



**756.** Tushuntirish bilan yeching:

$$490 \cdot 256 \quad | \quad 702 \cdot 249$$

**757.**  $305 \cdot 621$  |  $620 \cdot 387$  |  $7820 \cdot 15$  |  $402750 : 90$   
 $708 \cdot 354$  |  $240 \cdot 194$  |  $4030 \cdot 68$  |  $625860 : 30$


**758.** Zalning bo'yi 18 m, eni bo'yidan 6 m qisqa, balandligi esa enidan 7 m qisqa. Zalning hajmini hisoblang.

**759.** Tikuvchilik ustaxonasiga 2 to'p gazmol keltirildi. I to'pda 88 metr va II to'pda 108 m gazmol bo'lib, ulardan bir xil ayollar ko'ylaklari tikildi. Agar I to'pdan II ga qaraganda 5 ta ko'ylak kam tikilgan bo'lsa, har qaysi to'pdan nech-tadan ko'ylak tikilganini hisoblang.

**760.** Bir bo'lak gazmol 180 so'm turadi. Ikkinchi bo'lagi 420 so'm turadi. Ikkinchi bo'lak birinchi-sidan 4 m ortiq bo'lsa, har qaysi bo'lakda necha metr gazmol bor?



**761.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maktab hovli-sining bo'yi 32 m, eni 24 m bo'lib, uning to'rt-dan uch qismini sport maydonchasi egallagan. Qolgan qismi yo'l-kalar va gulzordan iborat. Gul-zor va yo'l-kalarning yuzi necha kvadrat metr?



Perimetri berilgan to'g'ri to'rtburchakning pe-rimetriga teng bo'lgan boshqa to'g'ri to'rtbur-chak chizing:



$$\begin{array}{r} \times \quad \diamond 3 \diamond \\ \quad \quad \diamond 5 \\ \hline + \quad 1185 \\ \quad \quad \diamond 8 \\ \hline 10 \diamond 6 \diamond \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times \quad 47 \diamond \\ \quad \quad \diamond 9 \\ \hline + \quad \diamond 57 \\ \quad \quad \diamond 5 \\ \hline 279 \diamond \diamond \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times \quad \diamond 4 \diamond \\ \quad \quad \diamond 1 \\ \hline + \quad 6 \diamond 5 \\ \quad \quad \diamond 15 \\ \hline 19 \diamond \diamond \\ \hline 2 \diamond 92 \diamond \diamond \end{array}$$

**763.** Ko'paytirish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:



$\begin{array}{r} \times 672 \\ 508 \\ \hline 5376 \\ + 3360 \\ \hline 341376 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 849 \\ 530 \\ \hline 2547 \\ + 4245 \\ \hline 449970 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 607 \\ 309 \\ \hline 5463 \\ + 1821 \\ \hline 187563 \end{array}$
--	--	--

Har bir misolda to'liqsiz ko'paytmalarni ayting. Nima uchun bunday hollarda faqat ikkita to'liqsiz ko'paytma yozilishini tushuntiring.

**764.** Tushuntirish bilan yeching:

$$324 \cdot 809 \quad | \quad 593 \cdot 650$$

$$\begin{array}{l} \mathbf{765.} \quad 524 \cdot 607 \quad | \quad 321 \cdot 940 \quad | \quad (256\,389 + 396\,519) : 3 \\ \quad 407 \cdot 203 \quad | \quad 286 \cdot 430 \quad | \quad (890\,000 - 712\,084) : 4 \end{array}$$

**766.** Ikki operator bir xil vaqt davomida kompyuterda 99 bet matn yozdi. Birinchi operator soatiga 5 bet, ikkinchisi 6 bet yoza olsa, har bir operator necha betdan yozgan?




**767.** Binoning bo'yi 30 m, eni bo'yining  $\frac{3}{5}$  qismiga teng, balandligi esa enining  $\frac{1}{6}$  qismiga teng. Binoning hajmi nimaga teng?

**768.** Tenglama tuzib yeching:

- 1) o'ylangan sonni 680 ga bo'linsa, 17 chiqadi;
- 2) noma'lum sonni 14 ga bo'linsa, 83 chiqadi.



**769.** Kerakli sonlarni qo'ying:




$$4 \text{ dm}^2 = \square \text{ sm}^2$$

$$300 \text{ sm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$250 \text{ sm}^2 = \square \text{ dm}^2 \square \text{ sm}^2$$

$$2 \text{ dm } 6 \text{ sm} = \square \text{ sm}$$



**770.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$350 : 80 \quad | \quad 800 : 90 \quad | \quad 600 : 70 \quad | \quad 290 : 40$$

**771.** Masalalarning yechilishini taqqoslang:

1) G'alla o'rimida bir kunda bir yuk mashinasi haydovchisi 5 marta, ikkinchi haydovchi 3 marta qatnadi va har safar bir xil miqdorda don tashildi. Agar 1-haydovchi 2-haydovchiga qaraganda 10 t ortiq don tashigan bo'lsa, har qaysi haydovchi qanchadan don tashigan?

2) Bir haydovchi bir kunda 25 t va ikkinchisi 15 t don tashidi. 1-haydovchi 2-haydovchiga qaraganda 2 marta ortiq qatnagan bo'lsa, har qaysi haydovchi necha martadan qatnagan?

**772.** 1) 100 l sutdan 8 kg pishloq olinadi. 5 l sutdan qancha pishloq olish mumkin?

2) 3 m baxmal uchun to'langan pul 14 m shoyi uchun to'langan pulga teng. Agar bir metr baxmal 140 so'm tursa, bir metr shoyi qancha turishini toping.

**773.** Yuzi  $80 \text{ m}^2$  ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak tomonlarining uzunliklari qanday bo'lishi mumkin?

**774.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi gulzorning bo'yi 16 m, eni esa 10 m. Uning yuzi poliz yuzining beshdan bir qismiga teng. Polizning yuzini toping.

**775.** Tengsizliklar to'g'rimi:

$$\begin{array}{l|l} 216 \cdot 70 > 216 \cdot 17 & 267 \cdot 34 < 267 \cdot (4 \cdot 8) \\ 403 \cdot 90 < 413 \cdot 90 & 625 \cdot 10 \cdot 3 > 625 \cdot 13 \end{array}$$

**776.**  $670 \cdot 308 + 520 \cdot 805$  |  $300 \cdot 270 - 18 \cdot 2\ 040$

**777.** Ombor qirradi 4 m ga teng bo'lgan kub shaklida. Omborning hajmini hisoblang.



## Mustahkamlash uchun mashqlar

1.  $36 \cdot 8$  |  $17 \cdot 30$  |  $13 \cdot 60$  |  $15 \cdot 30$  |  $13 \cdot 12$   
 $78 \cdot 5$  |  $42 \cdot 20$  |  $45 \cdot 20$  |  $14 \cdot 50$  |  $18 \cdot 11$

2.  $6\ 300 : 100$  |  $23\ 430 : 10$  |  $170 \cdot 0 \cdot 130$  |  $36 \cdot 1$   
 $4\ 700 : 10$  |  $65\ 200 : 100$  |  $60 \cdot 80 \cdot 0$  |  $36 : 1$

3.  $4\ 527 \cdot 50 - 710\ 037 : 9$  |  $826 \cdot 400 - 270\ 018 : 6$   
 $8\ 213 \cdot 30 - 12\ 240 : 30$  |  $734\ 600 : 50 + 454 \cdot 40$

4. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$167 : 40$  |  $472 : 50$  |  $810 : 400$  |  $2\ 150 : 600$

5. Tekshiring, tengliklar to'g'rimi:

$846 \cdot 10 \cdot 3 = 846 \cdot 30$  |  $800 : 10 : 5 = 800 : 50$   
 $57 \cdot 600 = 57 \cdot 6 \cdot 100$  |  $1500 : 30 = 1500 : 100 : 3 ?$

6.  $983 \cdot 16$  |  $7\ 352 \cdot 14$  |  $1\ 780 \cdot 23$  |  $809 \cdot 57$  |  $6\ 070 \cdot 25$   
 $594 \cdot 37$  |  $1\ 185 \cdot 23$  |  $7\ 820 \cdot 36$  |  $3\ 056 \cdot 45$  |  $7\ 060 \cdot 34$

7. «Xatolikni toping va tuzating» o'yini



$$\begin{array}{r} \times 2400 \\ 13 \\ \hline + 72 \\ 24 \\ \hline 9600 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 317 \\ 400 \\ \hline 12680 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \times 3090 \\ 58 \\ \hline + 2472 \\ 1545 \\ \hline 17922 \end{array}$$


8.  $287 \cdot 345$  |  $620 \cdot 305$  |  $806 \cdot 324$  |  $465 \cdot 720 : 300$   
 $491 \cdot 723$  |  $320 \cdot 406$  |  $781 \cdot 507$  |  $580\ 400 : 400$

9.  $806 \cdot (7\ 010 - 6\ 625)$  |  $23\ 099 + 281 \cdot 406$   
 $150\ 100 - 697 \cdot 208$  |  $400\ 000 - (537 + 163) \cdot 196$

10. Bir samolyot 3 000 km, ikkinchisi 1 800 km masofaga uchdi. 1- samolyot 2- samolyotga qaraganda 2 soat uzoqroq uchdi. Agar ularning tezliklari bir xil bo'lsa, har qaysi samolyot necha soatdan uchgan?

11. Ikkita samolyot bir vaqtda aeroportdan ko'tarildi va qarama-qarshi tomonga uchib ketdi. 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa 3 540 km bo'ldi. Agar ulardan biri 620 km/soat tezlik bilan uchgan bo'lsa, ikkinchi samolyotning tezligini toping.

12. Jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha masala tuzing:

1) 

Bahosi	Miqdori	Qiymati
400 so'm	3 kg	?
380 so'm	4 kg	?


2)

Bo'yi	Eni	Yuzi
12 m	5 m	?
?	4 dm	48 dm <sup>2</sup>
10 sm	?	120 sm <sup>2</sup>

13. Agar: 1)  $c = 17\,488$ ,  $d = 3$ ; 2)  $c = 72\,480$ ,  $d = 60$  bo'lsa,  $c : d$  ifodaning qiymatini hisoblang.

14. Avtobus birinchi soatda 56 km, ikkinchi soatda 48 km, uchinchi soatda esa ikkinchi soatdagidan 4 km ko'p yo'l bosdi. Avtobus har bir soatda o'rtacha necha kilometrda yurgan?

15. Yashikning eni 3 dm, bo'yi enidan 3 marta uzun, balandligi esa enidan 2 dm ga qisqa. Yashikning hajmini hisoblang.



- 1) Rasmdagi hamma ko'pburchaklarni ayting.
- 2) Har bir ko'pburchakning perimetrini hisoblang.
- 3) To'g'ri to'rtburchakni toping va yuzini hisoblang.



### Takrorlash uchun topshiriqlar



1. Sonni yig'indiga qanday ko'paytirish mumkin ekanligini ayting. Misol tuzing.
2. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirishga misol tuzing. Uni tushuntirish bilan yeching.
3. Uch xonali sonni uch xonali songa ko'paytirishga misol tuzing. Uni tushuntirish bilan yeching.



## Ikki xonali va uch xonali songa bo'lish

778. 1) 686 soni 98 ga qanday bo'linganini ko'rib chiqing.



$\begin{array}{r} 686 \overline{) 98} \\ 686 \overline{) 7} \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 224 \overline{) 56} \\ 224 \overline{) 4} \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 293 \overline{) 32} \\ 286 \overline{) 9} \\ \hline 5 \end{array}$
--	--	--

**Tushuntirish:** 686 ni 98 ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** Bo'linmadagi raqamni osonroq topish uchun 686 ni 98 ga emas, 90 ga bo'lamiz.

**Bo'lamiz:** 686 ni 90 ga. Buning uchun 68 ni 9 ga bo'lamiz. 7 chiqadi. Bu sinash raqami, uni to'g'ridan-to'g'ri bo'linmaga yozish mumkin emas, chunki 686 ni 98 ga emas, 90 ga bo'ldik. Shuning uchun oldin 7 raqami to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirib ko'rish kerak.

**Ko'paytiramiz:** 98 ni 7 ga ko'paytiramiz. 686 hosil bo'ladi. Demak, 7 raqami to'g'ri tanlangan. Uni bo'linmaga yozamiz.

2) Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring.

Uchinchi misolda bo'lishda qoldiq qanday hosil qilganini tushuntiring.

3) Yozuvi bo'yicha 225 soni 75 ga qanday bo'linganini tushuntiring.

$$\begin{array}{r} - 225 \overline{) 75} \\ 225 \overline{) 3} \\ \hline 0 \end{array}$$

**779.**  $564 : 94$  |  $390 : 78$  |  $252 : 84$  |  $261 : 29$   
 $774 : 86$  |  $360 : 45$  |  $460 : 92$  |  $259 : 37$

**780.** 84 ta bolta tayyorlash uchun 75 kg po'lat sarf bo'ldi. 336 ta shunday bolta tayyorlash uchun qancha po'lat kerak bo'ladi?

**781.** O'rmonda bir qatorga 837 tup, ikkinchi qatorga esa undan 3 marta kam daraxt ko'chati o'tqazildi. O'tqazilgan daraxt ko'chatlarining to'q-qizdan bir qismini yong'oq daraxti ko'chati tashkil etadi, qolganlari har xil daraxt ko'chatlari. Qancha yong'oq daraxti ko'chati o'tqazilgan?



**782.** Ekin maydoni to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Uning bo'yi 40 m, eni esa 30 m. Maydonning beshdan bir qismini poliz ekinlari, qolgan qismini kartoshka egallagan. Kartoshka uchun ajratilgan maydonning yuzini toping.



**783.**  $(200\ 000 - 8\ 325 \cdot 4) : 100 \quad | \quad 87 \cdot 93 \quad | \quad 604 \cdot 12$

**784.** Qoldiqli bo'lish qanday bajarilganini qarab chiqing:



48378	59284	29192
4686	5887	2763
15	4	15

Ikki xonali songa qoldiqli bo'lishda ham xuddi qoldiqsiz bo'lishdagi kabi mulohaza yuritiladi.


**785.** Bo'linma va qoldiqni toping:

$682 : 96 \quad | \quad 511 : 63 \quad | \quad 340 : 37 \quad | \quad 581 : 72$


**786.** Bitta avtomat har soatda 69 ta, ikkinchi avtomat 84 ta o'yinchoq tayyorlaydi. Agar bir kun davomida 1-avtomat 552 ta o'yinchoq tayyorlagan bo'lsa, ikkala avtomat birgalikda nechta o'yinchoq tayyorlagan?

**787.** Bo'yi 8 m, eni 6 m bo'lgan sinf xonasi polini bo'yash uchun har biri 3 kg dan 4 banka bo'yoq sotib olindi. Agar polning  $1\text{ m}^2$  iga 250 g bo'yoq ketsa, sotib olingan bo'yoq polning hammasini bo'yash uchun yetadimi?

788.



C burchakka ega bo'lgan barcha shakllarni ayting.



789. Sayyohlar paroxodda 83 soat suzishdi. Bu necha sutka va necha soat bo'ladi?



790. Tenglamalarni yeching:

$$70\ 009 - x = 29\ 368 \quad | \quad 4\ 214 : x = 7$$

791. Bo'lish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:



3	1	2	2	4	1	4	7	2	4	6	6	1	4	2	8	3
2	4	1	7	3	1	3	8	3	2	5	8	1	7	4		
7	2	.	.		9	2	.	.	3	3	2	.	.			
7	2				9	2			3	3	2					
0					0				0							

**Tushuntirish:** 6 142 sonini 83 ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** 6 142 ni 83 ga emas, 80 ga bo'lamiz.

**O'nliklarni bo'lamiz:** 614 ta o'nl. – birinchi to'liqsiz bo'linuvchi. Demak, bo'linmada ikkita raqam bo'ladi.

**Bo'lamiz:** 614 ni 80 ga. Buning uchun 61 ni 8 ga bo'lamiz, 7 chiqadi. Bu sinash raqami bo'lgani uchun uni tekshirib ko'ramiz.

**Ko'paytiramiz:** 83 ni 7 ga. 581 hosil bo'ladi. 7 raqami to'g'ri topilgan. Uni bo'linmaga yozamiz.

**Ayiramiz:** 614 dan 581 ni, 33 chiqadi. Bu – qoldiq.

Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:  $33 < 83$ .

Demak, bo'lishni davom ettirish mumkin.

**Birliklarni bo'lamiz:** 33 o'nlik – bu 330 birlik, yana 2 birlik, hammasi 332 birlik. Bu ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi.

Tushuntirishni davom ettiring.

Ikkinchi misolning yechilishini tushuntiring.

**792.** Bo'lishni tushuntirish bilan bajaring:

Keltirilgan reждан foydalaning:

- 1) Birinchi to'liqsiz bo'linuvchini ayting. Bo'linmada nechta raqam bo'lishini aniqlang.
- 2) Bo'linmaning birinchi raqamini qanday topganingizni ayting.
- 3) Ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchini ayting.
- 4) Bo'linmaning ikkinchi raqamini qanday topganingizni ayting.
- 5) Bo'linmaning raqamlarini to'g'ri topganingizni tekshiring.

$$1\ 176 : 49 \quad | \quad 5\ 096 : 56 \quad | \quad 350 \cdot 428 : 700$$

**793.** Masalalarni yeching va yechilishlarini taqqoslang:

- 1) Tegirmonga 39 qop bug'doy va 27 qop arpa keltirildi. Tegirmonga arpaga qaraganda 840 kg ko'p bug'doy keltirildi. Agar bug'doyli va arpali qoplar bir xil mas-saga ega bo'lsa, tegirmonga necha kilogramm bug'doy va necha kilogramm arpa keltirilgan?
- 2) Tegirmonga bir xil qoplarda 2 730 kg bug'doy va xuddi shunday qoplarda 1 890 kg arpa keltirildi. Bug'doy ar-paga nisbatan 12 qop ko'p keltirildi. Necha qop bug'doy va necha qop arpa keltirilgan?

**794.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$211 - 126 - 74 \cdot 8 = 88 \quad | \quad 985 - 396 : 18 - 819 = 144$$



**795.** Do'konga har biri 50 kg dan 4 qop un keltirildi. Hamma un 2 kg dan qilib xaltachalarga joylandi. Nechta xaltacha kerak bo'lgan?



**796.**  $124\ 440 : 60 \quad | \quad 228\ 090 : 30 \quad | \quad 4\ 273 \cdot 83 \quad | \quad 3\ 148 \cdot 75$

$$\begin{array}{r} 4\ 273 \cdot 83 \\ \underline{4\ 15} \quad 5 \\ 123 \end{array}$$

**797.** 792-mashqda keltirilgan rejadan foydalanib, bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r}
 \underline{44\ 748} \quad | \quad \underline{36} \\
 \underline{36} \quad \quad | \quad 1243 \\
 \underline{87} \\
 \underline{72} \\
 \underline{154} \\
 \underline{144} \\
 \underline{108} \\
 \underline{108} \\
 \underline{0}
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 \underline{162\ 288} \quad | \quad \underline{42} \\
 \underline{126} \quad \quad | \quad 3864 \\
 \underline{362} \\
 \underline{336} \\
 \underline{268} \\
 \underline{252} \\
 \underline{168} \\
 \underline{168} \\
 \underline{0}
 \end{array}$$





**798.**  $23\ 115 : 67$  |  $93\ 342 : 94$  |  $293\ 017 : 71 \cdot 39$


**799.** Rejaga ko'ra tokar 27 kunda 756 ta detal tayyorlashi kerak edi. Agar tokar har kuni 36 tadan detal tayyorlagan bo'lsa, u rejasini muddatida bajarganmi? Masaladagi ma'lumotlar bo'yicha yana nimalarni bilish mumkin?

**800.** Do'konda 280 ta televizor bor edi. Uning yettidan to'rt qismi sotildi. Sotilgan televizorlar qolganlaridan nechta ortiq?

**801.**  $x$  harfiga quyidagi tengsizlik to'g'ri bo'ladigan qanday eng katta qiymat berish mumkin:  
 $600 - x > 150$  ?

 **802.** To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 4 dm, eni esa undan 1 dm 5 sm qisqa. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping. (Tomonlarining uzunligini santimetrlarda ifodalang.)

 **803.** 1)  $BD$  kesma umumiy tomon bo'lgan beshta shaklni ayting.



2)  $AE$  tomon qaysi shakllar uchun umumiy bo'ladi?



G'ayrat va Ma'sudada bir xil miqdorda kitob bor edi. Oldin Ma'suda G'ayratga bitta kitob, keyin G'ayrat Ma'sudaga 3 ta kitob sovg'a qildi. G'ayratga qaraganda Ma'sudada qancha ko'p kitob bo'ldi?

**804.** Bo'lish vaqtida bo'linmaning sinash raqami ba'zan to'g'ri kelmaydi, uni o'zgartirish kerak bo'ladi.

**Tushuntirish:** 184 ni 23 ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** 184 ni 23 ga. Buning uchun 18 ni 2 ga bo'lamiz, 9 chiqadi. 9 – sinash raqami, uni tekshirib ko'ramiz.

**Ko'paytiramiz:** 23 ni 9 ga, 207 chiqadi, bu 184 dan katta, demak, bo'linmada 9 dan kichik raqamni olish kerak.

8 ni tekshirib ko'ramiz. 23 ni 8 ga ko'paytirsak, 184 chiqadi. 8 raqami to'g'ri keladi. Demak, bo'linma 8.

**805.** Tushuntirish bilan yeching:

$$273 : 39 \quad | \quad 288 : 48 \quad | \quad 168 : 28 \quad | \quad 259 : 37$$

**806.** Ko'chaning uzunligi 600 m, eni esa 12 m. Shu ko'chaga asfalt yotqizildi. Har  $100 \text{ m}^2$  ga 3 t asfalt ketdi. Butun ko'chaga qancha asfalt kerak bo'lgan?

**807.** Uchuvchi 4 200 km masofani uchib o'tishi kerak edi. U dastlabki 2 soatda 620 km/soat tezlik bilan, keyingi 3 soatda 635 km/soat tezlik bilan uchdi. Uchuvchi yana necha kilometr uchishi kerak?

**808.** Ifoda tuzing va qiymatini hisoblang:

- 1) 407 va 374 sonlarining ko'paytmasini 10 578 ta kamaytiring;
- 2) 2 148 va 1 954 sonlarining ayirmasini 37 ga ko'paytiring;
- 3) 1 357 va 983 sonlarining yig'indisini 26 marta orttiring.



**809.** Tumanga 2 ta yuk poyezdida 1 824 t mineral o'g'it keltirildi. Birinchi poyezdda 24 vagon, ikkinchi poyezdda esa 33 vagon bor edi. Har bir poyezdda necha tonnadan mineral o'g'it keltirilgan?



**810.**  $256\,302 : 87$  |  $181\,366 : 59$  |  $483 \cdot 250 : 75$

**811.**  $45\text{ kg } 050\text{ g} : 85\text{ g}$  |  $3\text{ m} : 25\text{ sm}$  |  $10\text{ t} - 10\text{ kg}$   
 $52\text{ m } 03\text{ sm} : 43\text{ sm}$  |  $2\text{ t} : 25\text{ kg}$  |  $10\text{ m} - 10\text{ sm}$

**812.** Masalalarni yeching va yechilishlarini taqqoslang.

- 1) Bir haydovchi yuk mashinasida 128 sr, ikkinchi haydovchi esa 224 sr qum keltirdi. Birinchi haydovchi 3 ta ko'p qatnadi. Har bir haydovchi necha marta qatnagan?
- 2) Ikki haydovchi yuk mashinalarida qum keltirishdi. Birinchisi 7 marta, ikkinchisi 4 marta qatnadi. Birinchi haydovchi 96 sr ko'p qum keltirdi. Har bir haydovchi qancha qum keltirgan?

**813.** Tenglamalarni yeching:

$$\begin{array}{l|l|l} x + 378 = 846 & 704 - x = 375 & x - 377 = 614 \\ x : 12 = 2\,046 & 174 : x = 29 & 36 \cdot x = 3\,600 \end{array}$$

**814.** Agar  $b = 896\text{ m}$ ;  $b = 3104\text{ kg}$  bo'lsa,  $b : 32$  ifodaning qiymatini hisoblang.

**815.** Yuzi  $100 \text{ m}^2$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlari uzunliklari qanday bo'lishi mumkin?



**816.** Tenglik to'g'rimi:

$$1\ 428 : 42 = 2\ 856 : 84 \quad | \quad 5\ 408 - 936 = 5\ 208 - 736 ?$$



**817.**  $34\ 872 : 8$

$2\ 814 : 67$

$8\ 900 : 50$



$10\ 297 : 7$

$936 : 26$

$41\ 925 : 65$

**818.** Masalalarni yeching va yechilishlarini taqqoslang:



1) Otliq bir xil tezlik bilan  $65 \text{ km}$  yurdi. U to'xtaguncha  $3$  soat, to'xtagandan so'ng yana  $2$  soat yurdi. Otliq to'xtaguncha necha kilometr va to'xtagandan so'ng necha kilometr yurgan?

2) Otliq to'xtaguncha  $39 \text{ km}$ , to'xtagandan so'ng  $26 \text{ km}$  yurdi. U yo'lda  $5$  soat bo'ldi. Agar otliq bir xil tezlik bilan yurgan bo'lsa, to'xtaguncha necha soat, to'xtagandan so'ng necha soat yurgan?

**819.**  $9\ 210 : 30$

$7\ 410 : 13$

$243\ 144 : 72$

$4\ 088 : 73$

$4\ 380 : 60$

$351\ 456 : 84$

**820.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$314 : 47$

$605 : 64$

$584 : 83$

$247 : 76$

$165 : 35$

$654 : 71$

**821.**  $2 \text{ t} - 7 \text{ sr}$

$370 \text{ kg} + 800 \text{ kg}$

$2 \text{ min} - 50 \text{ s}$

$2 \text{ soat} - 9 \text{ min}$

$730 \text{ m} + 400 \text{ m}$

$6 \text{ dm} - 7 \text{ sm}$

**822.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$160 : 5 + 3 \cdot 5 = 100$$

$$160 : 5 + 3 \cdot 5 = 8$$

$$160 : 5 + 3 \cdot 5 = 175$$





**823.** Ikkita poyezd bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. 1- poyezdning tezligi 65 km/soat, 2- poyezdning tezligi 70 km/soat. Agar uchrashguncha 2- poyezd 280 km yurgan bo'lsa, 1- poyezd qancha yo'l yurgan?



**824.** Ifodalarni taqqoslang:

●  $47 \cdot 10 + 47 \cdot 3$  va  $47 \cdot 10 \cdot 3$  |  $720 : 10 : 6$  va  $720 : 60$

**825.** 1) Bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:

$$\begin{array}{r|l}
 42320 & 46 \\
 \underline{414} & 920 \\
 \underline{\quad 92} & \dots \\
 \underline{\quad 92} & \\
 \underline{\quad 0} & \\
 \underline{\quad 0} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 21708 & 27 \\
 \underline{216} & 804 \\
 \underline{\quad 10} & \dots \\
 \underline{\quad 0} & \\
 \underline{\quad 108} & \\
 \underline{\quad 108} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 190228 & 38 \\
 \underline{190} & 5006 \\
 \underline{\quad 2} & \dots \\
 \underline{\quad 0} & \\
 \underline{\quad 22} & \\
 \underline{\quad 0} & \\
 \underline{\quad 228} & \\
 \underline{\quad 228} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}$$

2) Xuddi shu hisoblashlar nisbatan qanday qisqa yozilganini ko'rib chiqing:

$$\begin{array}{r|l}
 42320 & 46 \\
 \underline{414} & 920 \\
 \underline{\quad 92} & \dots \\
 \underline{\quad 92} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 21708 & 27 \\
 \underline{216} & 804 \\
 \underline{\quad 108} & \dots \\
 \underline{\quad 108} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r|l}
 190228 & 38 \\
 \underline{190} & 5006 \\
 \underline{\quad 228} & \dots \\
 \underline{\quad 228} & \\
 \underline{\quad 0} & 
 \end{array}$$




**826.**  $39\ 520 : 52$  |  $30\ 668 : 34$  |  $164738 : 82$  |  $9500 \cdot 29$   
 $45\ 600 : 95$  |  $13\ 802 : 67$  |  $219\ 146 : 73$  |  $64 \cdot 807$



**827.** Velosipedchi bir soat 14 km/soat tezlik bilan, ikki soat 15 km/soat tezlik bilan va yana bir soat 12 km/soat tezlik bilan yurdi.



**834.** To'g'ri to'rtburchakning yuzi  $360 \text{ sm}^2$ , tomonlaridan biri (bo'yi)  $30 \text{ sm}$ . Perimetri shu to'g'ri to'rtburchakning perimetriga teng bo'lgan kvadratning yuzini toping.

 **835.** Jadval bo'yicha sodda masalalar tuzing va ularni yeching.

To'g'ri to'rtburchakning bo'yi	To'g'ri to'rtburchakning eni	To'g'ri to'rtburchakning yuzi
?	$8 \text{ sm}$	$80 \text{ sm}^2$
$30 \text{ sm}$	?	$150 \text{ sm}^2$
$40 \text{ sm}$	$10 \text{ sm}$	?

 **836.**  Rasmda nechta uchburchak tasvirlangan?

**837.** 1) Bo'lish qanday bajarilganini ko'rib chiqing.

$$\begin{array}{r|l} 2226 & 318 \\ -2226 & 7 \\ \hline & 0 \end{array} \qquad \begin{array}{r|l} 1410 & 235 \\ -1410 & 6 \\ \hline & 0 \end{array}$$

**Tushuntirish:**  $2\ 226$  sonini  $318$  ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** Bo'linmaning raqamini topish oson bo'lishi uchun  $2\ 226$  ni  $318$  ga emas,  $300$  ga bo'lamiz.

**Bo'lamiz:**  $2\ 226$  ni  $300$  ga, buning uchun  $22$  ni  $3$  ga bo'lamiz, bo'linmada  $7$  hosil bo'ladi. Bu sinash raqami, uni tekshiramiz.

**Ko'paytiramiz:**  $318$  ni  $7$  ga,  $2\ 226$  hosil bo'ladi. Demak,  $7$  raqami to'g'ri topilgan.

2)  $1\ 410$  soni  $235$  ga qanday bo'linganini tushuntiring.

**838.** 1) Bo'lishni tushuntirish bilan bajaring:

$$5\ 216 : 652 \quad | \quad 6\ 489 : 927 \quad | \quad 7\ 506 : 834 \quad | \quad 2\ 548 : 637$$

2) Shunday tushuntirish bilan bo'linma va qoldiqni toping:

$$986 : 252 \quad | \quad 792 : 164 \quad | \quad 3816 : 524 \quad | \quad 4335 : 736$$

**839.** Masalalarni o'qing. Ifodalar qaysi masala uchun yozilgan va ular nimani anglatishini ayting.

1) To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 15 sm, eni esa 3 marta qisqa. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping.

2) To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 15 sm, eni esa 3 sm qisqa. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping.


$15 : 3$ $(15 + 15 : 3) \cdot 2$ $15 \cdot (15 : 3)$	$15 - 3$ $(15 + (15 - 3)) \cdot 2$ $15 \cdot (15 - 3)$
--	--

**840.** Ikki guruh o'quvchilar mevali ko'chatlar o'tqasizh uchun chuqurchalar qazishdi. Birinchi guruh o'quvchilari 106 ta, ikkinchi guruh o'quvchilari ulardan 7 ta kam chuqurcha qazidilar. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta chuqurcha qaziganlar?

**841.** Bo'sh katakchalarni to'ldiring:

$4 \text{ km } 050 \text{ m} = \square \text{ m}$	$6 \text{ t } 840 \text{ kg} = \square \text{ kg}$
$3 \text{ sutka } 12 \text{ soat} = \square \text{ soat}$	$240 \text{ s} = \square \text{ min.}$

<b>842.</b> $17\ 052 : 28$	$108\ 120 : 53$	$5\ 085 : 565$
$14\ 700 : 42$	$212\ 520 : 69$	$7\ 128 : 891$

**843.**  Chizmada nechta to'g'ri to'rtburchak bor? Nechta to'rtburchak bor? Nechta uchburchak bor?

**844.** 1) Bo'lish qanday bajarilganini ko'rib chiqing:



$8932 \overline{) 319}$	$12780 \overline{) 284}$
$638 \quad 28$	$1136 \quad 45$
$2552$	$1420$
$2552$	$1420$
$0$	$0$

**Tushuntirish:** 8932 ni 319 ga bo'lish kerak. Bo'linmada ikkita raqam bo'ladi, chunki  $893 > 319$ .

**O'nliklarni bo'lamiz:** 893 o'nlik – birinchi to'liqsiz bo'linuvchi.

**Bo'lamiz:** 893 ni 300 ga, 2 chiqadi. 2 – sinash raqami. Uni tekshirib ko'ramiz.

**Ko'paytiramiz:** 319 ni 2 ga, 638 hosil bo'ladi. 2 raqami to'g'ri keladi. Uni bo'linmaga yozamiz.

**Ayiramiz:** 893 dan 638 ni, 255 qoladi.

Qoldiqni bo'luvchi bilan taqqoslaymiz:  $255 < 319$ .

Demak, bo'lishni davom ettirish mumkin.

**Birliklarni bo'lamiz:** 255 o'nl. – bu 2550 birlik, yana 2 birlik. Hammasi bo'lib 2 552 birlik. Bu ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi.

Bo'lishni davom ettiring.

2) 12 780 soni 284 ga qanday bo'linganini tushuntiring.

**845.**  $14\ 625 : 325 \mid 45\ 216 : 628 \mid 62\ 856 : 873 \mid 80\ 432 : 914$

**846.**  $36\ 648 : 18 \quad \mid \quad 186\ 217 : 31 + 209 \cdot 216$

$151\ 034 : 26 \quad \mid \quad 252\ 324 : 489 : 43 + 908$

**847.** Bog'dagi suv solinadigan bak o'lchamlari 3 m, 2 m va 1 m bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida. Bakka necha litr suv ketadi?

**848.** Sayyohlar kun bo'yi 22 km yo'l yurishdi. Ular 3 soat 4 km/soat tezlik bilan yurishdi. Qolgan yo'lni 5 km/soat tezlik bilan o'tishdi. Sayyohlar necha soat yo'lda bo'lishgan?

**849.** Tenglamalar tuzing va ularni yeching:

- a) agar noma'lum son 8 marta orttirilsa, 1 008 hosil bo'ladi;  
b) agar noma'lum son 14 marta kamaytirilsa, 1 344 hosil bo'ladi.



**850.** To'g'ri to'rtburchakning eni 10 sm, bo'yi esa enidan 7 marta katta. To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanchaga teng?



**851.** Agar  $a = 306$  bo'lsa,  $452 \cdot a$  ifodaning qiymatini toping.

**852.** Bo'lishni bajaring va yechimni tekshiring:

$$140\ 954 : 473 \quad | \quad 199\ 375 : 625 \quad | \quad 557\ 768 : 452$$

**853.** Jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha tuzilgan har bir ifoda nimani bildirishini tushuntiring:



Masofa	45 km	60 km
Harakatlanish vaqti	3 soat	3 soat

$$\begin{array}{ccc|ccc} 45 : 3 & & & 45 + 60 & & (45 + 60) : 3 \\ 60 : 3 & & & 60 - 45 & & (60 - 45) : 3 \end{array}$$


**854.** Silos bostirish uchun yerda bo'yi 10 m, eni 3 m va chuqurligi 2 m bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi chuqur qazishdi. Buning uchun necha kub metr tuproq qazib chiqarilgan?


**855.** Bog'dan 3 012 kg olma terib olindi va ularning bir qismini 96 ta yashikka baravardan joylagandan keyin yana 324 kg olma qoldi. Har bir yashikka qanchadan olma joylangan?

**856.** Tenglamalarni yeching:

$$x : 14 - 6\ 045 = 5\ 533 \quad | \quad 30\ 336 : x + 537 = 921$$

**857.** Agar  $b = 18\ 081$ ;  $b = 101\ 675$  bo'lsa,  $b : 49 - 258$  ifodaning qiymatini hisoblang.

 **858.** 1) Sentnerlarda ifodalang: 65 t, 800 kg, 300 kg.  
2) Detsimetrlarda ifodalang: 70 sm, 2 m, 16 m.

 **859.**

4 t - 5 sr	240 kg + 700 kg
5 soat - 12 min	450 m + 500 m
3 min - 40 s	7 dm - 9 sm

**860.** Bo'linmaning birinchi sinashda 10 soni hosil bo'ladigan holda sinash raqamini aniqlash usulini qarab chiqing:



1080	135	135	135
1080	8	× 9	× 8
0		1215	1080

**Tushuntirish:** 1 080 ni 135 ga bo'lish kerak.

**Bo'lamiz:** 1 080 ni 100 ga. 10 chiqadi, lekin 10 soni bo'linmaning sinash raqami bo'la olmaydi, chunki xonada eng katta birlik 9. 9 ni olamiz.

**Ko'paytiramiz:** Tekshiramiz: 135 ni 9 ga ko'paytiramiz, 1 215 chiqadi, bu 1 080 dan katta, demak, bo'linma 9 dan kichik bo'lishi kerak. 8 ni tekshirib ko'ramiz.

**Tekshiramiz:** 135 ni 8 ga ko'paytiramiz, 1 080 chiqadi. Bo'linma 8.

**861.**

1 141 : 163	1 002 : 167	295 625 : 625
1 026 : 171	15 168 : 237	125 256 : 408

**862.** O'quvchilar ikkita maydonga pomidor ko'chati ekishdi. Birinchi maydonga ikkinchisiga qaraganda 720 tup ortiq ko'chat ekildi. Agar birinchi maydonning yuzi  $500\ m^2$  va ikkinchi maydonning yuzi  $320\ m^2$  bo'lsa, har qaysi maydonga necha tupdan pomidor ko'chati ekilganini hisoblang.



**863.** G'isht teruvchi ikki usta birgalikda ishlab 119 920 ta g'isht terdi. Birinchi usta 17 kun ishladi va har kuni 2 860 ta g'isht terdi. Qolgan g'ishtni ikkinchi usta 23 kunda terdi. Ikkinchi usta har kuni nechtadan g'isht tergan?


**864.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$180 : 5 + 4 \cdot 5 = 56 \quad | \quad 180 : 5 + 4 \cdot 5 = 100$$

$$180 : 5 + 4 \cdot 5 = 200$$



**865.**  $14\ 824 : 436$  |  $57\ 342 : 114$  |  $356 \cdot 802$   
 $92\ 232 : 427$  |  $66\ 447 : 321$  |  $604 \cdot 520$



**866.** Katakchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgilaridan kerakligini qo'ying:

●  $7\ \text{km}\ 046\ \text{m} \square 460\ \text{m}$  |  $32\ 020\ \text{kg} \square 32\ \text{t}\ 020\ \text{kg}$

**867.** Bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:



$181632$	$258$	$180480$	$376$
$1806$	$704$	$1504$	$480$
$1032$		$3008$	
$1032$		$3008$	
$0$		$0$	

**868.**  $40\ 546 : 194$  |  $219\ 640 : 289$  |  $338\ 352 : 456$   
 $498\ 681 : 827$  |  $145\ 070 : 163$  |  $163\ 449 : 381$


**869.** Oralaridagi masofa 980 km bo'lgan ikki shahardan ertalab soat 6 da bir-biriga qarab ikkita poyezd yo'lga chiqdi. Bir poyezdning tezligi 75 km/soat, ikkinchi poyezdning tezligi 65 km/soat bo'lsa, poyezdlar shu kuni soat 13 da uchrashadimi?


**870.** Maktab uchun televizor, magnitofon va kinoapparat sotib olinib, hammasiga 30 200 so'm



to'landi. Agar televizorning bahosi 8 500 so'm, televizor bilan magnitofon birgalikda 15 300 so'm tursa, magnitofon qancha turadi va kino-apparat qancha turadi?

- 871.** 1) Uzunligi 10 sm bo'lgan  $AB$  kesma chizing.  
2) Uzunligi  $AB$  kesma uzunligining beshdan uch qismiga teng bo'lgan  $CD$  kesma chizing.

 **872.**  $936 : 117$  |  $872 : 218$  |  $2\ 562 : 427$  |  $7\ 254 : 806$   
 $648 : 108$  |  $618 : 206$  |  $6\ 417 : 713$  |  $2\ 548 : 637$

 **873.** Tenglama tuzib yeching:

- 1) Agar 1 873 ni noma'lum songa kamaytirilsa, 227 hosil bo'ladi.  
2) Agar noma'lum sonni 60 marta kamaytirilsa, 137 hosil bo'ladi.


**874.** Qoldiqli bo'lish qanday bajarilganini tushuntiring:



3	9	4	8	6	8	4	2	9	0	7	0	9	7	6	5
3	3	6	4	7	0	2	2	9	5	3	8	0			
5	8	8				6	1	2	0						
5	8	8				6	1	2	0						
			6							9					

**875.** Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$133\ 253 : 47$  |  $835\ 679 : 214$  |  $715\ 536 : 345$

 **876.** Sayyohlar 504 km masofani o'tishdi. Ular yo'lning  $\frac{1}{8}$  qismini piyoda,  $\frac{3}{4}$  qismini otda, qolgan qismini avtobusda o'tishdi. Sayyohlar avtobusda necha kilometr yurishgan?

**877.**  $26\ \text{kg}\ 372\ \text{g} : 38 - 22\ \text{kg}\ 088\ \text{g} : 44$

**878.** Velosipedchi 4 soatda 40 km yo‘l yurdi. Qaytishda uning tezligi 2 km ga kam bo‘ldi. Qaytishga u necha soat sarfladi?



Quyidagi ifodalarning qaysi biri masalaning yechilishi bo‘ladi:

$(40 : 4 - 2) + 40$ ;  $40 : (40 : 4 - 2)$ ;  $40 : 4 + 2$  ?



**879.** Maktab ustaxonasi uchun oldin 15 ta, keyin 8 ta bolg‘acha olindi. Keyingi safar avvalgidan 112 so‘m kam pul to‘landi. Bitta bolg‘acha qancha turadi?



**880.**  $275 \cdot 48 - 6\ 306$   
 $8\ 100 - 507 \cdot 10$   
 $52\ 200 : 600 \cdot 64$

$947 + 38\ 753 : 271$   
 $4\ 964 : 34 + 258$   
 $7\ 800 : 300 \cdot 98$

**881.** Bichiqchilar 1 oy davomida  $7\ 236\ \text{dm}^2$  charmni tejab qolishdi. Agar har bir juft poyabzalga  $18\ \text{dm}^2$  charm sarflansa, tejalgan charm hisobiga yana necha juft poyabzal tikish mumkin?

**882.** Ishchi reja bo‘yicha 21 ish kunida jami 945 ta detal tayyorlashi kerak edi. Lekin u rejani muddatidan oldin 15 ish kunida bajardi. Ishchi har kuni rejadagidan nechta ortiq detal tayyorlagan?

**883.** Oralaridagi masofa 520 km bo‘lgan ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkita poyezd yo‘lga chiqdi va 4 soatdan keyin uchrashishdi. Poyezdlardan birining tezligi 60 km/soat. Ushbu ifodalar nimani bildiradi:



1)  $520 : 4$

3)  $60 \cdot 4$

2)  $520 : 4 - 60$

4)  $520 - 60 \cdot 4$  ?

**884.** 1) Misol to'g'ri bajarilganini tekshirib ko'ring.  
Nima uchun amallar shunday tartibda bajarilgan?

$$1\ 508 \cdot 98 + 53\ 119 - (4\ 085 - 34\ 354 : 89) = 197\ 204$$

$\begin{array}{r} \underline{34354} \mid 89 \\ \underline{267} \mid 386 \\ \underline{765} \\ \underline{712} \\ \underline{-534} \\ \underline{534} \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 4085 \\ \underline{-386} \\ 3699 \end{array}$	$\begin{array}{r} \times 1508 \\ \quad 98 \\ \hline + 12064 \\ \hline 13572 \\ \hline 147784 \end{array}$	$\begin{array}{r} 147784 \\ + 53119 \\ \hline 200903 \end{array}$	$\begin{array}{r} 200903 \\ \underline{-3699} \\ 197204 \end{array}$
--	---	---	---	--



2) Misollarni yeching:

$$(988 + 2\ 715 \cdot 38) : 19 \quad | \quad (1\ 000 - 10\ 586 : 79) \cdot 25$$

**885.** 1) Eng katta olti xonali son eng katta ikki xonali sondan necha marta katta?

2) Eng kichik besh xonali son eng kichik uch xonali sondan necha marta katta?

<b>886.</b> $7\ 552 : 472$	$2\ 002 : 143$	$7\ 448 : 931$
$5\ 453 : 287$	$6\ 600 : 264$	$5\ 446 : 389$

**887.** Mexanizator paxta terish mashinasida bir kunda 6 t paxta terdi. Agar to'la bunker paxta 250 kg bo'lsa, mexanizator shu kuni necha bunker paxta to'kkan? (6 tonnani kilogrammlarda ifodalang.)



Yangi uyga 6 ta stul va 2 ta kursi olib kelindi. Bu buyumlardan 3 tasi oshxonaga qo'yildi. Oshxonaga stul qo'yilganmi?

**888.** Masalalarni yeching va yechilishlarini taqqoslang:

1) O'quvchilar ikkita maydondan 234 kg sabzavot yig'ishtirib oldilar. Birinchi maydonning

yuzi  $48 \text{ m}^2$ , ikkinchisidiki  $30 \text{ m}^2$ . Har qaysi maydondan necha kilogrammdan sabzavot yig'ishtirib olingan?



2) O'quvchilar bir maydondan  $144 \text{ kg}$ , ikkinchi maydondan  $90 \text{ kg}$  sabzavot yig'ishtirib oldilar. Maydonlarning umumiy yuzi  $78 \text{ m}^2$ . Har bir alohida maydonning yuzini toping.

**889.**  $(47\,926 + 50\,378) : (2\,101 - 1\,845) \mid 556\,928 : 304$   
 $(75\,016 - 73\,837) \cdot (4\,001 - 3\,984) \mid 247\,170 : 642$

**890.** Avtobus birinchi soatda  $70 \text{ km/soat}$ , ikkinchi soatda  $78 \text{ km/soat}$  tezlik bilan yurdi. Avtobusning shu ikki soatdagi o'rtacha tezligini toping.

**891.** Tengsizliklar tuzing va ularni tekshiring:

- 1)  $7\,020$  va  $90$  sonlarining bo'linmasi  $5\,030$  va  $4\,961$  sonlari ayirmasidan katta.
- 2)  $704$  va  $42$  sonlari ko'paytmasi  $26\,470$  va  $3\,704$  sonlari yig'indisidan kichik.



**892.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi bog'ni devor bilan o'rash kerak. Bog'ning uzunligi  $800 \text{ m}$ . Kengligi uzunligining sakkizdan besh qismiga teng. Devorning uzunligi qancha?



**893.**  $30\,000 - 33\,781 : 83 + 8\,076$   
 $63\,094 + 4\,060 \cdot 84 - 6\,285$



Perimetrlari teng bo'lgan, lekin birining tomoni ikkinchisining hech bir tomoniga teng bo'lmagan ikkita to'g'ri to'rtburchak chizish mumkinmi?


**894.** To'qimachilik fabrikasi oldin 84 sr, keyin 108 sr paxta oldi. Hammasi bo'lib massasi bir xil bo'lgan 96 toy paxta keltirildi. Fabrika oldin necha toy va keyin necha toy paxta olgan?

**895.** Klub zali va vestibyulining poliga kvadrat shaklidagi koshinlar yotqizildi. Zalga vestibyulga qaraganda 520 ta koshin ortiq ketdi. Zal polining yuzi  $200 \text{ m}^2$ , vestibyul polining yuzi  $174 \text{ m}^2$  bo'lsa, zalga nechta va vestibyulga nechta koshin yotqizilganini hisoblang.


**896.** Ko'p qavatli uydagi romlarga oyna solish uchun 486 ta oyna ketdi. Dam olish uyidagi romlarga 432 ta oyna ishlatildi. Dam olish uyida ko'p qavatli uyga qaraganda romlar 9 ta kam. Hammasi bo'lib nechta romga oyna solingan?

**897.**  $26 \text{ t } 496 \text{ kg} : 46$  |  $202 \text{ m } 02 \text{ sm} : 37$

**898.**  $736 \text{ } 200 : 18 - 640 \text{ } 096 : 32 + 9 \text{ } 876 : 12$



**899.** Bir do'konga 432 kg konfet 27 ta bir xil yashikda keltirildi. Ikkinchi do'konga xuddi shunday yashiklarda 848 kg konfet keltirildi. Ikkinchi do'konga necha yashik konfet keltirilgan?



**900.**  $10 \text{ } 920 : 39 + 608 \cdot 34$  |  $362 \cdot 298$   
 $18 \text{ } 495 : 27 + 475 \cdot 18$  |  $302 \text{ } 841 : 627$



G'ayrat va Ma'sudaga bajargan ishlari uchun 20 jeton to'lashdi. G'ayrat 3 soat, Ma'suda 2 soat ishladi. To'langan pulni ular qanday bo'lib olishgan?

**901.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonchanning bo'yi 85 m, eni 64 m. Shu maydonchaga qurilgan uy  $160 \text{ m}^2$  maydonni egallaydi. Agar qolgan yerning yarmi bog' bo'lsa, bog'ning yuzini toping.

**902.** Tirkamali avtomashinada 1 080 sr ko'mirni tashish kerak. Har safar mashinaga 30 sr va tirkamaga undan 2 marta kam ko'mir ortiladi. Hamma ko'mirni tashish uchun shu mashina necha marta qatnashi kerak?

**903.** 1) Aeroportdan bir vaqtda ikkita samolyot qarama-qarshi tomonga qarab uchib ketdi. 10 minutdan keyin ular orasidagi masofa 270 km bo'ldi. Agar 1- samolyotning tezligi 15 km/min bo'lsa, 2- samolyotning tezligini toping.



2)  $600 : 6 - 55$  ifodaga ko'ra yuqoridagiga o'xshash masala tuzing.

**904.**  $127\,410 : 274 + 307\,200 : 480 - 1\,085 : 31$   
 $806 \cdot 62 - 961 \cdot 39 + 384 \cdot 70$



**905.** Do'konda bir kunda 24 kg olma murabbosi va 40 kg behi murabbosi sotildi. Agar bankalar bir xil bo'lsa va behi murabbosi 8 banka ortiq sotilgani ma'lum bo'lsa, har qaysi murabbodan necha bankadan sotilgan?



**906.**  $48\,984 : 52$  |  $8\,820 : 28$  |  $10\,000 - 284 \cdot 35$   
 $91\,375 : 43$  |  $1\,904 : 34$  |  $9\,999 + 8 \cdot 4\,356$

**907.** 7 t 200 kg bug'doy tegirmonda tortildi. Hamma bug'doyning  $\frac{4}{5}$  qismini un tashkil etdi. Manniy

yormasi undan 10 marta kam chiqdi. Qolganini kepak tashkil etdi. Qancha manniy yormasi, qancha kepak chiqqan?

**908.** 1 800 ta kitobni muqovalash kerak. Bir usta bu ishni 10 kunda, ikkinchisi 15 kunda bajaradi. Ikkala usta birgalikda ishlasa, bu ishni necha kunda bajaradi?

**909.** Polizdan oshxonaga va do'konga hammasi bo'lib 8 arava qovun jo'natildi. Do'kon 24 sr va oshxona 8 sr qovun qabul qildi. Oshxonaga necha arava va do'konga necha arava qovun jo'natilgan?


**910.** Tenglamalarni yeching:


$$x \cdot 36 = 828$$


$$x : 74 = 132$$

$$920 : x = 1$$

$$340 - x = 0$$

 **911.**  $280 \cdot 96 : 42$  |  $156\ 750 : 75$  |  $10\ 100 - 43\ 268 : 58 \cdot 6$

 **912.** 1) Uchi  $A$  nuqtada bo'lgan burchaklarni;  
2) uchi  $D$  nuqtada bo'lgan burchaklarni;  
3)  $AD$  tomon umumiy bo'lgan ko'pburchaklarni ayting:



Kitob javonining uchta tokchasida 105 ta kitob bor. Birinchi tokchadagi kitoblarga yana 15 ta kitob qo'shilgandan so'ng hamma tokchalardagi kitoblar baravardan bo'ldi. Birinchi tokchada nechta kitob bo'lgan?

**913.** Bitta usta 1920 ta kitobni muqovaladi, ikkinchisi 1935 ta kitobni muqovaladi. Agar bir kunda I usta 640 ta kitobni, II usta 215 ta kitobni muqovalasa, qaysi usta ishni tez bitirgan va necha marta tez bitirgan?

**914.** Bo'yi 12 m, eni 5 m va balandligi 3 m bo'lgan somonxona xashak bilan to'ldirildi. Agar 1 m<sup>3</sup> xashak 60 kg kelsa, bu xonaga qancha xashak joylangan?

**915.** Avtomobil asfaltlangan yo'lda 2 soat 90 km/soat tezlik bilan, tosh yo'lda 3 soat 70 km/soat tezlik bilan yurdi. Avtomobilning o'rtacha tezligini toping.



**916.** Yulduzchalar o'rnida qanday raqamlar bo'lishi kerak?



$$\begin{array}{r|l} 43848 & 87 \\ \hline 435 & 5 \heartsuit 4 \\ \hline \_348 & \\ \_348 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 112144 & 16 \\ \hline 112 & 7 \heartsuit \heartsuit 9 \\ \hline \_144 & \\ \_144 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 389120 & 64 \\ \hline 384 & 6 \heartsuit 8 \heartsuit \\ \hline \_512 & \\ \_512 & \\ \hline 0 & \end{array}$$


**917.** Hisoblashlardagi xatoliklarni toping va ularni tuzating:

$$\begin{array}{r|l} 32900 & 94 \\ \hline 282 & 35 \\ \hline \_470 & \\ \_470 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 51414 & 57 \\ \hline 513 & 92 \\ \hline \_114 & \\ \_114 & \\ \hline 0 & \end{array}$$

$$\begin{array}{r|l} 6544 & 16 \\ \hline 48 & 3109 \\ \hline \_17 & \\ \_16 & \\ \hline \_144 & \\ \_144 & \\ \hline 0 & \end{array}$$





**918.** Do'konda 140 ta ayollar va 120 ta erkaklar kastumi bor edi. Kun davomida ayollar kastumining yarmi va erkaklar kastumining uchdan bir qismi sotildi. Qaysi kastumdan ko'p sotildi va qancha ko'p sotildi?



**919.**  $11\ 359 : 37$  |  $7 \cdot 829 - 6 \cdot 493$   
 $15\ 257 : 73$  |  $60 \cdot 49 + 70 \cdot 26$



### Takrorlash uchun topshiriqlar

1. Ko'p xonali sonni ikki xonali songa qanday bo'lish mumkin ekanini ayting. Buni  $7\ 020 : 36$  misolida tushuntiring.
2.  $7\ 328 : 916$  holida qanday bo'lishingizni tushuntiring.
3.  $182\ 007 : 567$  holida qanday bo'lishingizni tushuntiring.



### Mustahkamlash uchun mashqlar

1.  $810 - 60 + 420 - 180 : 9$  |  $(90 - 63) \cdot (42 + 58) - 70$   
 $7\ 000 - (24 \cdot 100 - 24 \cdot 10)$  |  $80 \cdot (15 + 25) - 480 : 80$
2.  $(200\ 000 - 198\ 545) : 5$  |  $(700\ 000 - 699\ 754) \cdot 409$   
 $(300\ 000 - 260\ 874) : 6$  |  $(901\ 200 - 900\ 937) \cdot 740$
3.  $3\ 712 : 64$  |  $46\ 116 : 84$  |  $195\ 936 : 32$  |  $634\ 220 : 76$   
 $4\ 017 : 13$  |  $7\ 014 : 14$  |  $9\ 105 : 15$  |  $14\ 480 : 16$
4.  $15\ 050 : 35$  |  $39\ 360 : 48$  |  $136\ 010 : 67$  |  $216\ 360 : 36$
5.  $14\ 752 : 64 \cdot 23$  |  $60\ 384 : 24 : 37 \cdot 89$   
 $630 \cdot 81 : 70 : 9$  |  $168\ 912 : 51 : 48 \cdot 74$

6. Qoldiqli bo'lishni bajaring:

$$68 : 25 \quad | \quad 84 : 30 \quad | \quad 730 : 200 \quad | \quad 2140 : 400$$

7. Agar  $a = 12$ ;  $a = 27$ ;  $a = 68$  bo'lsa,  $14\ 688 : a$  ifodaning qiymatini toping.

8. Tenglamalarni yeching:

$$\begin{array}{l|l|l} x + 294 = 306 & 860 - x = 109 & x - 233 = 621 \\ x \cdot 22 = 88\ 396 & 15\ 639 : x = 39 & x : 36 = 195 \end{array}$$

9. Taqqoslang:

$$\begin{array}{l|l} 14\ t\ 620\ kg\ va\ 14\ 620\ kg & 9\ 040\ tiyin\ va\ 904\ so'm \\ 1\ 800\ s\ va\ 5\ min & 7\ 834\ sm\ va\ 78\ m\ 34\ sm \\ 8\ 320\ sr\ va\ 83\ t\ 2\ sr & 13\ kg\ 400\ g\ va\ 1\ 680\ g \end{array}$$

10. Uy qurilishiga 632 400 dona g'isht ketadi. Agar bu g'ishtni 620 ta yug'ma panel bilan almashtirilgan bo'lsa, bitta panel nechta g'ishtning o'rnini bosadi?

11. Qandolat fabrikasida 68 xil mahsulot ishlab chiqariladi. Ularning to'rtidan bir qismi eksport qilinadi. Necha xil mahsulot eksport qilinadi?

12. Qishloqdan teatrga 96 kishi 3 ta avtobus va bir nechta yengil mashinada kelishdi. Har bir avtobusga 27 kishi va yengil mashinaga 5 kishi sig'adi. Qishloqdan nechta yengil mashina kelgan?

13. Ikkita mashinada 34 500 kg kartoshkani omborga tashish kerak. Birinchi mashina 1 500 kilogrammdan kartoshka ortib, 9 marta qatnadi. Ikkinchi mashina 3 000 kilogrammdan kartoshka ortib, 7 marta qatnadi. Hamma kartoshka tashildimi?

14. Ikkita novvoyxonaga 250 qop un keltirildi. Bir novvoyxona 10 125 kg, ikkinchisi 8 625 kg un olgan bo'lsa, har qaysi novvoyxona nechta qopdan un olgan?



## Hamma o'tilganlarni mustahkanlash uchun mashqlar

1. Tekshirish bilan yeching:  
 $692\ 503 + 243\ 497$  |  $720\ 002 - 362\ 701$
2.  $(20\ 385 - 14\ 923) + (6\ 000 - 4\ 947)$
3.  $62 \cdot 24 \cdot 35$  |  $64 : 16 \cdot 85 \cdot 12$  |  $89 \cdot 65 - 74 \cdot 32$
4.  $856 \cdot 48$  |  $904 \cdot 82$  |  $4\ 872 \cdot 39$  |  $9\ 999 - 56 \cdot 45$   
 $2\ 550 : 34$  |  $49\ 192 : 52$  |  $3\ 100 \cdot 19$  |  $8\ 040 - 35 \cdot 16$
5.  $926 \cdot 184$  |  $805 \cdot 426$  |  $4\ 814 \cdot 129 - 585\ 294$   
 $90\ 628 : 326$  |  $216\ 320 : 416$  |  $11\ 001 - 254\ 562 : 418$
6. Natijani hisoblang va yechimini tekshiring:  
 $60\ 718 + 5\ 967$  |  $20\ 016 - 9\ 324$  |  $707 \cdot 38$  |  $9\ 312 : 48$
7. Qoldiqli bo'lishni bajaring va yechimni tekshiring:  
 $12\ 856 : 42$  |  $68\ 012 : 54$  |  $308\ 119 : 67$
8.  $500\ 000 - 186 \cdot 76 - 12\ 210 : 66 + 216\ 009$   
 $50\ 000 - (223 \cdot 89 + 14\ 807 : 67) : 4$   
 $19\ 800 : 88 : 9 + 205 \cdot 38 : 95$   
 $430 \cdot 140 - (180 - 120 : 3) \cdot 18$
9.  $369 \cdot 428 : 492 + 56\ 224 : 112$   
 $164\ 388 : 399 + 947 \cdot 635 - 463\ 550 : 730$
10. Agar:  
1)  $a = 640$ ;  $a = 720$  bo'lsa,  $a + 640$  va  $a - 640$ ;  
2)  $a = 1$ ;  $a = 2$  bo'lsa,  $410 : a$  va  $410 \cdot a$   
ifodalarning qiymatlarini toping.
11. Ifodalarni taqqoslang:  
 $280 : 10 : 7$  va  $280 : 70$   $620 : (10 : 2)$  va  $620 : 10 : 2$   
 $450 : 10 : 5$  va  $450 : 15$   $800 : 4 + 80 : 4$  va  $880 : 4$
12. Tenglamalarni yozing va ularni yeching.  
1) Agar noma'lum son 45 ga orttirilsa, 100 hosil bo'ladi.  
2) Agar noma'lum son 7 marta orttirilsa, 490 hosil bo'ladi.  
3) 630 hosil bo'lishi uchun 800 dan qanday sonni ayirish kerak?

- 4) 18 hosil bo'lishi uchun 720 ni qanday songa bo'lish kerak?  
 5) 170 hosil bo'lishi uchun qanday sonni 14 ga bo'lish kerak?

**13.** Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang:

- 1) 840 va 615 sonlari ayirmasini 8 marta orttirish.
- 2) 420 ni 21 va 2 sonlari ko'paytmasiga ko'paytirish.
- 3) 23 ni 19 va 5 sonlari ko'paytmasiga ko'paytirish.
- 4) 231 va 14 sonlari yig'indisini 5 marta kamaytirish.
- 5) 890 va 615 sonlari yig'indisiga 1 512 va 216 sonlari bo'linmasini qo'shish.

**14.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$98 - 14 : 2 + 5 = 47 \quad | \quad 98 - 14 : 2 + 5 = 86$$

**15.** Masalalarni va ularning yechilishlarini taqqoslang:

- 1) Dasturxonda 6 ta non bor edi. Yana bir necha non qo'yilgandan keyin 14 ta non bo'ldi. Nechta non qo'yilgan?
- 2) Dasturxonga 14 ta non qo'yish kerak edi. 6 ta non qo'yildi. Yana nechta non qo'yish kerak?
- 3) Dasturxonga 6 ta non qo'ygandan keyin yana 8 ta non qo'yish qoldi. Hammasi bo'lib nechta non qo'yish kerak edi?

**16.** Oralaridagi masofa 14 km bo'lgan ikki guruh bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi va 2 soatdan keyin uchrashdi. Guruhlardan biri 4 km/soat tezlik bilan yurgan.

Quyidagi ifodalarning ma'nosini tushuntiring:

- |                 |                     |                           |
|-----------------|---------------------|---------------------------|
| 1) $14 : 2$     | 3) $4 \cdot 2$      | 5) $(14 - 4 \cdot 2) : 2$ |
| 2) $14 : 2 - 4$ | 4) $14 - 4 \cdot 2$ |                           |

**17.** Bahosi 630 so'm bo'lgan gazlamadan 6 m sotib olish uchun 2 200 so'm yetadimi?

**18.** 100 kg lavlagini qayta ishlash natijasida undan 16 kg oqqand olish mumkin. 1 t (3 t; 5 t) lavlagidan qancha oqqand olish mumkin?

**19.** Vertolyot 2 soatda 430 km uchdi. Tezligi undan 3 marta ortiq samolyot 5 soatda qancha masofaga uchadi?

**20.** Buldozer 3 soat davomida 234 m<sup>2</sup> yo'lni tekisladi. Agar shunday unum bilan ishlasa, buldozer 10 soatda qancha yo'lni tekislaydi?

21. Ulug' o'zbek shoiri Muqimiy 1851- yili tavallud topdi va 1903- yili vafot etdi. Muqimiy nechanchi asrda tug'ilgan va necha yil umr ko'rgan?
22. Ta'mirlovchilar guruhi 66 ta xonani ta'mirlashlari ke-rak edi. Har bir qavatda 6 tadan xona bor. Bir necha qavat ta'mirdan chiqqanidan keyin yana 24 xona qoldi. Necha qavat ta'mirlab bo'lindi?
23. Agar mototsikl haydovchisi 76 km/soat tezlik bilan yursa, oralaridagi masofa 230 km bo'lgan ikki shahar orasini 3 soatda o'ta oladimi?
24. Bir oshxonaga bir xil qoplarda 150 kg, ikkinchi oshxonaga 90 kg don mahsulotlari keltirildi. Ikkinchi oshxonaga birinchidagidan 2 qop kam mahsulot keltirildi. Har bir oshxonaga necha qop don mahsulotlari keltirilgan?
25. Bir poyezd 62 km/soat tezlik bilan 372 km, ikkinchi poyezd 71 km/soat tezlik bilan 568 km yo'lni o'tdi. Ikkinchi poyezd birinchi poyezdga nisbatan necha soat ko'p yo'lda bo'lgan?
26. Ikki poyezd bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. Birinchi poyezd 70 km/soat, ikkinchisi 64 km/soat tezlik bilan yurdi. Ikkinchi poyezd uchrashguncha 192 km yo'lni o'tdi. Birinchi poyezd uchrashguncha qanday masofani o'tgan?
27. Sisternada 3 600 l suv bor edi. Bir nasos hamma suvni 24 min da, ikkinchi nasos 40 min da haydab chiqaradi. Agar ikkala nasos bir vaqtda ishga tushsa, hamma suvni necha minutda haydab chiqaradi?
28. Yosh tabiatshunoslar quyon boqishdi. 3 ta quyonning har biri 1 kg 750 g, 6 ta quyonning har biri 2 kg 100 g va bitta quyon 2 kg 400 g massaga ega. Bitta quyonning o'rtacha massasi qanchaga teng?
29. Avtosisternada 3 240 l sut bor edi. Har biri 32 l dan bo'lgan bir nechta bidon to'ldirilgandan so'ng sisternada 360 l sut qoldi. Necha bidon sut bilan to'ldirilgan?

- 30.** Velosipedchi bir xil tezlik bilan 2 soat yurdi. U yana 11 km yurgandan keyin bosib o'tgan yo'li 41 km ga teng bo'ldi. Velosipedchi qanday tezlik bilan yurgan?
- 31.** Bir jo'yakdan 38 sr, ikkinchi jo'yakdan 3 marta ko'p lavlagi yig'ishtirib olindi. Hamma lavlagining to'rttdan bir qismi omborga jo'natildi. Omborga necha sentner lavlagi jo'natilgan?
- 32.** Yog' zavodi 3 ta do'konga 1 400 kg yog' jo'natdi. Zavod birinchi do'konga hamma yog'ning  $\frac{1}{7}$  qismini, ikkinchi do'konga  $\frac{3}{14}$  qismini, uchinchi do'konga esa qolgan yog'ni jo'natdi. Har qaysi do'kon qanchadan yog' olgan?
- 33.** Ustaxonada 98 m gazlama bor edi. Hamma gazlamaning  $\frac{5}{7}$  qismi 20 ta bir xil ko'ylak tikish uchun sarflandi. Bitta ko'ylakka qancha gazlama ketgan? (Zarur bo'lganda metrlarni santimetrlarda ifodalang.)
- 34.** Ustaxonaning bo'yi 9 m, eni 5 m va balandligi 3 m. Ustaxonaning hajmini toping.
- 35.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonning bo'yi 120 m, eni esa 46 m. Yuzi shu maydonning yuziga teng, bo'yi esa 80 m bo'lgan boshqa maydonning enini toping.
- 36.** Uchburchakning perimetri 114 mm. Uning bir tomoni 28 mm, ikkinchi tomoni bu tomondan ikki marta uzun. Uchburchakning uchinchi tomoni qanchaga teng?



# 1-4- SINFLAR MATEMATIKA KURSIDAN ASOSIY MA'LUMOTLAR

## Raqamlash

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

Sonlarning hosil bo'lishi,  
yozilishi va o'qilishi



10 birl. = 1 o'nl.  
10 o'nl. = 1 yuzl.  
10 yuzl. = 1 mingl.

10 mingl. = 1 o'n mingl.  
10 o'n mingl. = 1 yuz mingl.  
10 yuz mingl. = 1 million




Yuzl.	O'nl.	Birl.	Yuzl.	O'nl.	Birl.
Minglar			Birlar		

Yozilishi: 498 512

Agar sonda qaysi bir xonaning birligi bo'lmasa, shu sonning yozilishida bu xonaga 0 raqami qo'yiladi.


Masalan:




- 1) Cho'tga 703 ming besh soni solingan. Uning yozilishi quyidagicha: 703 005.
- 2) Cho'tga 1 million 325 soni solingan. Uning yozilishi quyidagicha: 1 000 325.
- 3) Cho'tga 208 ming 479 soni solingan. Uning yozilishi quyidagicha: 208 479.

### Sonlarni taqqoslash

Sonlarni bunday taqqoslash mumkin:



1) Qatorda egallagan o'rinlari bo'yicha: 1, 2, 3, ...  
Masalan:



7 < 8, chunki sanoqda 7 soni 8 dan oldin keladi.  
2) Xona birliklari asosida katta xonalardan boshlagan holda:



Masalan: 6 098 < 8 163, chunki 6 ming < 8 ming.  
9 412 > 9 399, chunki 4 yuz > 3 yuz.



## Arifmetik amallar

	Amalning nomi. Belgisi	Ifoda va uning nomi	Berilgan va izlanadigan sonlar nomi
<span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">+</span>	Qo'shish «+» (qo'shish belgisi)	$29 + 65$ 29 va 65 sonlarining yig'indisi	$\begin{array}{r} + 29 - \text{qo'shiluvchi} \\ + 65 - \text{qo'shiluvchi} \\ \hline 94 - \text{yig'indi} \end{array}$
<span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">-</span>	Ayirish «-» (ayirish belgisi)	$123 - 84$ 123 va 84 sonlarining ayirmasi	$\begin{array}{r} 123 - \text{kamayuvchi} \\ - 84 - \text{ayriluvchi} \\ \hline 39 - \text{ayirma} \end{array}$
<span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">·</span> <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">×</span>	Ko'paytirish «·» yoki «×» (ko'paytirish belgisi)	$97 \cdot 3$ 97 va 3 sonlarining ko'paytmasi	$\begin{array}{r} \times 97 - \text{ko'paytuvchi} \\ \times 3 - \text{ko'paytuvchi} \\ \hline 291 - \text{ko'paytma} \end{array}$
<span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">:</span> <span style="border: 1px solid black; padding: 2px;">┌</span>	Bo'lish «:» va «┌» (bo'lish belgisi)	$72 : 8$ 72 va 8 sonlarining bo'linmasi	$\begin{array}{r} 72 - \text{bo'linuvchi} \\ : 8 - \text{bo'luvchi} \\ \hline 9 - \text{bo'linma} \end{array}$ $\begin{array}{r} - 24 \mid 5 - \text{bo'luvchi} \\ 20 \mid 4 - \text{bo'linma} \\ \hline 4 - \text{qoldiq} \end{array}$ 24 - bo'linuvchi

## Amallarning bajarilish tartibi

Sonli ifodaning xususiyatlari	Amallarni bajarish tartibi	Misollar
Faqat «+» va «-» yoki «×» va «:» ni o'z ichiga olsa	Tartib bilan (chapdan o'ngga)	$\begin{array}{c} \textcircled{1} \textcircled{2} \textcircled{3} \\ 48 : 6 \cdot 2 : 4 = 4 \\ \textcircled{1} \textcircled{2} \textcircled{3} \\ 100 - 70 + 5 - 4 = 31 \end{array}$

<p>Faqat «+» va «-» nigina emas, balki «x» va «:» ni o'z ichiga olsa</p>	<p>Avval berilgan tartib bilan «x» yoki «:» (chapdan o'ngga), keyin «+» yoki «-» (chapdan o'ngga) bajariladi</p>	$\begin{array}{c} \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \textcircled{2} \\ 240 - 80 : 4 \cdot 7 = 100 \\ \textcircled{2} \quad \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \\ 180 + 120 - 90 \cdot 3 = 30 \\ \textcircled{1} \quad \textcircled{3} \quad \textcircled{4} \quad \textcircled{2} \\ 630 : 9 + 20 - 7 \cdot 5 = 55 \\ \textcircled{1} \quad \textcircled{3} \quad \textcircled{2} \\ 320 : 8 - 150 : 5 = 10 \end{array}$
<p>Bir yoki bir necha juft qavslar ishtirok etsa</p>	<p>Avval qavsli ifodalarning qiymati hisoblanadi, keyin 1 va 2- qoidalar bo'yicha bajariladi</p>	$\begin{array}{c} \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \quad \textcircled{2} \\ 900 - (200 \cdot 4 + 60) = 40 \\ \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \quad \textcircled{2} \\ 70 \cdot (36 - 30 + 4) = 700 \\ \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \quad \textcircled{2} \\ 40 + (820 - 800) \cdot 5 = 140 \\ \textcircled{3} \quad \textcircled{1} \quad \textcircled{4} \quad \textcircled{2} \\ 3 \cdot (77 - 75) - (13 - 9) = 2 \end{array}$

### Qo'shish amali xossalari

So'z bilan ifodalanishi	Misollar
<p>Qo'shiluvchilarning o'rni almashtirilsa ham yig'indi o'zgarmaydi</p>	$7 + 6 = 6 + 7$ $48 + 15 + 3 = 15 + 3 + 48$
<p>Ikki qo'shni qo'shiluvchini ularning yig'indisi bilan almashtirish mumkin</p>	$(40 + 28) + 2 = 40 + (28 + 2)$

### Ko'paytirish amali xossalari

So'z bilan ifodalanishi	Misollar
<p>Ko'paytuvchilarning o'rni almashtirilsa ham ko'paytma o'zgarmaydi</p>	$3 \cdot 8 \cdot 10 = 3 \cdot 10 \cdot 8$
<p>Ikki qo'shni ko'paytuvchini ularning ko'paytmasi bilan almashtirish mumkin</p>	$9 \cdot (7 \cdot 10) = (9 \cdot 7) \cdot 10$

Yig'indini songa ko'paytirishda har bir qo'shiluvchini alohida bu songa ko'paytirib, chiqqan natijalarni qo'shish mumkin	$(6 + 5) \cdot 8 = 6 \cdot 8 + 5 \cdot 8$
--	---

### Qo'shish va ayirishda sonlar orasidagi bog'lanish

Amal	Misollar	So'z bilan ifodalanishi
Qo'shish	$18 + 70 = 88$ $88 - 18 = 70$ $88 - 70 = 18$	Agar yig'indidan bir qo'shiluvchi ayirilsa, ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'ladi
Ayirish	$45 - 31 = 14$ $14 + 31 = 45$ $45 - 14 = 31$	Agar ayirmaga ayriluvchi qo'shilsa, kamayuvchi hosil bo'ladi <hr/> Agar kamayuvchidan ayirma ayirilsa, ayriluvchi hosil bo'ladi

### Qo'shish va ayirishni tekshirish

Amal	Tekshirish usullari	
	I usul	II usul
Qo'shish	Ayirish bilan	Qo'shish bilan
$\begin{array}{r} + 132 \\ + 547 \\ \hline 679 \end{array}$	$\begin{array}{r} - 679 \\ + 547 \\ \hline 132 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 547 \\ + 132 \\ \hline 679 \end{array}$
Ayirish	Qo'shish bilan	Ayirish bilan
$\begin{array}{r} - 903 \\ - 285 \\ \hline 618 \end{array}$	$\begin{array}{r} + 618 \\ + 285 \\ \hline 903 \end{array}$	$\begin{array}{r} - 903 \\ - 618 \\ \hline 285 \end{array}$

## Ko'paytirish va bo'lishda sonlar orasidagi bog'lanish

Amal	Misollar	So'z bilan ifodalanishi
Ko'paytirish	$7 \cdot 6 = 42$ $42 : 6 = 7$ $42 : 7 = 6$	Agar ko'paytmani ko'paytuvchilarning biriga bo'linsa, ikkinchi ko'paytuvchi hosil bo'ladi
Bo'lish	$28 : 7 = 4$ $4 \cdot 7 = 28$  $28 : 4 = 7$	<p>Agar bo'linmani bo'luvchiga ko'paytirilsa yoki bo'luvchini bo'linmaga ko'paytirilsa, bo'linuvchi hosil bo'ladi</p> <hr/> <p>Agar bo'linuvchi bo'linmaga bo'linsa, bo'luvchi hosil bo'ladi</p>

## Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish

Amal	Tekshirish usullari	
	I usul	II usul
Ko'paytirish  $\begin{array}{r} \times 43 \\ 25 \\ \hline + 215 \\ 86 \\ \hline 1075 \end{array}$	Bo'lish bilan  $\begin{array}{r} 1075 \overline{)43} \\ \underline{86} \phantom{0} \\ 215 \\ \underline{215} \\ 0 \end{array}$	Ko'paytirish bilan  $\begin{array}{r} \times 25 \\ 43 \\ \hline + 75 \\ \hline 100 \\ \hline 1075 \end{array}$
Bo'lish  $\begin{array}{r} 612 \overline{)34} \\ \underline{34} \phantom{0} \\ 272 \\ \underline{272} \\ 0 \end{array}$	Ko'paytirish bilan  $\begin{array}{r} \times 34 \\ 18 \\ \hline + 272 \\ 34 \\ \hline 612 \end{array}$	Bo'lish bilan  $\begin{array}{r} 612 \overline{)18} \\ \underline{54} \phantom{0} \\ 72 \\ \underline{72} \\ 0 \end{array}$






## 0 soni bilan amallar


Amal	Harf bilan yozilishi	Soʻz bilan ifodalanishi. Misollar
Qoʻshish	$a + 0 = a$ $0 + b = b$	Agar qoʻshiluvchilardan biri 0 ga teng boʻlsa, yigʻindi ikkinchi qoʻshiluvchiga teng boʻladi $7 + 0 = 7$ $316 + 0 = 316$ $0 + 928 = 928$
Ayirish	$c - 0 = c$	Agar sondan 0 ayirilsa, shu sonning oʻzi qoladi $65 - 0 = 65$ $349 - 0 = 349$
	$k - k = 0$	Agar kamayuvchi va ayiriluvchi bir-biriga teng boʻlsa, ayirma 0 ga teng boʻladi $946 - 946 = 0$ $78 - 78 = 0$
Koʻpaytirish	$0 \cdot b = 0$ $c \cdot 0 = 0$ $c \cdot b \cdot 0 = 0$	Agar koʻpaytuvchilardan biri 0 ga teng boʻlsa, koʻpaytma ham 0 ga teng boʻladi $0 \cdot 912 = 0$ $348 \cdot 0 = 0$ $564 \cdot 0 \cdot 9 = 0$
Boʻlish	$0 : b = 0$ $(b \neq 0)$  0 ga boʻlish mumkin emas	Agar 0 ni biror songa boʻlinsa, 0 hosil boʻladi $0 : 54 = 0$ $0 : 987 = 0$  <div style="border: 1px solid red; padding: 5px; display: inline-block; text-align: center;"> <del><math>b : 0</math></del> </div>

## 1 soni bilan ko'paytirish va bo'lish

Amal	Harf bilan yozilishi	So'z bilan ifodalanishi. Misollar
Ko'paytirish	$1 \cdot a = a$ $b \cdot 1 = b$	Agar ikkita ko'paytuvchidan biri 1 ga teng bo'lsa, ko'paytma ikkinchi ko'paytuvchiga teng bo'ladi $1 \cdot 89 = 89$ $359 \cdot 1 = 359$
Bo'lish	$k : 1 = k$	Agar son 1 ga bo'linsa, shu sonning o'zi hosil bo'ladi $34 : 1 = 34$ $642 : 1 = 642$
	$c : c = 1$ $c \neq 0$	Agar bo'linuvchi va bo'luvchilar teng bo'lsa, bo'linma 1 ga teng bo'ladi $89 : 89 = 1$ $598 : 598 = 1$

## Geometrik shakllar va kattaliklar


Shakllar	Nomi va belgilanishi
	A nuqta, C nuqta
	a tog'ri chiziq
	b egri chiziq
	c siniq chiziq
	AB kesma, CD kesma




*ABC* va *DBE* to'g'ri burchaklar

*MNK* o'tkir burchak


*MKC* o'tmas burchak




Ko'pburchaklar:  
*ABC*, *DENM*, *KECD*, *KCMD*,  
*ABCDE*, *MKEDOA*




Uchburchaklar:  
*A*, *B*, *C* nuqtalar – uchburchakning uchlari  
*AB*, *AC*, *BC* kesmalar – uchburchakning tomonlari  
 $\angle BAC$ ,  $\angle ABC$ ,  $\angle BCA$  – uchburchakning burchaklari




To'rtburchaklar:  
Burchaklari to'g'ri bo'lgan to'rtburchaklar bor. Bular *to'g'ri to'rtburchaklar* deyiladi (3 va 4- shakllar)



Tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklar bor. Bular *kvadratlar* deyiladi. Chizmadagi 4-shakl – bu kvadrat



$AB$  kesmaning uzunligi 3 sm 9 mm ga teng



Ko'pburchak tomonlarining yig'indisi uning *perimetri* deyiladi

$ABC$  uchburchakning perimetri 8 sm 4 mm ga teng

$DBEK$  to'rtburchakning perimetri 10 sm 1 mm ga teng


To'g'ri to'rtburchakning yuzi:

$$5 \cdot 2 = 10$$

*Javob:* 10 sm<sup>2</sup>



Kvadratning yuzi:

$$2 \cdot 2 = 4$$



*Javob:* 4 sm<sup>2</sup>



<p style="text-align: center;">Aylanalar</p> 	<p><math>O</math> – aylananing markazi</p>
<p style="text-align: center;">Doiralar</p> 	<p><math>OC</math> – doiraning radiusi  <math>AB</math> – doiraning diametri  <math>O</math> – doiraning markazi</p>







## Ilova

### Mikrokalkulyator bilan ishlashni o'rganing

Mikrokalkulyator – ko'p xonali sonlar bilan arifmetik amallarni tez va oson bajaradigan oddiy elektron hisoblash mashinasi.

Sonlar mikrokalkulyatorga 0 dan 9 gacha bo'lgan tugmalarni bosib kiritiladi.

Sonlar ustuda to'rt arifmetik amal quyidagi tugmalar yordamida bajariladi:

	– qo'shish		– tenglik		– o'chirish
	– ko'paytirish		– bo'lish		– ayirish

Ikki son bilan arifmetik amalni bajarish, masalan  $6 + 9$  yig'indini topish uchun:

1) **[6]** tugmasini bosib, birinchi qo'shiluvchi kiritiladi, tabloda 6 raqami ko'rinadi.

2) **+** tugmasi bosilgandan so'ng tabloda 6 sonning ko'rinishi davom etadi.

3) **9** tugmasi bosiladi va ikkinchi qo'shiluvchi kiritiladi, tabloda 9 soni ko'rinadi.

4) **=** tugmasi bosiladi va tabloda javobi ko'rinadi. Bundan keyin o'qiladi, agar kerak bo'lsa, yozib olinadi.

5) **UNIC** tugmasini bosib, tablodagi yozuv o'chiriladi.

Mikrokalkulyatordan foydalanish malakangizni qo'shish va ko'paytirish jadvallaridan misollar yechib tekshiring.

1) Ifodaning qiymatini mikrokalkulyator yordamida toping:  
 $43\ 298 + 794$  |  $9\ 004 - 532$  |  $3\ 381 \cdot 32$  |  $78\ 192 : 724$

2) Mikrokalkulyator yordamida amallarni bajaring va tekshiring:

$532\ 648 + 189\ 583$  |  $805\ 732 - 568\ 847$  |  $4\ 641 \cdot 23$  |  $7\ 362 : 18$

3) Amallarni bajaring:

$2\ 738 + 1\ 076 + 5\ 687$

$435 \cdot 74 : 37$

$4\ 688 + 3\ 385 - 6\ 956$

$306 \cdot 24 : 72$

## Javoblar

### MINGLIK

**3- sinfda o'tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish**

6. 27 m. 8. 28 ta o'rik. 14. 350 ta tarvuz. 21. 54 kg. 23. 20 ta kitob. 28. 9 ta sigir. 30. 30 ta xaltacha. 36. 5 ta yashik. 42. 59 ta kitob. 43. 30 m. 45. 68 ta tugma.

### KO'P XONALI SONLAR

#### Raqamlash

51. 594 ishchi. 52. 135 kg. 59. 800 ta daftar. 60. 60 ta fotosurat. 63. 705 kg. 67. 45 yashik. 68. 7 bola. 71. 12 kg ortiq. 3 marta ortiq. 77. 7 ta jo'ja. 79. 40 km. 86. 68 so'm. 87. 90 ta gul. 89. 160 o'quvchi. 93. 330; 16. 95. 80 sm. 100. 48 kg ortiq. 101. 8 ta

stol. 103. 450 t ortiq. 109. 6 nafar qiz ortiq. 110. 84 ta qalam.  
116. 30 kg; 5 varaq. 117. 72 sm. 122. 400 kg. 128. 4 000 so'm.  
129. 3 bog'lam. 130. 23 ta qalam.

### To'rt arifmetik amal va ularning bajarilish tartibi

133. 17 ta kastum. 134. 34 m. 149. 80 kg. 157. 60 kg. 161. 160 kg.  
164. 282 kg.

### Qo'shish va ayirish

169. 81 g. 176. 18 ta. 184. 560 g. 195. 570 so'm. 196. 1 095 kg.  
203. 4 ta mashina ortiq. 204. 57 kg. 209. 6 soat. 210. 18 kg.  
217. 2 marta. 223. 17 ta xaltacha, 26 ta xaltacha. 229. 763 xonadon.  
235. 140 t. 244. Ikkinchisi, 2 kun oldin. 251. 70 kg.  
254. 88 kg. 260. 28 kg. 261. 150 so'm. 262. 1) 6 ta; 2) 30 ta va  
24 ta. 265. 4 bet. 269. 40 kg va 20 kg. 270. 370 ta palto. 272.  
180 kg.

### Tezlik. Vaqt. Masofa

276. 2 975 l. 279. 20 km/soat. 286. 1 260 km. 289. 42 km. 294. 70 bet.  
297. 194 ta palto.

### Bir xonali songa ko'pavtirish

302. 24 kg. 303. 36 km. 307. 30 km/soat. 308. 21 varaq. 315. 10 soat.  
321. 100 km, 200 km. 322. 272 km. 327. 264 m 60 sm. 328. 29 va 31 o'quvchi.  
330. 5 kg 930 g. 335. 2 soatda. 341. Yengil mashina, 24 km/soat.

### Bir xonali songa bo'lish

351. 3 yashik. 358. 40 m va 60 m. 361. 98 km. 365. 371 so'm, 477 so'm.  
366. 66 ta chipta. 371. 9 kg. 372. 600 ta marka. 373. 800 bola. 379. 24 so'm; 5 ta shar; 4 ta shar.  
380. 30 kg, 20 kg. 381. 7 kun. 383. 4 800 so'm. 387. 80 sm<sup>2</sup>. 390. 4 marta.  
420. 13 m<sup>2</sup>. 426. (1). 5 soat, 6 soat. 426. (2). 28 bet, 42 bet. 428. 9 ta chipta.  
434. 7 ta o'yinchoq, 9 ta o'yinchoq. 440. 39 km/soat, 4 marta. 443. 54 ta qalam.  
447. (1). 21 km. 447. (2). 3 soatdan keyin. 447. (3). 4 km/soat. 452. 480 km. 453. 5 soatdan keyin.  
454. 10 km/soat. 456. 3 600 ta mashina. 458.

(2). 45 km. 459. 465 km. 460. 34 km. 465. (1). 270 km. 465.  
(2). 3 soatdan keyin. 465. (3). 40 km/soat. 466. 2 kg 700 g.  
468. 250 km.

### Kasrlar

484. 4 soat. 487. 450 so'm, 270 so'm. 488. 4 kg. 496. 54 m. 497.  
100 m<sup>2</sup>. 499. 72 sm<sup>2</sup>. 503. 6 ta daftar, 2 ta daftar. 504. 68 sr. 506.  
5 400 so'm. 512. 74 km. 514. 966 ta ko'ylak. 518. 713 kg. 523  
(2). 98 kg. 528. 12 km/soat. 531. 144 kg, 120 kg. 532. 46 km.  
536. 135 kg, 180 kg.

### Nol bilan tugaydigan sonlarga ko'paytirish

543. 1 242 so'm. 548. 39. 549. 400 g. 557. 215 ta kitob. 558.  
620 ta daraxt. 566. 1 200 ta o'rin. 567. 20 km. 574. 124 ta  
kurka. 576. 140 ta o'rin. 577. 62 ta televizor. 582. 80 so'm;  
320 so'm; 640 so'm. 583. 3 soatdan so'ng. 584. 200 m.

### Nol bilan tugaydigan sonlarga bo'lish

590. 240 m. 591. 30 km. 594. 15 bet. 599. 657 m. 600. 64 m.  
601. 6 m. 605. 3 kanistr, 2 kanistr. 608. 4 ta qo'ydan. 610. 12  
ta. 611 (1). 10 kg. 611 (2). 675 kg. 612. 60 qop, 40 qop. 619. 32  
l. 620. 11 yashik; 9 yashik. 621. 3 savat; 5 savat. 625.  $2\ 220 : 60 = 37$ ;  
 $1\ 850 : 50 = 37$ ;  $37 = 37$ . 626. 6 qatnov; 10 qatnov.  
627. 72 km. 628. 10 l. 632 (1). 800 m. 632 (2). 300 m<sup>2</sup>. 633. 72  
m. 635. 5 kanistr. 640. 40 km. 647. 700 m<sup>2</sup>; 1 050 m<sup>2</sup>. 653. 75  
kg; 600 kg; 700 kg. 655. 50 so'm. 656. 6 km/soat.

### Jismlarning hajmi

659. 12 soat. 662. 314 kg. 663. 38 o'quvchi. 668. 1 200 m<sup>2</sup>; 140  
m. 671. 800 kg. 672 (1). 2 marta. 672 (2). 300 ta g'isht. 674  
(2). 800 ta kitob. 677. 15 km/soat. 679. 1 400 km; 3 500 km.  
680. 570 km/soat. 681. 600 m<sup>3</sup>. 685. 20 kg. 693. 140 l, 210 l.  
694. 24 m<sup>3</sup>, 8 m<sup>3</sup>, 6 m<sup>3</sup>. 695. 41 km 800 m. 696. 50 m<sup>2</sup>; 110 m<sup>2</sup>.  
698. 29 kg.

### Ikki xonali va uch xonali songa ko'paytirish

704. 170 kg. 706. 9 km/soat. 711. 200. 712. 10 000 kg. 713. 43

kg 950 g. 718. 288 m; 384 m. 719. 900 t. 720. 400 so'm. 725. 26 km. 728. 31 kg. 729. 24 t. 732. 60 km/soat. 734 (1). 5 so'm. 734 (2). 45 so'm, 25 so'm. 738. 51 t 3 sr. 739. 3 016 sm<sup>2</sup>. 741. 5 m<sup>3</sup>. 742. 576 km; 256 km. 749. 6 900 so'm. 750. 11 soat; 25 soat 40 min. 753. 48 102 varaq. 758. 1 080 m<sup>3</sup>. 759. 22 ta ko'ylak; 27 ta ko'ylak. 760. 3 m; 7 m. 761. 192 m<sup>2</sup>. 766. 45 bet; 54 bet. 767. 1 620 m<sup>3</sup>. 771 (1). 25 t; 15 t. 771 (2). 5 qatnov; 3 qatnov. 772 (1). 400 kg. 772 (2). 30 so'm. 773. 16 m va 5 m; 8 m va 10 m; 4 m va 20 m; 2 m va 40 m; 1 m va 80 m. 774. 800 m<sup>2</sup>. 777. 64 m<sup>3</sup>.

### Ikki xonali va uch xonali songa bo'lish

780. 300 kg. 781. 124 yong'oq. 782. 960 m<sup>2</sup>. 786. 1 224 ta o'yinchoq. 787. Yetadi. 789. 3 sutka 11 soat. 793 (1). 2 730 kg, 1 890 kg. 793 (2). 39 qop va 27 qop. 794. (211 - 126 - 74) · 8 = 88; (985 - 396 : 18) - 819 = 144. 795. 100 ta xaltacha. 799. Bajaradi. 800. 40 ta televizor ortiq. 802. 130 sm, 1 000 sm<sup>2</sup>. 806. 216 m. 807. 1 055 km. 809. 768 m, 1 056 m. 812 (1). 4 qatnov, 7 qatnov. 812 (2). 128 t, 224 t. 815. 1 va 100, 2 va 50, 4 va 25, 5 va 20, 10 va 10. 818 (1). 39 km, 26 km. 818 (2). 3 soat, 2 soat. 823. 260 km. 828. 22 juft. 833 (1). 20 m, 16 m. 833 (2). 10 ta fartuk, 8 ta fartuk. 834. 441 sm<sup>2</sup>. 840. 205 ta chuqurcha. 847. 6 l. 848. 5 soat. 850. 700 sm<sup>2</sup>. 854. 60 m<sup>3</sup>. 855. 28 kg. 862. 2 000 ta ko'chat, 1 280 ta ko'chat. 863. 3 100 ta g'isht. 869. Uchrashadi. 870. 6 800 so'm, 14 900 so'm. 876. 63 km. 879. 16 so'm. 881. 402. 882. 18 ta detal. 887. 24. 888 (1). 144 kg, 90 kg. 888 (2). 48 m<sup>2</sup>, 30 m<sup>2</sup>. 890. 74 km/soat. 892. 2 600 m. 894. 42 toy, 54 toy. 895. 4 000, 3 480. 896. 81. 899. 53 yashik. 901. 2 640 m<sup>2</sup>. 902. 24. 903. 12 km/min. 905. 12 ta banka va 20 ta banka. 907. 576 kg yorma, 864 kg kepak. 908. 6 kunda. 909. 6, 2. 913. I usta, 3 marta. 914. 10 t 800 kg. 915. 78 km/soat. 918. Ayollar kastumi 30 ta ortiq.

## Mundarija

<b>MINGLIK</b> .....	3
3-sinfda o‘tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish .....	3
<b>KO‘P XONALI SONLAR</b> .....	9
Raqamlash .....	9
To‘rt arifmetik amal va ularni bajarish tartibi .....	26
Qo‘shish va ayirish .....	33
Qo‘shish va ayirishning yozma usullari .....	33
Tezlik. Vaqt. Masofa .....	53
Ko‘paytirish va bo‘lish .....	60
Bir xonali songa ko‘paytirish .....	60
Bir xonali songa bo‘lish .....	70
Kasrlar .....	100
Nollar bilan tugaydigan sonlarga ko‘paytirish .....	113
Nollar bilan tugaydigan sonlarga bo‘lish .....	120
Jismlarning hajmi .....	136
Ikki xonali va uch xonali songa ko‘paytirish .....	145
Ikki xonali va uch xonali songa bo‘lish .....	161
Hamma o‘tilganlarni mustahkamlash uchun mashqlar .....	187
Mikrokalkulyator bilan ishlashni o‘rganing .....	201
Javoblar .....	202

**Nataliya Umarovna Bikbayeva**

# **MATEMATIKA**

4- sinf uchun darslik

2-nashri

*Toshkent «O'qituvchi» 2004*

**Tahririyat mudiri**

*M. Po'latov*

**Muharrir**

*X. Alimov*

**Muqova rassomi va sahifalovchi**

*O. Baklikova*

**Musahhih**

*M. Ibrohimova*

IB № 8437

2004- yil 9- sentabrda diapozitivdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Kegli 13,5 shponli. SchoolBook garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma  
t. 13,0. Shartli b. t. 15,21. Nashr t. 14,6. 20 000 nusxada bosildi.  
Buyurtma № 47. Bahosi 1270 so'm.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod  
dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 09-164-04.

„Yangiyo'l poligraf servis“ OAJ. Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44. 2004.

22.1

B58

**Bikbayeva N.U.**

Matematika: Umumiy ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun  
darslik. 2- nashri. – T.: «O'qituvchi», 2004. – 208 b.

BBK 22.1ya721

*Handwritten signature*